

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

UO‘K:

Qo‘lyozma huquqida

XOLMUMINOV ILXOM ABDIXALILOVICH

“Alpomish” dostonini ingliz tiliga tarjima qilish muammolari”

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: B.A.Xoliqov, filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Toshkent – 2023

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. FOLKLORSHUNOSLIKNING UMUMNAZARIY ASOSLARI VA TARJIMA MUAMMOLARI	
1.1. Folklorshunoslik sohasining taraqqiyot bosqichlari va folklor asarlari matni qurilishining nazariy asoslari	15
1.2. Folklor asarlar tarjimasining konseptual tamoyillari	27
1.3. Dostonlar tarjimasida adekvatlik va ekvivalentlik muammosi.....	41
Bob bo'yicha xulosa.....	54
II BOB. “ALPOMISH” DOSTONIDAGI STILISTIK VOSITALARNING INGLIZ TILIGA TARJIMALARI XUSUSIDA	
2.1. “Alpomish” dostonidagi stilistik vositalarning tarjima qilish muammolari	56
2.2. Asliyat va tarjimada o'xshatishlarning sintaktik-semantik tahlili	70
2.3. “Alpomish” dostoni va uning tarjimasida mubolag'a va qiyoslashlarning sintaktik-semantik tahlili	91
Bob bo'yicha xulosa.....	103
III BOB. “ALPOMISH” DOSTONINING INGLIZ TILIDAGI TARJIMASIDA TARJIMON MAHORATI	
3.1. “Alpomish” dostonida frazeologik birliklar tarjimasida tarjimon mahorati..	105
3.2. Tarjimada qofiya va ohangning qayta yaratilishida tarjimon uslubi	118
3.3. “Alpomish” dostoni tarjimasida tarjimonning ijodiy mahorati	133
Bob bo'yicha xulosa.....	146
UMUMIY XULOSA	148
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	152

KIRISH (falsafa dokori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarjimashunosligida xalqlarning milliy turmush tarzi, e'tiqodiy qarashlari, urf-odat va an'analariga tutash mental xususiyatlari, ularning o'z til qonuniyatlari aks etgan folklor namunalarini asliyatdan o'girishning o'z prinsip va metodlari bor. Buni dalillash esa folklor asarlarining badiiy tarjimasi muammolarini aniqlash va yechish, ilmiy-nazariy asoslarini belgilab olish uchun zarurdir. Har qanday millat adabiyotining eng sara namunalarini tarjima tilida qayta yaratishni ilmiy asosda o'rganish, asliyat mazmunini saqlagan holda retseptorga taqdim etish masalasi jahon tarjimashunosligi oldida turgan ustivor vazifalardan biridir.

Dunyo folklorshunosligida xalq og'zaki ijodi namunalarining umumjahon sivilizatsiyasidagi o'rniga qiziqish, turli tillarda amalga oshirilgan tarjimalarni qiyosiy-tipologik, chog'ishtirma-lingvistik, etnofolkloristik yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar misolida yaqqol kuzatiladi. Bunda har bir xalqning folklor asarlari tilida ko'p uchraydigan stilistik vosita va iboralarning tarjimada muqobilini topish muammoli jarayon sifatida e'tiborni tortadi. Har bir millatning madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi kabi o'ziga xos jihatlari badiiy adabiyotda keng ko'lamda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, jahon adabiyoti durdonalarini o'rganish nafaqat badiiy asar sir-sinoatlariga oshno qiladi, balki o'sha xalq madaniyati, qadriyatlarini, urf-odatlaridan ham xabardor etadi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin yurtimizda olib borilayotgan islohotlar jarayonida "Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish"¹ ustivor vazifalardan biri sifatida belgilanishi ilm-fan va texnika sohalarining so'nggi yutuqlaridan mamlakatimiz yoshlarini boxabar etishda sifatli tarjimalarni amalga oshirish va buning uchun tarjimashunoslik sohasiga doir ilmiy tadqiqotlar olib borish va shu orqali yetuk tarjimonlarni tayyorlash ustivor vazifa bo'lib qolmoqdaki, bu mazkur ilmiy ishning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018-yil 5-martdagi Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Is'hoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi.

qanchalik dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda kechayotgan islohotlarning hozirgi yangi bosqichida “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim”² deb ta’kidlaydi Prezidentimiz. Shu asosda o‘zbek folklori namunalaridagi milliy-madaniy, leksik-semantik, stilistik xususiyatlarni inglizcha tarjimada saqlash usullarini lingvomadaniy, etnofolkloristik, pragmatik hamda sintaktik-semantik yo‘nalishlarda o‘rganish chog‘ishtirma tilshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning ilmiy-amaliy asoslarini mustahkamlashga imkon yaratadi.

Oxirgi yillarda tarjimashunoslik muammolariga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlar dunyo yuzini ko‘rgan bo‘lsa-da, tarjima amaliyotining, xususan, dostonlarni o‘zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjimasining tub qatlamlariga chuqur kirilmadi. Mavjud folklor asarlar tarjimalarning saviyasi bu sohadagi tadqiqot ishlarini jonlantirishni zaruriyatga aylantirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan xalq og‘zaki ijodi namunalarini qardosh bo‘lmagan tillarga qilingan tarjima matnlarini o‘rganish dolzarb muammo ekanligini bildiradi. Shu nuqtayi nazardan ularni qiyosiy-chog‘ishtirma usulda o‘rganish va dostonlar tarjimalarining nazariy hamda amaliy asoslarini takomillashtirishga xizmat qildirish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi. “Alpomish” dostonida qo‘llangan leksik birliklar, stilistik vositalar hamda iboralarni tarjima qilishning leksik-semantik, sintaktik-semantik va stilistik unsurlarini aniqlash, ularni ingliz tilida qayta yaratish, milliy-madaniy kolorit, qofiya va ohang kabi xususiyatlarini tarjimada saqlab qolish imkoniyatlarini chuqur tadqiq etish mazkur tadqiqotning zaruriylikini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha

² Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи / Халқ сўзи. – Тошкент, 2019, 22 октябрь. – № 218 (7448). – Б.1.

kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi, 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-sonli "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon folklorshunosligida turli xalq og'zaki ijodi namunalarining milliy, lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlarini ochib berish hamisha tilshunoslarni qiziqtirib kelgan. Umuman aytganda, folklor asarlar o'zi mansub xalqning madaniyatidan darak beruvchi estetik hodisa sifatida lingvomadaniy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Bu, avvalo, til, madaniyat va shaxsning o'zaro munosabatlarini o'rganishda, tilshunoslik fanida tilning milliy-madaniy o'ziga xosligini anglashda, tarjimashunoslikning mazkur sohalari bilan bog'liq muammolarni hal etishda ekvivalent tarjima mezonlari asosida har bir tarjima asarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu kungacha o'zbek tarjimashunosligida G'.Salomov, N.Komilov, G.G'afurova, K.Jo'rayev, I.G'afurov, I.Mirzayev, Q.Musayev, T.Jo'rayev, M.Xolbekov, O.Mo'minov, M.Umarxo'jayev, G'.Hoshimov, M.Baqoyeva, Sh.Sirojiddinov, G.Odilova, N.Qambarov, E.Ochilov, G'.Rahimov, D.Jumanova, R.Shirinova, M.Javbo'riyev, Sh.Isakova, N.Panjiyeva, N.O'rmonova, A.Ko'chiboyev³ va boshqa olimlarning tarjima nazariyasi hamda amaliyoti, u bilan

³ Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Т.: ЎзР ФА нашриёти, 1961. – 159 б.; Саломов Ф. Тил ва таржима (бадий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). – Т.: Фан, 1966. – 385 б.;

bog'liq muammolar yechimi, tarjima tanqidi sohasida erishgan yutuqlari bu sohadagi keyingi tadqiqotlar uchun dasturulamal bo'lganligini e'tirof bilan alohida qayd etish o'rinli. Ayni paytda o'zbek tarjimashunosligida erishilgan yutuqlar o'zbek folklori tarjimashunosligining shakllanishi va nazariy jihatdan taraqqiy etishi uchun ilmiy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda hozirgacha R.Fayzullayeva, Sh.Ro'ziyev, Y.Nurmurodov, B.Shamsiyeva, B.Ro'zimboyev, Z.Jumaniyozov, H.Yusupova, M.Jo'rayeva, U.Yo'ldoshev, R.Qosimova⁴ kabi

Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 236 б.; Саломов Ф. Таржима ташвишлари. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 195 б.; Саломов Ф., Комилов Н. Дўстлик кўприклари: (Поэзия ва таржима). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 224 б.; Гафурова Г. Развитие перевода в Узбекистане. – Т.: Фан, 1973. – 159 с.; Гафуров И. Таржимонлик мутахассислигига кириш. – Т., 2008. – 118 б.; G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Т.: “Tafakkur bo'stoni”, 2012. – 321 б.; Мирзаев И.К. Проблемы передачи слов обозначающих реалии французской жизни на узбекский язык: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1975. – 22 с.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005. – 352 б.; Жўраев К.Таржима санъати. – Т.: Фан, 1982. – 60 б.; Жўраев К., Жўраев Э. ва бошқалар. Таржима назарияси ва амалиёти. – Андижон, 2008. – 116 б.; Холбеков М. Таржимашунослик ва таржима танқиди. – Т.: Наврўз, 2015. – 120 б.; Умархўжаев М. Таржима ва таржимашуносликнинг долзарб масалалари // Ҳозирги замон таржимашунослигининг долзарб масалалари (Илмий-амалий конференция материаллари). – Андижон, 2008. – 200 б.; Хошимов Ф. К теории метаязыка транслатология (Республика илмий-амалий анжуман материаллари). – Андижон, 2015. – 160 б.; Бақоева М. Инглиз ва Америка адабиётидан ўзбек тилига шеърлий таржима ва киёсий шеършунослик муаммолари. – Т.: Фан, 2015. – 288 б.; Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадиий таржима асослари. – Т.: Мумтоз сўз, 2011. – 164 б.; Одилова Г. Инглиз ва ўзбек мумтоз шеърлиги таржималарида адекватлик муаммолари: Филол. фан. номз.... дисс. – Т., 2011 – 26 б.; Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти. – Т., 2012. – 200 б.; Раҳимов Ф. Таржима назарияси ва амалиёти. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2016. – 176 б.; Жуманова Д. Сўзнинг тил алоқа жараёнидаги фонологик модели: Филол. фан. док. дисс. автореф. – Т., 2016. – 87 б.; Ширинова Р. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Т., 2017. – 56 б.; Жавбўриев М. Бадиий таржимада миллий характер ва тарихий давр колоритини қайта яратиш (О.Ёқубовнинг “Улуғбек хазинаси” тарихий романининг немисча таржимаси мисолида): Филол. фан. номз. ...дисс. – Т., 1991. – 202 б.; Исақова Ш. Бадиий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс эттирилиши: (Ойбекнинг “Навойи” романининг французча таржимаси мисолида): Филол. фан. номз. ...дисс. – Т., 2004. – 132 б.; Панжиева Н.Н. Когнитивный аспект оценочных номинаций лица в английском и узбекском языках: Дисс.... канд. фил. наук. – Т., 2004. – 150 с.; Ўрмонова Н. Таржимада тарихий-архаик лексикани акс эттириш принциплари ва таржима аниқлиги (ўзбек адабиётидан француз тилига қилинган таржималар таҳлили асосида): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Т., 2008. – 26 б.; Кўчибоев А. Бадиий матн таржимасининг прагматик аспекти / Матн прагматикаси. Ўқув-услубий қўлланма. – Самарқанд, 2015. – 123 б.

⁴ Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: дисс. . канд. филол. наук. – Т.: ИЯЛ АНРУз, 1972. – 225 с.; Рузиев Ш. К вопросу узбекско-немецких литературных связях: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Т.: ИЯЛ АНРУз, 1974. – 30 с.; Нурмуродов Й. История изучения и проблемы научно-литературного перевода узбекского фольклора на немецкий язык: Дисс. . канд. филол. наук. – Т.: ИЯЛ АНРУз, 1983. – 192 с.; Шамсиева Б. Вопросы узбекского фольклора в зарубежном литературоведении: Фил. фан. номз.... дисс. – Т., 1994; Рўзимбоев Х. Хоразм фольклорининг хорижда ўрганилиши тарихидан: Фил. фан. номз. дисс. – Т., 1996; Жуманиёзов З.О. “Равшан” достони немисча таржимасида миллийликни қайта яратиш: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2008. – 25 б.; Юсупова Ҳ.Ў. Ўзбек халқ оғзаки насри намуналарининг инглизча таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши (эртақлар, латифалар мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2011. – 149 б.; Жўраева М. Француз ва ўзбек эртақларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хуссиятлари: Филол. фан. док. дисс. автореф. – Т.: Академия ноширлик маркази, 2017. – 87 б.; Йўлдошев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латифалари мисолида): Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Т., 2017. – 42 б.; Касимова Р.Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Т., 2018. – 152 б.

olimlarning tadqiqotlari bevosita folklor asarlar tarjimashunosligiga bog'ishlanganligi kuzatiladi.

Jahon tarjimashunosligida esa N.V.Kidaysh-Pokrovskaya, V.M.Gatsak, Sh.A.Alekperova, A.S.Mirbadaleva, N.M.Tereshenko, S.Dollerup, L.A.Pisareva, Z.S.Kazagacheva, O.N.Zimneva, N.M.Axpasheva⁵ kabi bir qator tadqiqotchi olimlar folklor matnlari tarjimasiga oid ilmiy izlanishlarini e'tirof etish maqsadga muvofiq.

Tahlil qilib chiqilgan boshqa folklor asarlardan farqli o'laroq, bizning tadqiqot ishimizda o'xshatish, metafora, sinekdoxa, mubolag'a kabi stilistik vositalar va iboralarning aslyat matnida qo'llanish xususiyatlari va ularning tarjimada berilish usullari, ushbu lisoniy birliklarni tarjima qilish strategiyalari hamda aslyat va tarjima matnlarini qiyoslash asosida tarjima qilishning kompleks texnologiyasi va metodologiyasidan foyalanish tizimlashtirib yoritiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi. "Alpomish" dostonining o'ziga xos badiiy xususiyatlari, leksik-stilistik bo'yoqdorligi, stilistik vositalar va iboralarni aslyat tilida aniqlash va ular tarjimasining ekvivalentlik darajalarini sintaktik-semantik

⁵ Кидайш-Покровская Н.В. Перевод тюркоязычных памятников в Академической серии, Фольклор. Издание эпоса. – Москва: Наука, 1977. 332 с.; Гацак В. М. Проблема фольклорического перевода эпоса. // Петросян, А. А., ответственный редактор. Фольклор. Издание эпоса. – Москва : Изд. "Наука", 1977. – 192 с.; Алекперова Ш.А. Проблема передачи национального своеобразия азербайджанского эпоса "Кёроглу" на русском языке. Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд. филол. наук. – Баку, 1982. 165 с.; Мирбадалева А.С, Кидайш-Покровская Н.В. О принципах перевода и комментирования текста Манас. Киргизский героический эпос. Книга 1. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1984. – 544 с.; Терещенко Н.М. Ненецкий эпос: Материалы и исследования по самодийским языкам. – Ленинград: Наука, 1990. – 335 с.; Dollerup S. Tales and Translation: The Grimm Tales from Pan-Germanic Narratives to Shared International Fairytales. – Amsterdam: John Benjamins, 1999. 384 p.; Писарева Л.А. Поэтика фольклора и перевод. Латышские даины в русских переводах. – М.: ЭКОН, 2002. 101 с.; Казагачева З.С. Алтайские героические сказания "Очи-Бала", "Кан-Алтын" (Аспекты текстологии и перевода). – Горно-Алтайск, 2002. 352 с.; Зимнева О.Н. Лексика русских народных баллад: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Курск, 2005. – 18 с.; Ахпашева Н.М. Переводческая традиция хакасских сказаний о богатырях: опыт прескриптивного анализа художественного перевода, – М.: 2009. 197 с.

mezonlar asosida aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari. Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda qo'yidagi ustivor vazifalar belgilab olindi:

- folklor asarlar matnining nazariy asoslari, o'ziga xos leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish;

- o'zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjimalarga bag'ishlangan ilmiy ishlarda tavsiflangan badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

- "Alpomish" dostonida qo'llangan leksik birliklar, stilistik vositalar hamda iboralarni tarjima qilishning leksik-semantik va sintaktik-semantik unsurlarini aniqlash va tarjima tilida berishning ekvivalentlik darajalarini belgilash;

- "Alpomish" dostonining milliy-madaniy koloritini, qofiya va ohangini tarjima tiliga o'girishda tarjimonning uslubi va ijodiy mahoratini o'rganish;

- folklor asarlarni tarjima qilish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda qo'llanilgan lingvistik transformatsiyalarini dalillash asosida tarjima jarayonida qulaylik tug'diradigan usullarni, yetakchi tamoyillarni va tarjimaning ekvivalentlik darajalarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;

- tarjimaning asliyat ma'nosi va mazmuniga muqobilligini isbotlash uchun lingvistik transformatsiya usullari, jumladan, predikatsiyalashtirish, kengaytirish, sinonim so'z bilan almashtirish, o'rnini almashtirish, gap tarkibidan chiqarish, qo'shimcha lingvistik element kiritish kabi eksperimentlarni qo'llash imkoniyatlarini ochib berish;

- tarjimaning ekvivalentlik darajalarini asoslashning sintaktik-semantik unsurlari, formal-distributiv xususiyatlari hamda leksik bazalarini aniqlash mezonlari bo'yicha ilmiy-nazariy metodologiyani ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti sifatida baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li tilidan yozib olingan "Alpomish" dostonining 1998-yilda Alisher Navoiy nomidagi Til va Adabiyot instituti tomonidan tayyorlanib nashr etilgan nusxasi asosida tarjimon Qosimboy Mamurov tomonidan 2019-yilda ingliz tiliga qilingan tarjimasi tanlandi.

Tadqiqotning predmeti. "Alpomish" dostonida uchraydigan leksik birliklar, stilistik vositalar va iboralar tarjimasini, she'riy matnlarda qofiya va ohangning

saqlanishini tarjimon Q.Mamurov tomonidan ingliz tiliga qilingan tarjimasi bilan chog‘ishtirma tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, tavsifiy-miqdoriy, konseptual, komponent va sintaktik-semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- folklor asarlar tarjimasining asliyat ma’no-mazmuniga muqobilligini isbotlash uchun transformatsiya usullaridan, shu jumladan, kengaytirish, o‘rnini almashtirish, qo‘shimcha lingvistik element kiritish, muqobilini (ekvivalentini) topish, so‘zma-so‘z (kalkalash), transliterasiya, sinonim so‘zlardan foydalanish, izoh keltirish, generalizasiya, konkretizatsiya (aniqlashtirish), modulyatsiya kabi usullar eng ko‘p qo‘llanadigan samarali usullar ekani asoslantirildi.

- “Alpomish” dostonida qo‘llangan leksik birliklar, stilistik vositalar hamda iboralarni tarjima qilishning leksik-semantik va sintaktik-semantik unsurlari aniqlandi va tarjima tilida o‘tkazishning ekvivalentlik darajalari belgilandi;

- “Alpomish” dostonining inglizcha tarjimasida milliy-madaniy koloritni, qofiya va ohangni asliyatga mos berishda tarjimonning uslubi va ijodiy mahorati ochib berildi, bu boradagi uslubiy imkoniyatlar va cheklanishlar dalillandi;

- folklor asarlarni tarjima qilish bilan bog‘liq muammolarni lingvistik transformatsiya jarayonlarini dalillash asosida ularni tarjima qilishga qulaylik tug‘diradigan tarjima usullarini, yetakchi tamoyillarni va tarjimaning ekvivalentlik darajalarini aniqlash mezonlari ishlab chiqildi;

- tarjimaning ekvivalentlik darajalarini asoslashning sintaktik-semantik unsurlari va formal-distributiv xususiyatlari va leksik bazalarini aniqlash mezonlarini istiqboldagi tarjimalarda qo‘llash bo‘yicha ilmiy-nazariy metodologiya ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbek folklori janrining asliyatdan tarjima qilinishi bilan bog‘liq muammolarni qiyosiy aspektda o‘rganish va yechimlarini aniqlash orqali chiqarilgan xulosalar qiyosiy adabiyotshunoslik, o‘zbek folklorshunosligi, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik fanlarini

yangi nazariy qarashlar bilan boyitishi va ularning rivoji uchun hissa qo'shadigan ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qilishi asoslab berildi;

“Alpomish” dostonida qo'llangan leksik birliklar, stilistik vositalar hamda iboralarni tarjima qilishning leksik-semantik, sintaktik-semantik unsurlarini aniqlandi va tarjima tilida berishning ekvivalentlik darajalarini belgilash mezonlari ishlab chiqildiki, ulardan folklor janridagi asarlarni tarjima qilishda foydalanish mumkin;

Tarjimaning ekvivalentlik darajalarini asoslashning sintaktik-semantik unsurlari va formal-distributiv xususiyatlari va leksik bazalarini aniqlash mezonlarini istiqboldagi tarjimalarda qo'llash bo'yicha ilmiy-nazariy metodologiya ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida nazariy muammoning aniq qo'yilganligi, tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan keltirilgan muammolar yuzasidan ilmiy qarashlarning o'rganilganligi, ma'lumotlar mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, o'zbek va ingliz tillarida tahlilga tortilgan materiallarning metodologik puxtaligi, asoslilik, dissertatsiya ishi bo'yicha ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilgani, taklif, tavsiya va xulosalar asosida olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

- Mazkur dissertatsiya ishi she'riy folklor asarlarni tarjima qilish nazariyasini va metodologiyasini sezilarli darajada boyitdi. Ilmiy ishning natijalari va xulosalari badiiy tarjima, xususan, yangidan yangi folklor asarlarni tarjima qilish uchun nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

- Xususan, tarjima birliklarining sintaktik-semantik tahlili va lingvistik modellarini tarjima tadqiqoti bo'yicha birinchi marta ishlab chiqilishi tarjimaning adekvatlik va ekvivalentlik darajalarini aniqlashda qo'llash uchun ham nazariy jihatdan ham amaliy jihatdan namuna sifatida xizmat qilishi mumkin.

- Tarjimashunos tadqiqotchilar, amaliyotchi tarjimonlar, tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar foydalanishlari uchun mazkur ish sezilarli darajada katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek folklori namunalarini ingliz tiliga tarjima qilish muammolari bilan bog‘liq izlanishlar jarayonida ilmiy xulosalar asosida:

folklor asarlar matni qurilishining umumnazariy asoslari, ilk folklorshunoslarning o‘zbek folklori namunalarini jamlashda tutgan o‘rni xususidagi umumlashmalar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-F1-030 raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7 jild) chop etish” (2017-2020) mavzusidagi fundamental loyihaning nazariy qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 9-fevraldagi 01/4-276-son ma’lumotnomasi);

“Alpomish” dostonida inson qiyofasini tasvirlashda milliy madaniy xos so‘zlarning ahamiyati va ularni tarjimada ifodalanishi, dostonda qo‘llanilgan somatik so‘zlar ishtirok etgan iboralar tarjimasi muammolari va ularni bartaraf etishda tarjimon mahorati, tarjimada milliy timsollar tasviri muammolari, ularning asliyat bilan uyg‘unligiga erishishda tarjimon mahorati, asliyatda doston qahramonlarining ichki kechinmalari, fe‘l-atvori, xarakteri, milliylik va umuminsoniylik g‘oyalarining tarjimada aks etishi kabi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan I-OT-2019-42 raqamli “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (inson qiyofasi, fe‘l-atvori tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” (2020-2021) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 27-fevraldagi 04/1-425-son ma’lumotnomasi);

o‘zbek folklorshunosligining taraqqiyot bosqichlari, folklor matnlarining o‘rganilish tarixi, “Alpomish” dostoni tarjimasida adekvatlik va ekvivalentlik muammolari, folklor asarlar tarjimasiga oid umumiy nazariyalar, folklor asarlarda milliy xos so‘zlar tarjimasi, tarjimada ohangning qayta yaratilishi, “Alpomish” dostoni va uning tarjimasida qo‘llanilgan o‘xshatishlarning sintaktik-semantik tahlili, doston tarjimasining asosiy muammolari, dostonda qo‘llanilgan metafora,

mubolag‘a, sinekdoxa va qiyoslashlarning tarjima varianti bilan chog‘ishtirma tadqiqi, “Alpomish” dostoni qo‘llanilgan frazeologik birliklar tarjimasida tarjimon mahorati, asliyat va tarjimada qofiya uyg‘unligi, tarjima jarayonida tarjimonning ijodiy yondashuvi masalalariga oid ilmiy-badiiy misollardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharrifatining “Bedorlik”, “Adabiy jarayon” radioeshittirishlari senariysida foydalanilga (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2023-yil 3-maydagi O‘z\|R-23-29-son ma’lumotnomasi). Mazkur tadqiqot natijalarining efirga uzatilishi mamlakatimiz yoshlarini o‘zbek folklorining jahon tillariga tarjimalari, undagi muammolar, tarjima muammolarini hal etish usullari, dostonda qo‘llanilgan stilistik vositalar, leksik va frazeologik birliklar tarjimasida tarjimon mahorati, keyingi yillardagi tadqiqotlarda shu kabi muammolarga nazariy muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy qadamlar tashlanilayotganini targ‘ib etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, OAK e‘tirof etgan jurnallarda 6 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, to‘qqiz faslni o‘z ichiga oluvchi uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertasiyaning umumiy hajmi 167 betni tashkil etadi.

I BOB. FOLKLORSHUNOSLIKNING UMUMNAZARIY ASOSLARI VA TARJIMA MUAMMOLARI

1.1. Folklorshunoslik sohasininng taraqqiyot bosqichlari va folklor asarlari matni qurilishining nazariy asoslari

Folklor janri insoniyat muloqotga kirishgan davrdan boshlab paydo bo'lgan va asrlar davomida o'zi tegishli bo'lgan xalq bilan birga yashab, birga rivojlanib kelayotgan buyuk qadriyatdir. U o'zining g'oyaviy va tarbiyaviy ahamiyati, hayotiyligi hamda xalqchilligi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Inson dunyoga kelgan kunidan boshlab, to umrining so'ngiga qadar o'z xalqining urf-odatlarini, an'ana-yu qadriyatlari ta'sirida ulg'ayib, dunyoqarashi shakllanib boradi. Boshqacha aytganda, har bir xalqning turmush tarzi, an'ana va urf odatlari, xohish-istaklari-yu orzu-umidlari xalq og'zaki ijodiyoti namunalarida o'z aksini topadi. O'zbek millati ham azal-azaldan xalq qo'shiqlarini sevib ijro etib, asrab-avaylab kelajak avlodlarga o'z baxshilari orqali o'tkazib kelgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Termiz shahrida o'tkazilgan xalqaro baxshichilik festivalining tantanali ochilishidagi nutqida shunday fikrlarni bildirgan edi: "Tengsiz ma'naviy boyligimiz bo'lmish mumtoz san'atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir."⁶ Bu yerda Prezidentimiz, birinchidan, nainki, san'at va adabiyot ahli, balki jamiyatning har bir vakili hatto kelajak avlodlar ham bu boyliklarimizdan birdek bahramand bo'lib asramog'i zarurligi, ikkinchidan, xalq og'zaki ijodi namunalarini xorijiy tillariga tarjima qilib, butun jahon xalqlariga yetkazish orqali madaniyatlararo, adabiyotlararo munosabatlarni rivojlantirishda ham hissa qo'shish lozimligini nazarda tutmoqdalar.

Folklor asarlar matni o'ziga xos poetik qolipga ega. Qahramonlik dostonlari syujet va kompozitsiyasi xalq baxshilari tomonidan musiqiy uslubga xoslangan bo'lib, unda hech qaysi janrda takrorlanmaydigan ibtido va yakunga egaligi bilan

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan marosimdagi nutqi // Xalq so'zi gazetasi. 2019-yil, 7-aprel. – №68(72-98) son. – B. 1.

xarakterlanadi. Folklor namunalari og‘zaki yaratilib, og‘zaki ijro etilishi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Biror millatning tarixini o‘rganmoqchi bo‘lsak, albatta, o‘sha millat folkloriga murojaat etishimiz taqozo qilinadi. Rus akademigi V.Jirmunskiy ta’kidlaganidek; “Epos – bu xalqning qahramonlik idealizatsiyasi ko‘lamidagi jonli o‘tmishidir. Uning ilmiy-tarixiy qimmatini, ayni paytda juda katta ijtimoiy, madaniy, tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir”.⁷

O‘rganilayotgan millat tilining so‘z boyligi, tarixiy an‘analari, madaniyati, qadriyati uning folklorida tajassum bo‘ladi. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimov “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda millat ma’naviyati uchun xalq qahramonlik dostonlarning o‘rni qanchalik beqiyos ekanligini ta’kidlab, shunday degan edi: “Xalqimizning yengilmas bahodiri – Alpomish timsolida biz vatanimizni yomon ko‘zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan azamat o‘g‘lonlarimizda – bugungi Alpomishlarning ma’naviy qiyofasini ko‘ramiz. Ishonamizki, har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab - avaylab kelgusi avlodlarga yetkazadi. Bu qahramonlik eposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa qech qanday kuch yenga olmaydi.”⁸ Shu o‘rinda o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari xoriyda ham sevib o‘qilishi, tadqiq etilishi, xoriy kitobxonlarning boy madaniyatimiz bilan yanada yaqinroq tanishishlarida tarjima san’atining o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Qahramonlik dostonlarimiz asrlar davomida og‘zaki ijro etib kelinayotganligi ularning ona tilimiz bilan hamohang tarzda rivojlanib borganligini anglatadi. Ular har ijroda yanada boyib, yangilanib boravergan desak adashmagan bo‘lamiz. Turg‘unlik xalq og‘zaki ijodiga, umuman, adabiyotga xos belgi emas. Xalq dostoni – bu millatning uzoq o‘tmishidan bugungi kunigacha o‘zi bilan birga yashab, rivojlanib kelayotgan tarixi va madaniyatini ko‘zguvidir. “Alpomish” dostonining millatimiz chechanso‘zligiga, mushohada tarziga ta’siri borasida tilshunos olim

⁷ Жирмунский В.М. Народный героический эпос. – Л.: ГИХЛ, 1962. – С. 195.

⁸ Ислом Каримовнинг “Алпомиш” дostonининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзлаган нутқи. “Халқ сўзи” газетаси, 1999 йил. 9 ноябрь.

Muhammadali Qo'shmoqov shunday deb yozadi: "Alpomish alp bo'lgani uchun ming yillar davomida xalq yuragida o'lmay yashab keladimi? Aslo! Alplik Alpomish obrazining bir qirradi, xolos. Alpomish aslida ma'naviyat qahramonidir. U Vatan mustaqilligi, xalqning ma'naviy birligi uchun, ozodlik, ezgulik, tinchlik uchun kurashgan qahramon ... Ma'naviyat qahramoni bo'lgani tufayli ham u xalqning ideal qahramoniga aylandi. Shuning uchun o'zbek xalqi o'z tarixining eng qora kunlarida ham Alpomishni yuragida saqladi, undan madad oldi, uni ibrat qilib, Alpomish o'g'illarni, Barchin qizlarni voyaga etkazdi."⁹

2019-yilda YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi homiyligida "Alpomish" dostonining Q.Mamurov tomonidan qilingan ingliz tilidagi tarjimasining Termiz shahrida tashkil etilgan Xalqaro baxshichilik festivalida taqdim etilishi o'zbek xalq og'zaki ijodi va shu orqali o'zbek madaniyatiga dunyo hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bildirilayotganidan dalolat beradi. O'zbek xalq og'zaki ijodining klassik namunasi bo'lgan dostonlar gultoji "Alpomish" dostoni 2019-yilda tarjimon Qosimboy Mamurov tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingani bu asarning yuksak badiiy qiymatga ega ekanligi va mazkur tarjima yangi ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb obyekt bo'lishidan dalolat beradi. O'zbekistonning milliy ma'naviy boyligiga aylangan "Alpomish" dostoni xorijlik o'quvchilar orasida ham o'z muxlislariga ega bo'lsa ajab emas. Ayni chog'da asar xorij o'quvchisini o'zbek xalqining ma'naviy olami, yuksak badiiy tafakkuri va umrboqiy qadriyat va an'alariga oshno etadi.

Ilk folklor namunalari bizgacha yetib kelishida turkiy elatlar ichida kezib, xalq og'zidan ularni to'plab, o'z asarlarida yozib qoldirgan allomalarning xizmatlari beqiyos. Ilk xalq og'zaki ijodi namunalari yozib olinib, hozirgi davrgacha yetib kelish tarixiga nazar solar ekanmiz, 899-959-yillarda yashab ijod qilgan tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida o'tmish hodisalari haqida xalq rivoyatlari, afsonalari keltirib o'tilganligini; XI-asrda yashab ijod qilgan filolog olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari

⁹ Қўшмоқов М. "Чечанликда сўзга сувдайин оқиб..." – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 43.

tarkibiga rivoyat, afsona, matal va maqol kabi folklor namunalariga oid lisoniy materiallar kiritganligini ta’kidlab o’tish joiz. Qolaversa, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xondamir, Shayx Sulaymon Buxoriy, Darvesh Ali Changiy singari mumtoz adabiyot vakillari va tarixchi olimlar o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini ilk bor yozma jamlovchilar ekanligi ham adabiy-tarixiy fakt. Gulxaniy tomonidan yozilgan “Zarbulmasal” asarida maqol va matallar, Shayx Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy usmoniy” va Muqumiyning “Sayohatnoma” asarlarida folklor janriga oid xalq qo‘shiqlaridan namunalar keltirib o‘tilgan.

“Folklor” istilohiga to‘xtalar ekanmiz, u inglizcha so‘z bo‘lib, bunda “*folk*”- xalq, “*lore*”- bilim, donolik, ya’ni “*xalq donoligi*” ma’nolarini bildiradi. “Folklor” adabiy istiloh sifatida birinchi marta ingliz adabiyotshunos olimi Uiliam Toms tomonidan 1846-yilda qo‘llanilgan.¹⁰ Asrlar mobaynida ma’nolar xazinasini bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi dastlab “el adabiyoti”, “og‘zaki adabiyot” deb yuritilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida esa “folklor” atamasi ilk bor o‘tgan asrning 30-yillarida professor Hodi Zarifov tomonidan qo‘llangan. O‘zbek tilining 5 jildli izohli lug‘atida folklor atamasiga quyidagicha izoh berilgan: “Folklor – xalq ijodiyoti; xalq tomonidan yaratilgan va xalq orasida keng tarqalgan asarlar (ertak, doston, qo‘shiq, lapar, masal, maqol, matal, topishmoq va b.)”.¹¹ Umuman, folklor atamasi qo‘llanila boshlaganiga 2-3 asr bo‘lgan bo‘lsada, xalq og‘zaki ijod namunalari bir necha ming yilliklardan buyon yashab kelmoqda. G‘arbda u xalq tomonidan yaratilgan barcha san’at asarlari, jumladan me’morchilik, rassomchilik, kulolochilik, zardo‘zligu naqqoshlik, musiqa, raqs hattoki diniy e’tiqodni ham o‘z ichiga oladi. Sharqda esa qadim xalqlardan avloddan avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelayotgan ijod namunalari, xususan, doston, ertak, lapar, maqol, matal, mehnat va marosim qo‘shiqlari, latifa va askiya kabi janrlarni o‘z ichiga oladi. Ganchkorlik, zardo‘zlik, naqqoshlik kabilar esa xalq amaliy san’ati turlariga kiritiladi. Ya’ni, sharqda folklor atamasi asosan tor doirada, ya’ni xalq tomonidan yaratilgan og‘zaki ijod namunalariga nisbatan ishlatiladi.

¹⁰ Stephens M. Living Folklore. – Logan, Utah: Utah State University Press. 2005. – P. 23.

¹¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2020. – Б. 355.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarining ijro xususiyatlari, tuzilishi, bajaradigan vazifasi, musiqaviyligi, ko'lamiga ko'ra, *doston, ertak, naql, rivoyat, afsona, o'lan, lapar, alla, lof, askiya, topishmoq, maqol, matal, masal, latifa, bolalar qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, qo'g'irchoq o'yini* kabi janrlardan tarkib topgan. Xalq hayoti, urf-odatlari va tarixini o'zida mujassamlashtirgan o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi yuqorida sanab o'tilgan ko'plab janrlarni o'z ichiga olgan bo'lib, bunda boshqa xalqlar folklorida uchramaydigan *lof* va *askiya* kabi janrlar ham mavjud.

Folklor janri boshqa janrlardan ayrim xususiyatlariga ko'ra, ajralib turadi. Ya'ni og'zakilik, an'anaviylik, anonimlik, jamoaviylik, versiyaviylik va variantlilik uning o'ziga xos xususiyatlari sanaladi.

Bugungi kunga kelib folklorshunoslikda xalq og'zaki ijodi namunalarini turdosh sohalar bilan birgalikda kompleks tadqiq etish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Shu sababli folklorshunoslikning "*etnofolkloristika*", "*arxeofolkloristika*", "*etnolingvistika*" va "*lingvofolkloristika*" kabi bir nechta yo'nalishlari paydo bo'ldi.

Doston janri haqida so'z yuritar ekanmiz uning qissa, sarguzasht, maqto'v ma'nolarida ishlatilishini ko'rishimiz mumkin. Adabiy atama sifatida u xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi.¹² Folklor janrlari ichida doston janri baxshilar tomonidan mahorat bilan kuyga solib aytilishi, tarkibiga boshqa janrlar xususiyatlarini o'zida jo qilganli tufayli ular orasida eng murakkab janr sanaladi. Shu nuqtai nazardan doston janri folklorshunoslar fikricha sinkritik janr hisoblanadi.

Xalq og'zaki badiiy ijodining hajman eng yirik namunasi ham doston janri bo'lib, qahramonlarning o'zaro munosabatlari, kechinmalari, asar g'oyasi, mazmun-mohiyati va syujetiga ko'ra, o'z ichki bo'linishlarga ega. Folklorshunos olimlar V.Jirmunskiy va H.Zarifov o'zbek xalq dostonlarini *qahramonlik, jangnoma,*

¹² Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1990. – Б. 227.

tarixiy, romantik va kitobiy kabi besh turga ajratadilar.¹³ Professor To‘ra Mirzayev “O‘zbek folklorining epik janrlari” nomli kitobida dostonlarni tasniflashda V.Jirmunskiy, H.Zarifovlarning ilmiy yondashuvlarini yanada mukammal holga keltiradi. Bu tasniflanishni quyida ko‘rib chiqamiz.

Qahramonlik dostonlari: Bu turdagi dostonlar dostonchilik taraqqiyotida muhim o‘rin tutishi bilan ajralib turadi. Ularning yaratilish tarixi ko‘chmanchilik tuzumiga borib taqaladi. Urug‘ va qabilachilik davrida muayyan bir xalq sifatida shakllanish, davlatchilikning tashkil topishi, bosqinchi xalqlarga qarshi qahramonlarcha kurash bu turdagi dostonlar syujeti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu kabi dostonlarda qahramonlar obrazi va ular amalga oshirgan jasoratlar tabiiylik chegarasidan birmuncha yuqori bo‘ladi¹⁴. Qahramonlik dostonlarining yorqin namunasi bu – “Alpomish” dostonidir.

Jangnoma dostonlar: Bu turdagi dostonlarga afsonaviy qahramonlarning tarixiy janglarda ko‘rsatgan jasoratini madh etuvchi dostonlar kiradi. Ular qahramonlik dostonlari ta’sirida shakllangan deb ayta olamiz. Misol tariqasida “Jangnomai Amir Hamza”, “Jangnomai Abo Muslim”, “Jangnomai Jamshid”, “Xo‘shang”, Rustami Doston”, “To‘maris” dostonlarini aytishimiz mumkin.

Tarixiy dostonlar: Bu turdagi dostonlarni baxshi va oqinlarimiz repertuarlarida boshqa turdagi dostonlarga nisbatan kam uchratishimiz mumkin. Bu dostonlar tarixiy voqealar badiiy to‘qima bilan aralashtirilib ijro etilishi bilan xarakterlanadi. Unga misol qilib “Shayboniyxon”, “Oysuluv”, “Tulumbiy”, “To‘lg‘onoy”, “Mardikor”, “Jizzax qo‘zg‘oloni” dostonlarini ayta olamiz.

Romantik dostonlar: Xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan doston turi bu – romantik dostonlardir. Bu turdagi dostonlarning syujeti bir-biriga juda o‘xshash bo‘ladi. Doston qahramoni go‘zal qizga oshiqu beqaror bo‘lib sarguzashtlarga boy safaraga otlanadi va sevgisi yo‘lida barcha qiyinchiliklarni yengib murod maqsadiga yetadi. Bunga misol sifatida “Kuntug‘mish”, “Rustamxon”, “Orzigul”, “Erali bilan

¹³ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский героический эпос. – М.: Государственное издательство художественной литературы, 1947. – С. 58.

¹⁴ Shu manba. – B. 59.

Sherali”, “Bahrom va Gulandom”, “Shirin bilan Shakar”, “Xurshidoy” dostonlarini olishimiz mumkin.

Kitobiy dostonlar: Bu baxshilarimiz tomonidan sevib ijro etiladigan, asli yozma manbasiga ega bo‘lgan, ularni folklorga moslab qayta yaratilgan turidir. Xalq baxshilari ularni og‘zaki epik an‘analarga moslab qayta ishlaganlar. Bu turdagi dostonlarda asl folklor dostonlarida bo‘lganidek qahramonlik, jasorat, jangu jadallarga kamroq e‘tibor qaratilib, asosan, turli to‘siqlarga uchraydigan muhabbat mavzu ko‘proq yoritiladi. Masalan, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, Yusuf va Zulayho”, “Varqa bilan Gulshoh”, “Zevarxon” dostonlari shular jumlasidandir.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida bu kabi 400 dan ortiq dostonlarning borligi, ularning 5 ta turlarga bo‘linishi doston janrining o‘zi nihoyatda boy madaniy merosga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi. Tadqiqotimiz obyektini sifatida olingan “Alpomish” dostoni va uning turli baxshilar tomonidan aytilgan variantlari bu dostonlar orasida badiiy jihatdan eng mukammaligi bilan alohida ajralib turadi.

Dostonlarning bizgacha yaxlit, boyitilgan va qayta ishlangan tarzda yetib kelishida dostonchilik maktablarining o‘rnini alohida qayd etib o‘tish lozim. Jamlangan, puxta epik an‘ana doirasida ma‘lum baxshi yoki baxshilar guruhiga xos alohida ijodiy xususiyatlar, uslublar o‘zgachaligi folklorshunoslikda dostonchilik maktablari deb ataladi.¹⁵ Yurtimizning turli chekkalarida ko‘plab dostonchilik markazlari bor bo‘lib, ulardan biz Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Shaxrisabz, Narpay, Sherobod, Xorazm kabi dostonchilik maktablarini sanab o‘tishimiz mumkin. “Alpomish” dostoni kabi bir nechta qahramonlik dostonlarini yuksak mahorat bilan kuylagan baxshi Fozil Yo‘ldosh Og‘li Bulung‘ur dostonchilik maktabining yetuk vakillaridan hisoblanadi.

Qahramonlik dostonlarini bevosita xalq baxshilari ijrosidan yozib olish va ilmiy jihatdan o‘rganib nashr etish ishlari XX asr 20-yillaridan boshlangan. “O‘zbek folklorshunosligi” antologiyasida quyidagi ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan: “Maorif” jurnalining 1918-yil 1-sonida xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini to‘plovchilar uchun

¹⁵ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров Р. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1990. – Б. 236.

qo‘llanma chop ettirilishi bilan o‘zbek folklori materiallarini ilmiy asosda yozib olishga asos solingan. Folklor asarlarni to‘plash va o‘rganish ishlari 1918-20-yillarda Turkiston Maorif xalq komissariatining Turkiy seksiyasi, 1921-24-yillarda esa Davlat ilmiy kengashining O‘zbek bilim hay’ati tomonidan amalga oshirilgan. O‘zbek bilim hay’ati tomonidan tashkil etilgan folklor-etnografik ekspeditsiyalarga boshchilik qilgan G‘ozi Olim Yunusov xalq og‘zaki badiiy ijod namunalarini tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kabi xalq baxshilarini aniqlagan G‘.O.Yunusov o‘zbek eposshunosligi tarixida birinchilardan bo‘lib 1922-yilning yozida Fozil Yo‘ldosh O‘g‘li va Hamroqul baxshilardan “Alpomish” dostonidan parchalar yozib olgan¹⁶.

Folklorshunos olim, filologiya fanlari doktori H.Zarifov nafaqat “Alpomish” dostonini, balki o‘zbek xalq og‘zaki ijodining sara namunalari bo‘lmish “Yusuf va Ahmad”, “Yodgor”, “Mardikor”, “Jahongir”, “Rustam”, “Shayboniyxon”, “Ravshan” dostonlarining baxshilar tilida yozib olib, ularning nashr etilishida xizmati katta bo‘lgan. Olim xalq og‘zaki ijodi namunalarini jamlash va nashr etish tamoyillarini o‘zbek folklorshunosligi tarixida birinchilardan bo‘lib yaratgan. Uning folklor asarlar matnini tashkil etilishida asos solgan tamoyillari jiddiy matniy tayyorgarlik va nazariy asoslarga ega bo‘lganligi tufayli hozirda ham barcha turkiy xalqlar folklorshunosligida dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbek xalq dostonlari matni nazariy asoslariga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqotlarni ham Hodi Zarifov olib borgan. Folklorshunos olim V.M.Jirmunskiy bilan hamkorlikda yozilgan “O‘zbek xalq qahramonlik eposi”¹⁷ monografiyasi, bir qancha folklor dostonlar matnining tarixiy asoslariga bag‘ishlangan maqolalari o‘zbek folklorshunosligining asosiy nazariy manbasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, o‘tgan asrimizning 20-30-yillarida xalq orasidan folklor matnlari yig‘ish, xalq dostonlarini baxshilar tilidan yozib olish va ularni nashrga tayyorlash boshlangan

¹⁶ Jo‘rayev M. XX asr o‘zbek folklorshunosligining o‘ziga xos xususiyatlari. “O‘zbek folklorshunosligi” Antologiya. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 4.

¹⁷ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский героический эпос. – Москва: Государственное издательство художественной литературы, 1947. – 519 с.

bo'lsa, 40-yillardan boshlab xalq og'zaki ijodiyoti namunalari ustida folklorshunos olimlar tomonidan jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borish yo'lga qo'yilgan.

O'tgan asrimizning 60-80-yillariga kelib folklorshunoslikda ko'plab zabardast olimlar yetishib chiqqanlar. Jumladan, B.Sarimsoqov, T.Mirzayev, H.Abdullayev, M.Mirzayeva, M.Saidov, U.Jumanazarov, I.Yormatov kabi folklorshunos olimlar o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari ustida jiddiy tadqiqotlar olib borishgan va ko'plab ilmiy xulosalarga kelganlar. Ulardan T.Mirzayev va M.Saidovlar aynan xalq dostonlarining badiiyligi borasida alohida tadqiqotlar olib borganlar¹⁸.

Mustaqillik davriga kelib o'zbek folklorini tadqiq etish ishlari jadal sur'atlarda olib borildi. Birgina doston janrini tilshunoslik nuqtayi nazaridan izlanishlar olib borgan ilmiy tadqiqotlchilardan I.Xudoynazarov, Sh.Mahmadiyev, A.Rahimov, K.Boymuhamedova, G.Jumanazarova, N.Raimova, Y.Hojiyev, I.Umarov, M.Qurbonova, N.Allamberganovalarning¹⁹ samarali ilmiy natijalarini ta'kidlab o'tish joiz.

I.Xudoynazarovning tadqiqotida dostonlardagi antroponimlarning semantik-uslubiy xususiyatlari va ularning lug'aviy tizimdagi o'rni aniqlangan bo'lsa, Sh.Mahmadiyev o'z tadqiqot ishida stilistik formulalarning fonetik-stilistik, leksik-semantik, morfologik-stilistik, sintaktik-stilistik xususiyatlarini ochib bergan.

¹⁸ Мирзаев Т. Алпомиш дostonининг ўзбек вариантлари. Автореф. дисс....уч. степ. канд. филол. наук. – Тошкент. 1965; Саидов М. Ўзбек халқ дostonларида бadiий маҳорат масалалари. Автореф. Дисс.... уч. степ. д-ра филол. наук. – Тошкент. 1969.

¹⁹ Худойназаров И. Антропонимларнинг тил-луғат тизимидаги ва уларнинг семантик-усlubий хусусиятлари: (Эргаш Жуманбулбул дostonлари асосида). Филол. фан. номзод...дисс. – Бухоро, 1998. – 134 б; Маҳмадиев Ш.С. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар. Филол. фан. номзод...дисс. – Тошкент, 2007. – 181 б; Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида); Филол. фан. номзод...дисс. – Самарқанд, 2002. – 140 б. Боймуҳаммедова К.А. “Кунтуғмиш” дostonининг вариантлари ва бadiияти. Филол. фан. номзод...дисс. – Тошкент, 2007. – 137 б; Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил): Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2017. – 280 б; Рaimова Н.А. Хоразм дostonларининг поэтик тизими (банд, вазн ва қoфия мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 151 б; Ходжиев Ю.Н. “Алпомиш” дostonидаги шахс маънавий сифатларини ифода этувчи атов бирликларнинг семантик-структур, концептуал ва лексикографик хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 121 б; Умаров И.А. Фозил Йўлдош ўғлининг “Малика айёр” дostonи лексикаси (тарихий-этимологик, функционал-семантик ва стилистик таҳлил): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... автореф. – Фарғона, 2019. – 51 б; Курбонова М.О. Мустақиллик даври дostonлари лингвопоэтикаси. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2019. – 153 б; Алламберганова Н.Г. “Алпомиш” дostonининг Ўзбек ва қoraқалпоқ версиялари қиёсий типологияси. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 155 б.

A.Rahimovning nomzodlik dissertatsiyasida xalq dostonlari leksikasining umumlisoniy sistemada o'rganilishi va dostonlarning an'anaviy lingvofolkloristik qonuniyatlarga munosabati yuzasidan izlanishlar olib borgan. Filologiya fanlari doktori G.Jumaniyozova doktorlik dissertatsiyasida dostonlar tilidagi lingvomadaniy birliklar tadqiqi uchun maxsus bob ajratib, Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonlari tarkibidagi metafora, sifatlash, metonemiya, o'xshatishlarning badiiy-estetik va lisoniy-poetik xususiyatlarini maxsus o'rgangan. I.Umarov "Malikai Ayyor" dostoni leksik qatlamlari ustida tadqiqot olib borib, ularning tarixiy-genetik omillardan tarkib topganligi, ijtimoiy-siyosiy leksemalarning uslubiy, funksional, kommunikativ va konnotativ xususiyatlari, zoonimik va ornitonimik leksik birliklarning funksional-semantik xususiyatlari yoritib bergan. M.Qurbonova tadqiqoti esa ishida dostonlar matnida eskirgan leksemalarning ifoda imkoniyati, so'zlarning semantik qurilishidagi o'zgarishlar, individual neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatga molik.

Bu keltirib o'tilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek folklorshunosligida amalga oshirilgan va oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko'lami anchayin salmoqli ekanligi bilan birga sohada o'z yechimini kutib turgan talay muammolar mavjudligini ham istisno etib bo'lmaydi.

"Xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida folklor, umuman, badiiy so'z san'ati hamisha tayanch nuqta bo'lib kelgan. Zero, folklor bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir"²⁰. "Alpomish" dostoni ko'chmanchi chorvador qo'ng'iroq qabilasi orasida, mo'g'ullar istilosidan avval, Sirdaryoning quyi oqimida va Orol dengizi atroflarida yuzaga kelgan degan xulosani folklorshunos olim H.Zarifov tahlilida ko'ramiz. Ushbu fikrdan kelib chiqib, dostonni X-XI asrlarda yaratilgan deyishimiz mumkin. "Alpomish" dostoni o'zbek xalqi orasida ikki versiya va ko'plab variantlarda juda keng tarqalgan. Uning variantlari 28 xalq baxshisidan 33 marta yozib olingan. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Pulkan shoir, Berdi baxshi, Berdi Sodiq o'g'li, Abdulla Nurali o'g'li kabi yetakchi

²⁰ Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O'zbek folklori. Darslik. – Toshkent: 2020. – B. 13.

baxshilardan yozib olingan.²¹ Folklor asarlar uzoq o‘tmishdan og‘izdan og‘izga o‘tib yurishi orqali shakllanib kelganki, har bir baxshining salohiyati va ijodkorligi tufayli sayqallanib, asar syujeti boyib boravergan. Natijada “Alpomish” dostonining 30 dan ortiq variantlari vujudga kelganki, har bir doston namunasini shakl va mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir biridan biroz farqlanishi, ya’ni biror voqeani tushib qolishi yoki qo‘shib aytilishi bunga misol bo‘la oladi. “Alpomish” dostonining turli variantlari va nomlanishi haqida T.Mirzayev izlanishlar davomida uning “*Alpomish*”, “*Alpamsha*”, “*Alpamis batir*”, “*Alpamis*”, “*Alip-manash*”, “*Alpamisha va Barsin xiluv*” nomlari bilan atalishini aniqlagan. “Shuningdek, Panjikent atroflari, Qashqadaryo viloyatining Vargonza, Jeynov qishloqlaridan o‘zbek dostonchilik an’analari ta’sirida yuzaga kelgan hamda jiddiy transformatsiyaga uchragan tojikcha va arabcha variantlari ham yozib olingan. Yozma manbalar orqali bizgacha yetib kelgan o‘g‘uz eposi “*Dada Qo‘rqut kitobi*” ning uchinchi bo‘yi (dostoni) — “Bamsi Bayrak” o‘zining syujet voqealari jihatidan “Alpomish”ga ancha yaqin turadi²². Dostonning turli millatlar orasida keng tarqalgani ko‘chmanchi Qo‘ng‘irot elining ko‘plab turkiy millatlar, xususan, o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq xalqi etnogenezida muhim o‘rin tutishi bilan izohlasak xato bo‘lmaydi. Qo‘ng‘irotlar u yerdan-bu yerga, bir yaylovdan boshqasiga sarson-sargardon bo‘lib, o‘z dostonlarini boshqa qabila va elatlarga taqdim etganlar. Boshqa xalqlar esa uni o‘zlarining an’analariga muvofiq o‘zgartirdilar. Shu tariqa, “Alpomish” dostoni turk xalqlari orasida keng tarqaladi. “Alpomish” dostonining XV asr oxiri va XVI asr boshlarida o‘zbekcha nusxasi ham shu jarayonda davom etib, yakuniy shakllanishni amalga oshirdi.

“Alpomish” dostoni – dostonchilik an’analariga ko‘ra, ko‘p uslubli, do‘mbira jo‘rligida baxshilar tomonidan kuylanadigan kompozitsiyadir. Turli shakllarda individual ijro etiladigan “Alpomish” dostoni she’riy jihatdan sayqallanganligi, o‘ziga xos ritmga ega ekanligi bilan tinglovchi va kitobxonlarga xush yoqadi va ular xotirasida uzoq saqlanib kelmoqda.

²¹ Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: “Aloqachi”, 2008. – B. 83.

²² Мирзаев Т. Достонлар гултожи. //Алпомиш. Сўзбоши. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 8.

Asrlar davomida baxshilarimiz tomonidan sevib ijro etib kelinayotgan xalq qahramonlik dostonlarining aksariyati nasriy va she'riy shakllar qorishmasidan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Biz tahlilga tortayotgan "Alpomish" dostoni ham buni yaqqol misol bo'la oladi. Doston o'quvchiga yanada tushunarliroq bo'lishi uchun kirish qismlaridagi doston voqealari kechayotgan joylar tasviri, asosiy qahramonlar bilan tanishtirishlar va dostonning mazmun mohiyatini ochib beradigan voqealar, shuningdek syujetlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlovchi holatlarni tasvirlash nasriy bayon etilsa, dostondagi jang sahnalari, aytishuvlar, qahramonlar nutqi she'riy shaklda ohang bilan ijro etiladi. Masalan, "Alpomish" dostonining ikkinchi qismi quyidagi nasriy bayon bilan boshlanadi:

*"Bek Alpomish bekklik qilib, Qorajon bilan birga davron surib, xo'p mamlakatni obod qilib, Barchin bilan o'ynab-kulib, yurtiga ega bo'lib, bular bunda yura berdi. Endigi gapni qalmoqlardan eshiting. Qochqinchi qalmoqlar eliga borib, Qalmoqshohning oldida jam bo'lib, maslahat qilib, Qorajonning enasi Surxayil maston ham kelib, maslahatning bir chetida bu kampir ham turib, shunda Qalmoqshoh katta-kichik amaldorlariga qarab, bir so'z aytib turgan ekan:"*²³

Bunda Alpomish o'z yurtida davru davron surib, Barchin yori bilan baxtiyor damlarini birga o'tkazib yurganligi haqida tinglovchiga ma'lumot berilganidan so'ng voqealar yo'sinini qalmoq elidagi tashvishli kunlar tomon burib yuboriladi. Suhayl mastonning Qalmoq yurti katta-kichigaga arz-dod qilib turgani doston tinglovchisiga ta'kidlab o'tiladi. Bunda voqealar rivoji qaysi nuqtada ekanligi va qaysi qahramon nutqi bayon etilayotganligi tinglovchi va o'quvchilar ko'z o'ngida gavdalanish uchun nasriy yo'l bilan bayon qilishdan ustalik bilan foydalanilgan. Undan so'ng Suhayl mastonning nutqi she'riy shaklda bayon etiladi:

*"Men aytarman bunday kunda dodu dod,
Katta-kichik, turgan bunda jamoat,
O'ylashaylik, bering menga maslahat,
Boysaridan tegdi menga kasofat,*

²³ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ дostonи // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: "Шарк" нашриёти, 1998. – Б. 192.

*Kasiridan oidi qancha azamat,
Katta-kichik, bering endi maslahat.*”²⁴

Doston qahramonlarining nutqi yaxshi o‘qishli, baxshilar yoddan aytishiga qulay bo‘lishi uchun qofiyalangan sodda yoyiq gaplardan tarkib topgan she’riy shaklda berilgan. Tadqiqot ishimiz obyektini bo‘lgan “Alpomish” dostoni aksar qismi she’riy shaklda tuzilganligi uchun tadqiqot ishimizda dostonning she’riy matnlari tarjimasini muammolariga ko‘proq to‘xtalib o‘tamiz.

Ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan, o‘z ildizlari bilan asrlar qa’riga borib taqaladigan o‘zbek xalq qahramonlik dostoni “Alpomish” bizgacha uzoq moziydan tirik an’ana shaklida yetib kelgan. “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining ma’naviy olamini o‘zida to‘liq aks ettirgan adabiy durdona asardir. Xalqimiz og‘zaki ijodi namunasi sifatida “Alpomish” dostoni o‘zining teran ma’nosi, go‘zal badiiyati, nafis she’riyati bilan ko‘p asrlar davomida boyitilib, xalqimiz xotirasida avaylab saqlanib kelinmoqda. U jahon folklorshunos olimlari va adabiyot ixlosmandlarining ham diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Homerning “Odessiya” dostoni va Qirg‘iz xalqining “Manas” dostoni singari “Alpomish” dostoni ham o‘zining soddalik, ulug‘vorlik, vatanga sadoqat va oliyjanoblik fazilatlarini bilan, shubhasiz, jahon folklorining eng go‘zal namunalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Fikrimiz so‘ngida shuni aytishimiz mumkinki, “Alpomish” dostoni xalqimiz qalbidan chuqur o‘rin egallashiga sababli uning vatanini sevuvchi, g‘ururi baland, adolatsizlikka qarshi kurashuvchi qahramonlar haqida yaratilganligidir. Dostonda uchraydigan ko‘pgina mifologik tasvirlar “Alpomish” dostonining jahon folklorshunosligi merosida o‘zining mustahkam o‘rnini egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholangki, biz “Alpomish” dostonini o‘zini emas, balki uning tarjimasini bilan bog‘liq masalalarni tadqiq qilar ekanmiz, folklor tarjimasiga ham umumiy tarzda to‘xtalish lozim.

²⁴ Shu yerda.

1.2. Folklor asarlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari

Dunyo xalqlarining madaniy aloqalarini kengaytirish, o'zaro bir-birlarining badiiy, madaniy va ilmiy yutuqlarini o'rganish, o'zlashtirish va yuqori bosqichlarga olib chiqishda tarjimaning xizmati beqiyos. Fanda shu paytgacha qo'lga kiritilgan ilmiy yutuqlar, qolaversa, badiiy ijod namunalari boshqa xalqlar hayotiga kirib borishi uchun yagona ko'priklar vazifasini tarjima san'ati bajarib kelmoqda. O'zbek tarjimashunosligi asoschilaridan biri professor G'aybulla Salomov tarjimaga shunday ta'rif beradi: "Tarjima – xalqlar o'rtasidagi o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalarning kengayishiga xizmat qiladi. Tarjima – milliy adabiyotlarning o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'sir jarayonini tezlashtiradi, milliy adabiyotlarda mushtarak mavzular, umuminsoniy g'oyalar, rang-barang adabiy-estetik didning shakllanishiga muhit yaratadi. Tarjima – milliy tillarning rivojlanish sur'atini tezlashtiradi, tillarning lug'at boyligini yanada oshiradi, yangi-yangi grammatik vositalarni yaratadi"²⁵.

Folklor asarlar keng qamrovli bo'lib, o'z ichiga lirik, epik, dramatik turga xos janrlarni o'zida mujassam etadi. Bu esa o'z navbatida ularni tarjima qilish jarayonida o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Jahon tarjimashunosligi tarixida folklor asarlar tarjimasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mutarjimlar asar mazmunini butunligicha saqlab qolishga intilib, ko'p hollarda asar shaklini saqlashdan voz kechishgan. Masalan, fransuz tarjima amaliyotining ilk bosqichlarida tarjimonlar she'riy janrdagi asarlarni aynan poetik janrda o'girish imkonsiz deb, barcha tarjima ishlarini nasrda olib borganlar. Fikrimizcha, asliyat mazmunini saqlab qolishga qaratilgan bu usul esa asarning ruhiyati va emotsional maqsadiga jiddiy putur yetkazib, retseptorga asarning haqiqiy ruhini yetkazib bera olmagan. Tarjimashunos olim Sultonmurod Olimov aytganidek, "Fikr o'z qolipi bilan fikrdir. Qolip o'zgarishi bilan, fikrda ham ozmi, ko'pmi o'zgarish yuz berishi tabiiy."²⁶ Bunday tarjimalar asliyat tilining xususiyatlarini, ularning milliy mentalitetini to'liq ochib

²⁵ Salomov F. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: "U'kituvchi" nashriyati, 1978. – B. 13.

²⁶ Olimov S. Ilmiy tarjima murakkabliklari.//Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. 6-kitob. – Toshkent: Faqur f ulom nomi d a gi adabi'et va san'at nashriyati, 1985. – B. 110.

bera olmagach, bu usuldagi tarjimadan voz kechib, asliyat tilining belgilarini ko'rsatib berishga harakat qilganlar.

XX asr boshida tarjimonlar, asosan, lingvistik aniqlikka e'tibor qaratib, asliyat tilidagi fraziologizmlarni tarjima tili vositalari orqali yetkazishga erisha boshlaganlar. Folklor namunalarini tarjima qilish tamoyillari L.A.Pisareva, A.S.Mirbadaleva, I.Y.Retsker, V.Stanevich, N.V.Kidaysh-Pokrovskaya²⁷ kabi sovet tarjimon va tarjimashunos olimlari tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarini folklor asarlar matnida uchraydigan stilistik vositalar, leksik birliklar va iboralar tarjimasida adekvatlikka erishish muammolari va ularni bartaraf etishning nazariy jihatlariga bag'ishlaganlar. A.S.Mirbadaleva o'zining doktorlik dissertatsiyasida qirg'iz epik dostoni "Manas" tarjimasiga bag'ishlangan bobida folklor asarni rus tiliga tarjima qilishning nazariy va amaliy jihatlariga to'xtalgan. U folklor asarlarni tarjima qilishda qo'yiladigan asosiy talablarni ko'rsatib o'tadi va xalq og'zaki ijodiyoti namunalarining badiiy tasvir vositalarini tarjima tiliga o'girish uslublariga aniqliklar kiritadi.

Jahon tarjimashunosligida I.Graam, E.Nayda, J.Myunday, S.Basnet, M.Beyker, P.Nyumark, R.Bell, J.Ketford, V.Kevin kabi tarjimashunos olimlar tarjima qonuniyatlari, tarjima turlari, tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik nazariyalarini, tarjimaning uslublarini o'z tadqiqot ishi, risola va qo'llanmalarida keng yoritib berganlar²⁸.

Bu sohada bir qator rus tarjimashunos olimlari ham ilmiy izlanishlar olib borganliklarini ta'kidlab o'tish joiz. Jumladan, V.V.Vinogradov, L.S.Barxudarov,

²⁷ Мирбадалева А.С. Текстология тюркоязычного эпоса: теоретические и методические аспекты двуязычного научного издания "Манаса" и других эпических памятников. Автореф. дисс. в форме научного доклада на соиск. уч. степ. д-ра филол. наук. – Москва: 1995; Писарева Л.А. Поэтика фольклора и перевод. Латышские дайны в русских переводах. – Москва: ЭКОН, 2002; Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Москва: 1974; Станевич В. Некоторые вопросы перевода прозы. Мастерство перевода, сб. ст. – Москва: Советский писатель, 1959; Кидайш-Покровская Н.В. Перевод тюркоязычных памятников в Академической серии, Фольклор. Издание эпоса. – Москва: Наука, 1977.

²⁸ Graham I. Difference in Translation. – Carnell University Press, 1985. 256 p; Nida E. Towards a Science of Translating. – Leiden, 1964. 331 p; Monday J. Introducing Translation studies – Routledge, 2001. 376 p; Bassinet S. Translation studies. 3rd edition. – London and New York: Taylor & Francis e-Library, 2005. 176 p; Mona Baker and Gabriela Saldanha. Routledge Encyclopedia of Translation studies. 2nd edition. – London and New York: Taylor & Francis e-Library, 2009. 674 p; Newark P.A. Textbook of Translation. – London, 2002. 292 p; Roger. N. Bell. Translation and Translating, (Theory and Practice). – London, New York, 2001. 80 p; Catford J. C. A Linguistic Theory of Translathion. – London, 1965. Kevin Windle and Malmkjer Kristen. The Oxford Handbook of Translation Studies. – Oxford: Oxford University Press, 2011. 256 p.

V.N.Komissarov, P.I.Kopanev, S.I.Vlaxov, S.Florin, A.V.Fyodrov, A.D.Shveyser, N.Gabrovskiy, Yu.Ilyushkina, Ya.I.Retsker²⁹ va boshqalar tarjima sohasida leksik, frazeologik, grammatik muammolar, tarjima birliklari, stilistik vositalarni tarjima qilishga oid bir qancha muammolarning yechimi borasida fundamental tadqiqotlar olib borganlar.

O‘zbekistonda ham S.Siddiq, G‘.Salomov, Yu.Po‘latov, Q.Musayev, M.Xolbekov, M.Baqoyeva K.Jo‘rayev, I.G‘ofurov, Sh.Sirojiddinov, E.Ochilov, G‘.Rahimov³⁰ va boshqalar badiiy tarjima muammolari, tarjimada milliy koloritni saqlash, tarjimaning pragmatik muammolari va stilistik xususiyatlari yuzasidan keng ko‘lamdagi ilmiy-nazariy izlanishlar olib borishgan. Ayniqsa, keyingi yillarda O.Mo‘minov, I.G‘ofurov, N.Qambarov hammuallifligidagi “Tarjima nazariyasi”, “Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish”, “English for translators”, “Practical Course in Translation”³¹ va boshqa bir nechta o‘quv qo‘llanma va darsliklar nashr etildiki, yosh tarjimonlarning tarjima sohasiga kirib kelishida, tarjima amaliyoti bilan shug‘ullanishida bular qimmatli manbalar hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodiyotining xorijiy tillarga tarjima qilish muammolariga bag‘ishlangan L.Pisarevaning³² monografiyasida xalq og‘zaki ijodi yodgorliklarini tarjima qilish jarayoni muammolari, jumladan, she’riy shakl talablariga rioya etish,

²⁹ Виноградов В. С. Лексические вопросы перевода художественной прозы: – М, Изд-во МГУ, 1978. – 174 с; Вархударов Л. С. Язык и перевод. – ИМО, 1975. – 339 с; Комиссаров В. И. Слово о переводе. – ИМО, 1973. – 215 с; Копанев П. И. Вопросы истории и теории художественного перевода. – Минск: Изд-во Велорус, ун-та, 1972. – 295 с; Влахов С, Флорин С. Непереваемое в переводе. Изд. 5-е. – Москва: Р. Валент, 2012. – 406 с; Федоров А. В. Основы общей теории перевода. – М.: Высшая школа, 1968. – 400 с; Швейцар А. Д. Перевод и лингвистика. – М.: Воениздат, 1973. – 280 с; Габровский Н. Теория перевода. – М.: 2004. – 554 с; Илюшкина М.Ю. Теория перевода: основные понятия и проблемы – Екатеринбург: 2015. – 84 с; Рецкер Я. И. Задачи сопоставительного анализа переводов: Теория и критика перевода. – Л.: 1962.

³⁰Сиддик С. Адабий таржима санъати. – Тошкент: Уздавнашр, 1936. – 72 б; Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 384 б.// Таржима ташвишлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 192 б.// Адабий анъана ва бадий таржима. – Тошкент: Фан, 1980. – 160 б.// Таржима назариясига кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 236 б; Пулатов Ю. Бадий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967. – 68 б; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005. – 352 б; Бақоева М. Инглиз ва Америка адабиётидан ўзбек тилига шеърлар таржима ва киёсий шеършунослик муаммолари. – Т.: Фан, 2015. – 288 б; Жўраев К., Жўраев Э. ва бошқалар. Таржима назарияси ва амалиёти. – Андижон: 2008. – 116 б; Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент, 2012. – 200 б; Раҳимов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2016. – 176 б; Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадий таржима асослари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – 164 б.

³¹ Ғафуров И, Мўминов О, Қамбаров Н. Таржима назарияси. – Т.: Тафаккур – Бўстон, 2012. – 216 б; Ғафуров И. Таржимон мутахассислигига кириш. – Т.: Меҳридарё, 2008. – 118 б; Muminov O, Kuldoshev A, Khoshimov U. English for Translators. – Т.: Шарқ 2005. – 384 б; Muminov O, Xodjayeva M, Mirzamuhammedova R, Alimova Z ... Practical Course in Translation. – Т.: О‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2011. – 192 б.

³²Писарева Л.А. Поэтика фольклора и перевод. Латышские дайны в русских переводах. – М.: ЭКОН, 2002.

asar mazmunini imkon qadar to‘liq yetkazish muammolariga e‘tibor qaratadi. Z.S.Kazagacheva³³ “Yevropa va Osiyo xalqlarining yodgorliklari” turkumida nashr etilgan Oltoy qahramonlik dostonlarini rus tiliga o‘g‘irishda muammo tug‘diradigan epik asarlar ustida ishlash jarayoniga batafsil to‘xtalib o‘tib, asliyatning badiiy xususiyatlarini tarjimaga o‘tkazish tamoyillarini yoritadi hamda asliyat badiiy xususiyatlarini yetkazish tamoyillariga tayanishni tavsiya qiladi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarini asliyat tilidan tarjima tiliga o‘g‘irish muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni olib borish va ularning nazariy asoslarini yaratish bugungi kunga kelib yanada dolzarblashib bormoqda. Buning asosiy sababi esa milliy folklor namunalarini o‘zga millat vakillariga tanishtirish hamda ularni jahon folklori xazinasidan munosib o‘rin egallashiga bo‘lgan intilishdir.

Xorijiy kitobxonga asarning mazmun va shakl birligini buzmasdan, asliyat tili jozibasini saqlagan holda yetkazish - xalq og‘zaki ijodi namunalarini tarjima tiliga o‘g‘irishning birlamchi vazifasi. Mazkur vazifani bajarishda folklor dostonlarni xorij kitobxonini tomonidan to‘la idrok etilishida tarjimon mahorati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham tarjima jarayonida qo‘llaniladigan samarali usullar, transformatsiya turlarini aniqlashtirib olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar og‘zaki ijodi boy madaniy merosga ega. Baxshilar tomonidan kuylab kelingan og‘zaki dostonchilik maktablari hali hanuz rivojlanib bormoqda. O‘zbek baxshilari “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarini sevib kuylab kelsalar, qozoqlar “Qo‘lbandi botir”, qirg‘izlar “Manas” dostonlarini keyingi avlodlarga bus-butun yetkazishga harakat qilib kelmoqdalar. Bir xalqning ming yillar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib, sayqallanib kelgan og‘zaki ijod namunalarini dunyoga tanitish, xorijlik o‘quvchilar orasida ham sevib mutolaa qilinishiga erishish uchun, albatta, tarjimaning o‘rni va sifati muhim ahamiyat kasb etadi. Qanchalik ko‘p folklor namunalariga ega bo‘lmaylik asliyat tilida xalq dostonlarimizni o‘qib bahramand bo‘luvchi xorijlik o‘quvchilar soni juda

³³ Казагачева З.С. Алтайские героические сказания “Очи-Бала”, “Кан-Алтын” (Аспекты текстологии и перевода). – Горно-Алтайск, 2002.

kamchilikni tashkil etadi. Zero, turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ilmiy, adabiy aloqalarning bosh vositachisi bu, albatta, tarjimadir.

O'zbek xalq dostonlari jahon folklorshunosligi e'tiboriga tushishi uchun bu nodir namunalarimizni tezroq jahon (ingliz, rus, xitoy, arab, ispan, fransuz, nemis) tillariga tarjima qilish dolzarb masala hisoblanadi. Shundagina, buyuk o'zbek millatining naqadar boy madaniyatga ega ekanligi, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, turmush tarzi bilan dunyo xalqlarini yaqindan tanishtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Folklor asarlar muallifi aniq bo'lmagani uchun bu asarlar tom ma'noda "xalq dostonlari" deb ataladi. Shunga qaramasdan, ularda ham shakl va mazmun, tasviru-talqin, poetik qonuniyatlarga amal qilinganligi sezilib turadi.

Qisman bo'lsa-da, turkiy xalqlar dostonlarining ba'zilarini rus va nemis tillariga tarjima qilish ishlari XIX asrdayoq boshlab yuborilgan. Nemis tarjimonlari A.Shefner va V.Radloff xalq dostonlarining ba'zi parchalarini eski nemis tiliga XIX asrda o'girishga muvaffaq bo'lganlar. V.Radloff turkiy xalqlar og'zaki ijodi namunalari to'plamini 1866-yilda nemis tilida taqdim etadi. Vengriyalik sayyoh va olim Herman Vamberi "Yusuf va Zulayho" dostonidan parchalarni nemis tiliga o'girib, asliyat matni bilan birgalikda chop ettiradi. "Alpomish" dostoni rus tarjimoni L.Penkovski tomonidan 1949-yilda rus tiliga o'girilgan bo'lsa, Yan Komorovski rus tili vositasida dostonni slovak tiliga tarjima qilgan. Tarjimon A.Tarkovski qoraqalpoq xalq dostoni "Qirg'iz"ni 1951-yilda rus tiliga tarjima qiladi. Bundan tashqari 2001-yilda Polshalik tarjimon, shoir A.Chodzko "Ko'roglu" turkumining ozarbayjoncha variantini ingliz tiliga tarjima qilgan.³⁴ 2005-yilda esa fransuz tarjimoni Remi Dor "Nurali" dostonini fransuz tiliga tarjima qilib nashr ettirgan.³⁵ Amalga oshirilgan tarjima ishlaridan ko'rinib turibdiki, o'zbek folklori namunalarini mahalliy tarjimonlar tomonidan xorijiy tillarga tarjima qilish ko'lami u qadar keng emas.

³⁴ Chodzko A., trans. Specimens of the Popular Poetry of Persia, as Found in the Adventures and Improvisations of Kurroglou, The Bandit-Minstrel of Northern Persia. – London: Oriental Translation Fund, 2001.

³⁵ Remy Dor. Nourali le Preux et Marghoumon-Paris. – Coisie: Langues mondes, IFEAC, 2005. – 302 p.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng bu jarayon yanada tezlashib bormoqda. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, folklor asarlarni, xususan, doston janri matnlarini xorijiy tillarga o‘g‘irish mutarjimlar uchun o‘ta murakkab va og‘ir jarayondir. Shu tufayli ularni tarjima qilish jarayoni mutarjimlardan bir nechta muammolarga yechim topish zaruratini talab etadi. Bu muammolarni bartaraf etishning ilmiy-nazariy tamoyillari ishlab chiqilishi o‘zbek tarjimashunos olimlarining bugungi kundagi eng dolzarb vazifalari hisoblanadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini, ayniqsa, doston janridagi asarlarlarni tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy tadqiq etish ishlari kam ekanligi e’tiborimizni tortadi. Buni xalq og‘zaki ijodi namunalarini chet tillariga tarjima ishlari sust olib borilayotgani bilan izohlash mumkin. Ammo bu muvzuda ilmiy tadqiqotlar olib borishda ilk qadamlar tashlangan, desak xato bo‘lmaydi. Jumladan, I.Dilmanov, Z.Jumaniyozov, R.Kasimova, M.Abduvahobova, O.Fayzulloyev, Y.Nasriddinova, A.Saparovlarning³⁶ ilmiy tadqiqotlarini sanab o‘tish mumkin.

Z.Jumaniyozov o‘z dissertatsiyasida “Ravshan” dostonining Karl Rayxl tomonidan nemis tiliga tarjimasini qiyosiy tahlilga tortgan. Ushbu tadqiqot ishida tarjimada milliylikni saqlab qolish, maqol va frazeologik birliklar mazmunini tarjimada qayta tiklash, saj uslubining tarjimada aks etishi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

I.Dilmanovning qardosh tillardan epos tarjimasini mavzusidagi ilmiy izlanishlarida “Masposhsho” va “Shahriyor” dostonlarining qoraqalpoq tilidan o‘zbek tiliga tarjimasini muammolari tahlil qilingan.

³⁶ Дильманов И.О. Қардош тиллардан эпос таржимаси миллий ўзига хосликни қайта талқини. Филол.фан.номзод...дисс. – Тошкент, 2005. – 151 б; Жуманиёзов З.О. “Равшан” достони немисча таржимасида миллийликни қайта яратиш. Филол.фан.номзод...дисс. – Урганч, 2008. – 156 б; Kasimova R.R. O‘zbek to‘y va motam marosim folklori matnlarining inglizcha tarjimasida etnografizmlarning berilishi. Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2018. – 170 b; Abduvahobova M.A. Ingliz, itayan va o‘zbek folklor matnlarida genderning til vositalarida ifodalanishi. Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2019. – 164 b; Fayzulloyev O.M. O‘zbek folklorida lingvokuluramalarning ingliz tilida berilishi (Bolalar folklori va ertaklar misolida). Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2019. – 160 b; Nasriddinova Y.A. O‘zbek folklori va mumtoz adabiyoti fransuz tilida (Remi Dor tarjimalari asosida). Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2019. – 162 b; Saparov A.J. O‘zbek folklori asarlarini rus tiliga tarjima qilishda milliy koloritni tiklash tamoyillari. Filol.fan.dok...diss. – Toshkent, 2020. – 269 b.

R.Kasimova izlanishlarida to‘y va marosim folklorining inglizcha tarjimalarida milliylikni saqlash muammolari, etnografizmlarning tarjimada berilishi usullari yuzasidan tadqiqot olib borgan.

O.Fayzulloev bolalar folklori va ertaklarida uchraydigan lingvokulturemalarning tarjimalarida tarjimonlar qo‘llagan metodlar hamda ularning adekvat tarjimaga erishish darajalarini tahlil qilgan.

Y.Nasriddinova o‘z tadqiqot ishining 2-bobini fransuz folklorshunos olimi va tarjimoni Remi Dorning “Nurali” dostoni tarjimasining tahliliga bag‘ishlagan.

V.M.Gatsak ta’kidlaganidek, “og‘zaki she’r tarjimalarida she’rni she’riy shaklda o‘g‘irishga ko‘proq e’tibor qaratilgani sari asl nusxadan uzoqlashib boradi”³⁷. Tarjima asar asliyat mazmunini tarjima qilinadigan tilga ko‘chirishda adekvat tarjimaga erishish uchun eng munosib vositalarni topish jarayonidan muvaffaqiyatli o‘tganligi uchun ham ijodiy xarakterga ega. Shuning uchun ham badiiy tarjimada turli tasviriy vositalarni, badiiy san’at turlarini, qahramonlar ichki kechinmalarini asliyatdagidek ifodalash haqiqiy san’at hisoblanadi. Xorijiy til bo‘yicha ma’lum darajada bilimga ega bo‘lgan mutaxassis ilmiy, siyosiy, texnik yo‘nalishdagi matnlarni tarjima qila olishi mumkin bo‘lsa-da, badiiy tarjima esa tarjima nazariyasidan xabardor, adabiy shuuri teran bo‘lgan ijodkor tarjimonni taqazo qiladi.

Tarjima sohasining ijodiy ish ekanligini o‘zbek tarjimashunosligi maktabi asoschisi G‘.Salomov qo‘yidagi fikrlari bilan dalillaydi: “Birinchisi – tarjimaning til sohasidagi ijod ekanligi. Ikkinchi dalil: agar bir asarni o‘n kishi o‘g‘irsa, ularning tarjimalari bir xil qolipdan chiqqanday, bir-biriga aynan o‘xshab qolmaydi, balki jiddiy farq qiladi. Uchinchi dalil shuki, ayni bir asarni o‘g‘irganda hosil bo‘lgan bir qancha tarjimalar ijodkorlar mansub bo‘lgan maktab, adabiy an’analar, o‘g‘irilayotgan asliyatning tabiati, tur xususiyatlari taqozosi bilan ham bir-biridan yaqqol ajralib turadi”³⁸. She’riy tarjimada muvaffaqiyatli tarjimon bo‘lish uchun esa

³⁷ Гацак В. М. Проблема фольклорического перевода эпоса. // Петросян, А. А., ответственный редактор. Фольклор. Издание эпоса. – Москва : Изд. “Наука”, 1977. – 192 с.

³⁸ Саломов Ғ. Мен сув ичган дарёлар. – Тошкент: Ғ. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б.18.

tarjimon haqiqiy shoir darajasida qobiliyatga ega bo‘lmog‘i darkor. Taniqli olim V.Jukovskiy aytganidek, “She’riyatda tarjimon - muallifga raqibdir”. She’riy tarjima namunalaridan shuni ko‘rish mumkinki, asliyat shoiri ijod mahsulini tarjima tilida shunchalar yuksak did bilan tarjima qilinganidan asliyatdan ko‘ra tarjima varianti yaxshiroq bo‘lib chiqishi mumkin. Bunday e’tirofga sazovor bo‘lish esa tarjimon shoirning fitratida iste’dod jo‘sh urib turishi kerak.

“Epik dostonlar shakl jihatidan she’riy dostonlardir. Ularning tarjimasiga bel bog‘lash mutarjimlar uchun o‘ta mas’uliyatli ijodiy jarayon. O‘zbek baxshilari tomonidan ijro etilib kelinayotgan, ming yillar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan xalq qahramonlari haqidagi dostonlar hajman yirik asarlar hisoblanadi. Bular ichida o‘zbek folklori namunalarining gultoji shubhasiz “Alpomish” dostonidir.”³⁹

Xorijiy auditoriyada ham xalq qahramonlik dostonlarimiz o‘z muxlislarini topishi uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi milliy folklor asarlarimizni xorijiy davlatlarda ham tanilishi uchun o‘zbek tarjimashunos olimlari, mutarjimlari ilk qadamlarini tashlamoqda. Shunday iste’dodli tarjimonlarimizdan biri Qosimboy Ma’murov “Alpomish” dostonini ingliz tiliga tarjima qilib, 2019-yilda Termiz shahrida o‘tkazilgan xalqaro baxshichilik festivalida taqdim etdi. Tarjimon Q.Ma’murovning o‘zbek tilidan ingliz tiliga amalga oshirilgan “Alpomish” dostoni tarjimasi xalq dostonlari tarjimasi yo‘lida amalga oshirilgan ilk urinishlardan biri, desak, xato bo‘lmaydi.

Folklor asarlarining matnlari badiiy adabiyotning boshqa turlaridan o‘z kompozitsiyasi, syujet unsurlari, motivlari va uslubi bilan farqlanadi. Folklor asarlarni tarjima qilish tarixining dastlabki bosqichida tarjimonlar asarning ma’nosini iloji boricha to‘liq tarjima qilishga uringan bo‘lsa, keyinchalik asliyat tili xususiyatlarini aniq qayd etishga e’tibor qaratishgan. Sibir xalqlari folklorining XIX asr va XX asrning birinchi yarmidagi aksari tarjimalari, asosan, lingvistik aniqlikka qaratilgan. Birinchi marta folklorning she’riy asarlarini tarjima qilish tamoyillariga oid maxsus muammo “Yevropa va Osiyo xalqlari eposi” akademik seriyasining

³⁹ Қаранг: Мирзаев Т. “Алпомиш” достони. Сўз боши. – Тошкент, 1998. – Б. 7-12.

nashr etilishiga bag'ishlangan edi. Unda epik asarlarni ham asliyat tilida, ham rus tiliga tarjima qilinishi reja qilingan edi. Folklorchilar asliyat matnining korrelyatsiyasiga va uning tarjimasiga katta e'tibor qaratdilar, bu folklor yodgorliklarini iloji boricha to'liq taqdim etish, birinchi navbatda, tarjimada asliyat matnini maksimal aniq aks ettirish shart, deb hisobladilar. Shuning uchun folklor asar tarjimasida asliyat matnini maksimal aniq aks ettirish sharti nimalardan iboratligiga batafsil ilmiy sharh berish zaruriyati tug'ildi.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodi namunalarini tarjima qilishning dastlabki tamoyillari A.A.Petrosyan, A.S.Mirbadaleva, N.V.Kidaysh-Pokrovskaya, I.V.Puxov kabi tadqiqotchilar va tarjimashunoslar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarning afzalligi shundaki, ular muayyan folklor asarlarni qardosh bo'lmagan tillarga tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolarga bag'ishlangan. Ularda tarjimonlar tarjimadagi epik matnni adekvat darajada uzatishning asosiy qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish usullarini tavsiflaydilar. "Yevropa va Osiyo xalqlari eposi" seriyasining asarlari asosida mazkur tarjimashunoslar folklor matnlarini tarjima qilish tamoyillarini nazariy jihatdan ishlab chiqdilar. Jumladan, "Sibir va uzoq Sharq xalqlarining folklor yodgorliklari" deb nomlangan ko'p jildli akademik seriyasi ustida ishlash folklor asarlarini tarjima qilishning ilmiy nazariy tamoyillarini ishlab chiqishga muhim hissa qo'shdi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari tarjima qilishda eng muhim omil mazmuni aniq yetkazishda ifoda shaklini maksimal darajada saqlab qolish bo'lib, folklor asarlari tarjimasida shaklni saqlab qolish ma'lum ma'noda adabiy matndan ko'ra muhimroq vazifadir. Bu yerda shakl – an'ana elementi bo'lib, boshqa tilga ko'chirishda bu elementni yo'qotish folklor an'anasi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaslik demakdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tarjima matnda shakl va mazmun birligini ta'minlash muhim omil hisoblanadi.

Mutarjimlar xalq og'zaki ijodi namunalarini tarjima qilishda bir qancha jiddiy muammolarga duch keladilar. Bu kabi muammolarni shartli ravishda uch turga bo'lib tahlil qilishimiz mumkin:

a) asliyat va tarjima tili o'rtasidagi farqli jihatlar muammosi;

b) xalq og‘zaki ijodi namunalarida stilistik vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq muammolar;

c) she‘riy matnni tarjima tilida qayta yaratish muammolari;

Quyida shu muammolar yuzasidan jahon tarjimashunoslari va mutarjimlari tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlarni ko‘rib chiqamiz.

Asliyat va tarjima tili o‘rtasidagi farqli jihatlar muammosi. Ma’lumki, har bir tilning o‘ziga xos bo‘lgan leksik, grammatik va sintaktik xususiyatlari bor. Tarjima amaliyotida turli til oilalariga mansub tillar orasida uchraydigan bunday farqlar tarjimonlar ishini biroz qiyinlashtiradi. (Masalan; turkiy va yevropa tillari orasidagi farqlar).

Folklor namunalarining boy milliy-an‘anaviy komponentlarini tarjima tilida mumkin qadar aniq ifoda etish mutarjimlar zimmasidagi asosiy vazifa hisoblansa-da, bu jihatlarining ba‘zilarida ekvivalent tarjima doirasida ijobiy natijalarga erishish qiyin. Bunday muammolar qatoriga tillarning grammatik va sintaktik tuzilishi bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarini kiritishi mumkin. Asarni asliyat tilidan tarjima tiliga o‘g‘irganda tipologik jihatdan asliyat matni morfologik va sintaktik o‘zgarishlarga uchraydi. Neneckiy xalq dostonlarining tarjimasi yuzasidan tadqiqot olib borgan tarjimashunos N.Tereshenko bu muammolar yuzasidan quyidagi fikrlarni bildirgan: “Ayniqsa, tilning keng imkoniyatlarini ta’kidlash lozim. Subyektiv yoki emotsional baho beruvchi qo‘shimchalar (kichraytiruvchi, kichraytiruvchi-erkalovchi, kattalashtiruvchi, kamsituvchi) yordamida so‘z negizidagi semantikaga turli, ba‘zan o‘ta nozik ohanglar beriladi.”⁴⁰ Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, asliyatning grammatik jihatlarini tarjima tiliga to‘liq o‘tkazib bo‘lmaydi. Bunday maqsad qo‘yish hatto xato hisoblanadi.

Tarjimaning asosiy qoyidalaridan biri tarjima tilida asliyatdan muqobil ravishda qilingan tarjima matnini yaratish, asliyat sintaktik qurilmalarini tarjima tiliga o‘tkazishga urinish esa qoyidalar muvozanatini buzilishiga olib kelishi mumkin.

⁴⁰ Терещенко Н.М. Ненецкий эпос: Материалы и исследования по самодийским языкам. – Л.: Наука, 1990. – С. 36.

Xakas xalq eposlari mutarjimi sifatida tanilgan V.Maynogasheva muammoning yechimini quyidagicha ifodalaydi: “Xakas dostonining gap tuzilishida harakat nomi va kesimning keng qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Ularni rus tiliga tarjima qilish matni idrok qilishni juda qiyinlashtiradi, misralarni murakkablashtiradi. Shuning uchun tarjimon bunday jummalarni alohida soddaroq jumlalarga ajratishiga to‘g‘ri keladi.”⁴¹ Budan shunday xulosaga chiqadiki, asliyat sintaktik xususiyatlarini tarjima tiliga o‘tkazish mumkin, ammo bu eng to‘g‘ri yechim emas. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, she’riy matn tarkibidagi vositalarni, ya’ni qofiya va alliteratsiyani ekvivalent tarzda tarjima matnida aks ettirishdan tiyilish kerak. Aks holda, asliyat matnining mazmuni tarjimada o‘z ifodasini topmay qolishi mumkin.

V.Mangoshayeva tarjimada qofiya va hajmning mutanosibligini teng olib borish imkoniyatlari haqida ham izoh keltiradi: “Juda aniq semantik tarjimada qofiya va she’rning hajmini saqlab qolish imkoniyati yo‘q, faqat intonatsiyani, ya’ni ovoz ohangini iloji boricha taxminan uzatish mumkin.”⁴² Yana bir qancha tarjimashunoslar bu muammoga nisbatan o‘z qarashlarini bildirib o‘tganlar. Masalan, “Manas” dostonini rus tiliga qilingan tarjimasi ustida tadqiqot olib borgan tarjimashunoslar A.Mirbadaleva va N.Kidaysh-Pokrovskaya “Manas dostonini tarjima qilganda maqsad shakl va qofiyani saqlab qolish bo‘lmagan, chunki ko‘pincha bu ma’noning noto‘g‘ri o‘tkazilishiga olib kelishi mumkin edi” degan xulosaga keladilar.⁴³ Ba’zi hollarda mutarjimlar folklor asarlarining she’riy qismlarini ham nasriy shaklda tarjima qilishgan. Bundan ko‘zlangan maqsad esa shaklni saqlab ma’nodan uzoqlashgandan ko‘ra, shaklni qurbon qilib bo‘lsa-da, mazmuni buzmasdan retseptorga yetkazish bo‘lgan.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida stilistik vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq muammolar. Bu guruhga xalq og‘zaki ijodida

⁴¹ Майногашева В.Е. Хакасский героический эпос. “Алтын-Арыг”. Хакасский героический эпос. – Москва: Наука, 1988. – С. 533.

⁴² Shu manba. – B. 534.

⁴³ Мирбадалева А.С, Кидайш-Покровская Н.В. О принципах перевода и комментирования текста Манас. Киргизский героический эпос. Книга 1. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1984. – 544 с.

uchraydigan tipik joylar, frazeologik birliklar, ayni vaqtda ishlatilmaydigan arxaik soʻzlar, tarjima tilida aynan ekvivalentlik hosil qilolmaydigan yoki mavjud boʻlmagan folklor tasvirlari kiradi. Folklor matnlar tarjimasini bilan shugʻullanuvchi mutarjimlar badiiy-tasviriy vositalar (iboralar, tarixiy soʻzlar, sheva xos soʻzlar va hokazo)ni tarjima tiliga oʻgirishda koʻplab muammolarga duch keladilar. Mutarjimlar uchun ekvivalent tarjima yaratishda iboralar, koʻp maʼnoli soʻzlar, oʻxshatishlar, arxaik soʻzlarni maʼlum bir qoliplarga solib tarjima tiliga oʻtkazish har doim ham oʻzini oqlamaydi. Asliyatning bunday komponentlarini tarjima tiliga oʻtkazishda mutarjimlar ogʻzaki ijod namunasini yaratgan xalq tili, madaniyati va milliy mentalitetining farqli taraflarini inobatga olishi zarur. Bunda muayyan folklor asarning badiiy tasviriy vositalaridagi elementlari tarjimasini uchun alohida metodlar ishlab chiqish mutarjim muvaffaqiyati uchun xizmat qilishi aniq. Masalan, arxaik soʻzlar va istorizmlar tarjimasini qardosh tillar oʻrtasida bajariladigan tarjimalarda murakkabliklar keltirib chiqarmasligi mumkin, biroq bu tarjima turli til oilalariga mansub tillar oʻrtasida amalga oshirilsa, baʼzi mushkulliklar kelib chiqishi tabiiy. Bu muammolar bartaraf etilmasa, tarjima tili kitobxonini uchun kontekst tushunmovchiliklar va noaniqliklarni keltirib chiqaradi. A.Mirbadaleva quyidagi izohni keltiradi: “Koʻp soʻzlarning polisemantik tabiati baʼzi satrlarni boshqacha tushunishga olib keldi. Bunday hollarda tarjima sheʼriy parchaning umumiy maʼnosi bilan belgilanadi”⁴⁴. Yaʼni, u sheʼriy tarjimada koʻp maʼnoli soʻzlarning adekvat tarjimasiga erishish uchun asar mazmunini bir zum ham eʼtibordan chetda qoldirmaslikni tavsiya etadi. J.Lebedeva ham bu muammoga oʻz fikrini bildirib oʻtgan: "Soʻzning maʼnosini aniqlash uchun gapning tor kontekstini tahlil qilishning oʻzi yetarli emas, chunki bu maʼno umumiy fonda epik asar mazmunini umuman qiyinlashtiradi. Shu munosabat bilan badiiy vositalarni tahlil qilar ekanmiz, biz nafaqat lisoniy birliklarning oʻzaro munosabati va oʻzaro bogʻliqligidan, nafaqat kontekstdan, balki butun semantik birlik – motiv va syujetdan ham kelib chiqishga

⁴⁴ Мирбадалева А.С. Текстология тюркоязычного эпоса: теоретические и методические аспекты двуязычного научного издания “Манаса” и других эпических памятников. Автореф. дисс. в форме научного доклада на соиск. уч. степ, д-ра филол. наук. – М., 1995. – С. 48.

harakat qilamiz.”⁴⁵ Tarjima tilidagi asarning o‘quvchisiga badiiy tasvirlarni unga noma’lum bo‘lgan o‘xshatishlar orqali emas, balki tanish bo‘lgan tasviriy vositalar orqali uzatish tavsiya etiladi.

She’riy matnni tarjima tilida qayta yaratish muammolari. Bu turdagi muammolarga qofiya turlaridan alleteratsiya, anafora, assonans, epifora va she’rning ritmik va ohangdoshlik qurilishi kiradi. Xalq og‘zaki ijodi poetik namunalari tarjimasi ko‘p hollarda mutarjim uchun uslubiy jihatdan muammo keltirmasligi mumkin. Masalan, epitet tarjimasida unga mos ekvivalent tanlashda imkon beradigan an’anaviy poetikadan tarjimon xabardor bo‘lishi kifoya qiladi. G‘aybulla Salomov she’riy tarjima xususida shunday obrazli o‘xshatish qilgan: “Men uchun tarjima dastlab san’atdir. Tarjimani nikoh yo‘li bilan qilingan ittifoqqa o‘xshatgim keladi. She’riyat tarjimasini esa muhabbatga asoslangan nikohga qiyos etgum.”⁴⁶

Asliyatdan tarjimaga o‘g‘irishda uchta she’riy metod taklif qilinadi: a) epik formula; b) variatsiya; c) satrlar parallelligi. **Folklor poetikasida dostonning epik joylari, variatsiyalar, satrlar parallelligi kabi xususiyatlarini har qanday tilga tarjima qilishda she’rning ritmik qurilishini saqlash uchun tadbiriq etiladigan umumiy metodlardan foydalanish mumkin.**

Folklor asarlar tarjimasi tadqiqida mubolag‘alar, epitetlar, o‘xshatishlar, frazeologik birliklar, allegoriyalar kabi badiiy tasvir vositalariga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Jahon tarjimashunosligida ham, o‘zbek tarjimashunosligida ham xalq og‘zaki ijodi namunalari tarjimasi yuzasidan nisbatan kam ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Sh.Alekperova⁴⁷ o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida Ozarbayjon eposi “Ko‘roglu”ni rus tiliga o‘g‘irishda milliy koloritni tarjima qilish muammosini yoritgan bo‘lsa, L.Pisarevaning⁴⁸ “Folklor tarjimasi va poetikasi” nomli monografiyasi she’riy dostonlar tarjimasi muammosiga bag‘ishlangan.

⁴⁵ Лебедева Ж.К. Архаический эпос эвенов. – Новосибирск: Наука, Сиб. отд-ние, 1981. – С. 99.

⁴⁶ F.Саломов. Кутлуғ мақсадга камарбаста. //Таржима санъати 5-китоб. – Тошкент, 1980. – Б. 5.

⁴⁷ Алекперова Ш.А. Проблема передачи национального своеобразия азербайджанского эпоса “Кёроглу” на русском языке /Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд. филол. наук. – Баку, 1982.

⁴⁸ Писарева Л.А. Поэтика фольклора и перевод. Латышские дайны в русских переводах. – М.: ЭКОН, 2002.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari tarjimasiga doir izlanishlarni A.Mirbadalova “Turkiy til eposlari tekstologiyasi: “Manas” va boshqa epik yodgorliklar ilmiy nashrining ikki tilli nazariy va yakuniy jihatlari”⁴⁹ nomli doktorlik dissertatsiyasida olib borgan. Tadqiqotning bir bobida xalq she’riy dostonlari tarjimasiga muammosiga alohida e’tibor qaratgan.

Jahon va o‘zbek tarjimashunoslarining ilmiy-nazariy tadqiqotlari, monografiyalari ilmiy tadqiqotimiz uchun nazariy asos vazifasini o‘tab, “Alpomish” dostoni tarjimasini o‘ziga xos jihatlari va unda duch kelingan muammolarni hal etishga xizmat qilgan omillarni o‘rganishga e’tibor qaratgan holda ushbu tadqiqotimizni o‘zbek xalq qahramonlik dostoni “Alpomish”ning 2019-yilda mutarjim Qosimboy Ma’murov tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimasiga misolida ko‘rib chiqamiz.

1.3. Dostonlar tarjimasida adekvatlik va ekvivalentlik muammolari

Tarjimashunoslik rivojida XX asr oxirini tom ma’noda yuksalish davri deyish mumkin. Bu davrga kelib tarjima nazariyasi mustaqil fan sifatida to‘liq shakllangan, uning predmeti va obyekti, tamoyillari, tarjima metodlari, maqsad va vazifalarida aniqlik paydo bo‘lgan edi. Tarjima nazariyasida L.K.Latishev, J.Nayda, V.N.Komissarov, J.Ketford, I.Popovich, A.Noyber⁵⁰ kabi ko‘plab tadqiqotchilarning tarjima muammolariga bag‘ishlangan ilmiy asarlari bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan, desak xato bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan jahon tarjimashunosligida umumiy nazariyaning yaratilishi XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Mutarjimlarning ijodiy faoliyati yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida tarjima sifatini belgilash bo‘yicha “adekvat tarjima” tushunchasi va mezonlari paydo bo‘lishiga zamin yaratildi.

⁴⁹ Мирбадалева А.С. Текстология тюркоязычного эпоса: теоретические и методические аспекты двуязычного научного издания “Манаса” и других эпических памятников / Автореф. дисс. в форме паучного доклада на соиск. уч. степ, д-ра филол. наук. – М., 1995.

⁵⁰ Латышев, Л. К. Технология перевода : учебник и практикум для вузов / Л. К. Латышев, Н. Ю. Северова. — 4-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 263 с.; Nida E. Taber.Ch.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden, 1969. 220 p.; Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Учебное пособие – М.: ЭТС, 2001. – 424 с.; Catford J.C. A Linguistic theory of translation. – London: Oxford University Press, 1978. 103 p.

Adekvatlik va ekvivalentlik haqida soʻz borar ekan, eng avvalo uning lugʻaviy maʼnosiga toʻxtalib oʻtamiz. Adekvat soʻzi lotincha “*adaequatus*” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “*aynan oʻxshash*”, “*toʻla mos*” maʼnolarini ifoda etadi. Ekvivalent ham lotincha “*aequivalens*” dan olingan boʻlib, “*teng kuchli*” maʼnosini anglatadi.⁵¹

Keyingi yillarda tarjimashunoslik sohasida olib borilgan izlanishlar natijasida ekvivalent tarjimaga erishish muammolari yechimlariga qaratilgan yangi nazariyalar paydo boʻla boshladi. Xorijiy tadqiqotchilardan S.Dollerup, J.Xeylborn, Z.Dotmurziyeva, Y.Sokolovskiy, V.Xayrullin, N.Suyargulov, N.Axshapevalar badiiy matnning kommunikativ va pragmatik xususiyatlariga eʼtibor qaratib, poetik matnlar tarjimalarining kulturologik, kognitiv, lingvomadaniy, denotativ, germentiv jihatlarini tadqiq eta boshladilar⁵². (snoskani oʻzgartirdim)

Oʻzbek tarjimashunosligida folklor asarlarning, ayniqsa “Alpomish” dostoning ingliz tiliga qilingan tarjimalari yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning yetishmasligi tadqiqot ishimizning nafaqat murakkabligini koʻrsatadi, balki uning ahamiyati va dolzarbligini yanada oshiradi. Masalan, badiiy tarjima masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar bugungi kunda koʻplab olib borilayotgan boʻlsa-da, oʻzbek xalq qahramonlik dostonlari tarjimasida tarjimon mahorati, uning ijodiy ishida ekvivalentlikka qay darajada erishganligini koʻrsatuvchi tadqiqotlar sezilarli darajada kam.

Mutarjimlar folklor asarning tarjimasida asliyat mazmunini buzmasdan retseptorga yetkazish uchun dostonning baʼzi shakliy elementlarini tadbil etadilar, yoki aksincha retseptorga taʼsir etuvchi tasviriy vositalarni qoʻllash orqali asar semantikasiga oʻzgartirish kiritishi mumkin. Shakl va mazmun uygʻunligini taʼminlashda tarjima tiliga oʻgʻirish qiyinchiliklari tufayli asliyatning u yoki bu

⁵¹ Словарь иностранных слов. – Москва, 1979. – С. 17; 584.

⁵² Dollerup S. Tales and Translation: The Grimm Tales from Pan-Germanic Narratives to Shared International Fairytales. – Amsterdam: John Benjamins, 1999; Heilbron J. Translation as a Cultural World System // Perspectives: Studies in Translatology. – Vol. 8(1). 2000; Дотмурзиева З.С. Прагматика англоязычного художественного текста и проблемы прагматики его перевода. – Пятигорск, 2006; Соколовский Я.В. Соотношение оригинала и перевода художественного текста: изоморфно-когнитивный подход. – Иркутск, 2009; Хайруллин В.И. Перевод и фреймы: учебное пособие. – М.: Книжный дом “ЛИБРИКОМ”, 2010; Суяргулов Н.А. Особенности языка и стиля башкирского перевода Корана. – Уфа, 2004; Ахпашева Н.М. Переводческая традиция хакасских сказаний о богатырях: опыт прескриптивного анализа художественного перевода, – М.: 2009;

jihatiqta putur yetishi mumkin. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini tarjima tiliga o‘g‘irish o‘ta murakkab jarayon ekanligini inobatga olib, xalq dostonlarining ohang, milliy mentalitet, motiv kabi elementlarini tarjima tili o‘quvchisiga begona bo‘lmagan voqeliklar bilan yetkazish tarjimondan yuksak mahorat, bilim va tajriba talab qiladi. Aslida bu muammolarga asliyat tilini mukammal bilmagan mutarjimlar duch keladilar. Biz ustida tadqiqot olib borayotgan asar tarjimonining muammosi o‘z ona tilisida yaratilgan dostonni tarjima tilida retseptorga tushunarli bo‘lgan tasviriy vositalar orqali yetkazish va asar estetik rang-barangligini muvaffaqiyatli saqlab qolishdir.

Kuzatuvlarimiz natijasida aytishimiz mumkinki, she‘riy usulda yaratilgan xalq dostonlarini tarjima tiliga o‘g‘irishda ekvivalentlikka to‘liq erishib bo‘lmasligini guvohi bo‘ldik. Asliyat matnidagi qofiya va bo‘g‘inlar sonini tarjimada ham saqlab qolishga bo‘lgan urinishlar doim ham samara beravermaydi. Chunki boshqa til oilasiga mansub tarjima tilidagi so‘zlarning morfologik shakli va sintaktik qurilishi bunga imkon bermasligi mumkin. Natijada ekvivalentlikka bo‘lgan bunday yuqori intilishlar asarning tarjima tilidagi nusxasi saviyasini tushirib yuborishi, xorijiy kitobxonni asardan estetik zavq olishini cheklashi mumkin.

So‘nggi yillarda tilshunoslar, tarjimashunos olimlar tarjima suratini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib bora boshladilar. Jumladan, A.V.Fyodorov va Y.I.Retsker⁵³ tarjima nazariyasiga oid sermahsul tadqiqotlar olib borishdi. Ularning fikriga ko‘ra, ikki til orasidagi muloqot tabiiy funksiyalarga asoslanishi, bu funsiyalarni amalga oshirishuvchi ifoda vositalarini esa imkon boricha uyg‘unlashtirish lozim deb topildi. Leksik, sintaktik, stilistik birliklar, tasviriy vositalarni so‘zma-so‘z tarzda tarjima qilmasdan asliyat va tarjima tillarini mukammal egallagan mutarjim oldiga tarjima transformatsiyalari bo‘yicha kuchli ijodiy mahorat talabi qo‘yildi. Asliyatda qo‘llanilgan iboralar ma‘nosi retseptorga tushunarli bo‘lishi uchun tarjima tilida ham bu iboralarning analogini topa olish mutarjimning til bilish salohiyatiga bog‘liq. Masalan, o‘zbek she‘riyatining

⁵³ Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистический очерк). 3-е изд. – М., 1968; Ретскер Я.И. Теория перевода и переводческая практика: Очерки лингвистической теории перевода. – М., 1974.

zabardast vakillaridan biri shoir-tarjimon Abdulla Oripov Dantening “Ilohiy komediya” asarini tarjima qilib, o‘zbek kitobxonlariga taqdim etganda asar tarjimasi xuddi o‘zbek tilida yaratilgandek, taassurot uyg‘otadi. Chunki shoir bu asarni xuddi ona tilimizda yozilgandek yuksak mahorat bilan tarjima qila olgan.

Keyinchalik asliyat matni va tarjima matni o‘rtasidagi to‘liq uyg‘unlikka jiddiy e‘tibor berila boshlandi. Bu qarashlar XX asr o‘rtalarida vujudga kelgan ekvivalent tarjima nazariyasida yaqqol namoyon bo‘ldi. Tarjimashunos olim Y.Nayda olib borgan tadqiqotlari davomida ekvivalentlik nazariyasi rivojlanishining ikkita asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatadi. Bular – formal va dinamik ekvivalentlik. Formal ekvivalentlik tamoyillari asosan ilmiy matnlarda qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi. Uning fikricha, tarjima jarayonida formal ekvivalentlik matn grammatikasi, aniq va doimiy leksik muvofiqlik, kontekst mazmuni doirasidagi ma’nolarning barqarorligini talab etadi⁵⁴. Dinamik ekvivalentlik esa asliyat matnining tarjima tilidagi eng yaqin tabiiy ekvivalentini topishdir. Dinamik ekvivalentlik asliyat va tarjima tilida so‘zlashuvchi xalqlar madaniyatiga, tarjima qilinayotgan asar kontekstiga, undan tashqari tarjima tili kitobxoniga mos kelishi kabi talablarga javob bera olishi kerak. Y.Naydaning fikricha, tarjima matni shu talablarga mos kelsagina asliyatga eng yaqin ekvivalent bo‘la oladi. U dinamik ekvivalentlikni ifoda vositalari tarjima tili vositasida to‘g‘ri tanlash imkoni borligi uchun va asliyat matnini butunligini saqlab qolishda samarali usul ekanligini isbotlaydi⁵⁵.

Dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi keyingi bosqichlarda rus tarjimashunoslarining ilmiy tadqiqotlarida yanada boyitildi. A.Shveyserning⁵⁶ “Tarjima nazariyasi” nomli kitobida tarjimaning dinamik ekvivalentligi xususida fikr yuritib, bu nazariyani yanada kengroq yoritib bergan. U ekvivalentlik darajalari nazariyasini ham ishlab chiqqan bo‘lib, unga ko‘ra tarjimaning asliyatga yaqinlik darajasi tarjimonning turli tarkibiy transformatsiya uslublaridan foydalana olish

⁵⁴ Nida E. Taber.Ch.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden, 1969.

⁵⁵ Shu manba.

⁵⁶ Швейцер А.Д. Теория перевода. Статус, проблемы, аспекты. – М., 1988.

darajasi bilan belgilanishini nazarda tutadi. Rus tarjimashunosi V.Komissarov ekvivalentlik tushunchasiga shunday ta'rif keltiradi: “Ekvivalentlik – asliyat va tarjima matnlari barcha darajalarining maksimal mosligidir.”⁵⁷ Uning tadqiqotlarida ekvivalentlikka erishish tarjima pragmatikasiga, ya'ni muloqot maqsadi, vaziyatning tavsifi, mushohada tarzi, gap tuzilishi, leksik-semantik muvofiqlikka qarab baholanadi. V.Vinogradov uning fikrlarini to'ldirgan holda ekvivalentlikka quyidagicha ta'rif beradi: “Ekvivalentlik bu - semantik, stilistik va funksional-kommunikativ ma'lumotlarning nisbiy tengligini tarjimada saqlashdir”⁵⁸. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, ekvivalent tarjima tushunchasining asosiy ustuni boshqa adabiy muhitda yaratilgan asliyat matnidagi yozuvchining shaxsiy dunyoqarashi va olamning milliy manzarasini tarjima matniga o'girishda tenglikni saqlovchi lingvistik-semantik ifodani topa olishidir.

E.Etkind: “ikki tilning leksik va sintaktik sathlari lingvistik birliklarining o'zaro bog'lanishining muayyan muammosini ko'rib chiqadi va fransuz tiliga nisbatan rus so'zlarining boyligi fransuz tili sintaksisining katta ifodali imkoniyatlari bilan qoplanadi”, degan xulosaga keladi.⁵⁹ Biroq, Etkind bu yerda ham “ekvivalentlik” atamasini ishlatmaydi. Boshqacha qilib aytganda, bir til sathlaridagi birliklar yordamida yetkazilmaydigan narsa boshqa bir yuqori sathdagi birliklar yordamida aks ettirilishi mumkin. Keyinchalik bu fikr M.Xellidey tomonidan rivojlantiriladi.⁶⁰ Tarjimashunos olimlardan O.Axmanova va V.Zadoriova so'z va matnni tarjima qilish paytida tashqi aloqalar o'rnatiladigan eng muhim birliklar deb hisoblaydi.⁶¹ Ular asosiy e'tiborni so'zlarning tildan tashqaridagi funksional muhitiga qaratish kerakligini ta'kidlab o'tadilar.

XX asrning ikkinchi yarmidagi jahon tarjimashunoslari asarlarida birinchi marta tarjimada ekvivalentlik tarjima matnining faqat stilistik xarakteristikasi bilan

⁵⁷ Комиссаров В.Н. Современное переводоведение: учебное пособие. – М.: ЭТС, 2002. – 424 с.

⁵⁸ Виноградов В.С. Перевод: общие и лексические вопросы: Учебное пособие. 3-е изд. – М.: КДУ, 2006.

⁵⁹ Эткинд Е. Перевод и сопоставительная стилистика. Мастерство перевода, сб. ст. – М.: Советский писатель, 1959. – С. 86.

⁶⁰ Хэллiday М.А. Сопоставление языков. Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – М.: Международные отношения, 1978. – С. 42 – 54.

⁶¹ Ахманова О.С, Задорюва В.Я. Теория и практика перевода в свете учения о функциональных стилях речи. Лингвистические проблемы перевода. – М.: Изд-во Московского университета, 1981. – С. 3–12.

emas, balki semantik darajasi bilan baholash mumkin, degan ilmiy asosni ilgari suradilar. G.Yeger “Kommunikativ va funksional ekvivalentlik”⁶² nomli risolasida ekvivalentlik turlarining quyidagi tasnifini keltiradi:

1. Bevosita-signifikativ ekvivalentlik;
2. Bevosita bo‘linish ekvivalentligi;
3. Pragmatik ekvivalentlik.

G.Yegerning fikriga ko‘ra, agar asl matnning barcha elementlari tarjima matnida to‘liq ifodalangan bo‘lsa, oldimizda ikkita maksimal darajadagi adekvat matn paydo bo‘ladi. J.K.Ketford turlarni va ekvivalentlik sohalarni tasniflashga doir o‘z versiyasini taqdim etadi⁶³. J.Ketfordning fikriga ko‘ra, ekvivalentlikning tabiati u mavjud bo‘lgan domenga bog‘liq. Tarjima matn birliklarining boshqa tilga “ma’no ko‘chishi” emas, balki tarjima tili birliklari orasida manba tili birligi uchun tarjima tilidan eng yaqin ekvivalentni qidirib topish degan xulosaga keladi.

Tarjimada ekvivalentlikni hosil qilishga doir yangicha qarashlar amerikalik tarjimashunos olim, M.Larsonning tadqiqotlarida o‘z aksini topadi. Ekvivalentlarni tanlashning asosiy muammosi Larson tomonidan quyidagicha izohlanadi: “Leksik birliklarning ekvivalentlarini topish asliyat tilida so‘zlashuvchi odamlar va tarjima tilda so‘zlashuvchi odamlar turfa madaniyatlarga mansub ekanligi uchun ham murakkablashadi. Shuning uchun tarjima jarayonida ko‘p narsalarni o‘zgartirish yoki qayta yaratishga to‘g‘ri keladi. Tarjimon tarjima tilining shakllarini eng tabiiy va aniq yetkazib berishga harakat qiladi. Bu esa o‘z navbatida asliyat tili matnidan tubdan farq qilishi mumkin.”⁶⁴

Ekvivalentlikka funksional yondashuv rus tarjimashunos olimi S.Levik tomonidan ilgari suriladi. Asliyatdagi ayrim lisoniy unsurlarning axborot funksiyasi o‘rganilib, tarjimada qaysi til vositalari bir xil vazifani bajara olishini belgilash prinsipini funksional o‘xshashlik prinsipi sifatida ko‘radi.⁶⁵ Uning fikricha, badiiy

⁶² Егер Г. Коммуникативная и функциональная эквивалентность, Вопросы теории перевода в современной лингвистике. – Москва: Международные отношения, 1978. – С. 137 – 156.

⁶³ Catford J.C. A Linguistic theory of translation. – London: Oxford University Press, 1978.

⁶⁴ Larson M. Meaning-Based Translation. A Guide to Cross-Language Equivalence. University press of America. – 586 p.

⁶⁵ Левик В. О точности и верности. Мастерство перевода, сб. ст. – М.: Советский писатель, 1959. – С. 254-275.

tarjimada birgina mazmuni emas, balki lingvistik elementlarni ham izchil yetkazish imkoni bor.

Hozirgi vaqtda tarjimaning pragmatik xususiyati yuzasidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu asosan tarjima jarayonini o‘rganishda antropologik omillar birinchi o‘ringa chiqayotgani bilan bog‘liq. Zamonaviy tarjimashunoslik antroposentrizmi asliyat she‘riy matnini tarjima qilish ijodiy qayta yaratish deb hisoblaydi. Har bir mutarjim tarjima ishiga individual tarzda yondashadi, tarjima metodining turli usullaridan foydalanadi. Badiiy tarjimada she‘riy matnini ijodiy qayta yaratishning asosiy shartlaridan biri muammoga aylanishi mumkin bo‘lgan milliylik va zamonaviylikni tarozi pallasidek teng yaratish jarayonidir.

D.Seleskovich va M.Lederer tomonidan yaratilgan “Tarjima qilish uchun sharh” konsepsiyasida tarjimada asliyat mazmunini berishda til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatib beradi.⁶⁶ Ularning izohlashicha, tarjima qilish – asliyat tili belgilarini emas, g‘oyalarini tarjimaga o‘tkazishdir. Asliyatning milliy, etnik, davr va shunga o‘xshash xususiyatlaridagi til farqlari tarjimaning mukammal bo‘lishida ba‘zi bir to‘siqlarni keltirib chiqaradi. Shu sababdan mutarjimlar asliyatning lingvistik xususiyatlariga ko‘z yumib, asliyat mazmunini buzmasdan yetkazishga harakat qila boshladilar. G.Ture o‘z izlanishlari davomida shunday to‘xtamga keladi: “Asliyat va tarjima matnlari ikki millat tili, adabiyoti va madaniyati o‘rtasida qiyoslanishi shart. Shu bilan birga, tarjimon zamonaviy auditoriyaga tushunarli bo‘lishi uchun asliyat matnini ifoda nuqtayi nazaridan abstraklashtirishi kerak.”⁶⁷

O‘zbek tarjimashunos olimlari ham badiiy tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik muammolariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Ulardan Sh.Sirojiddinov, M.Bozorov, N.Isamuhamedova, G.Odilova, I.To‘xtasinov, A.Bumatovalarning⁶⁸ ilmiy izlanishlarini keltirib o‘tishimiz mumkin.

⁶⁶ Комиссаров В.Н. Современное переводоведение./Учебное пособие – М.: ЭТС, 2001. – 424 с.

⁶⁷ Toury G. The Translation of literary Text vs Literary Translation from the Point of View of the Target Literary System./Литература и перевод проблемы теории – М.: 1993. – С. 164.

⁶⁸ Бозоров М. Проблемы перевода лексических параллелизмов и ложных эквивалентов. Автореф. дисс. в форме научного доклада на соиск. уч. степ, д-ра филол. наук. – Т.: 1985. – С. 19; Исамухамедова Н. Стилистическая адекватность художественного текста: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2007.

G.Odilovning “Ingliz va o‘zbek mumtoz she‘riyati tarjimalarida adekvatlik muammolari” nomli dissertatsiyasida obrazli ifodalar adekvatligi, poetik ma‘noni uzatishda adekvatlikni saqlash kabi muammolar ko‘tarilgan⁶⁹. A.Bumatovning “Sharq lirik janrlarining inglizcha tarjimalarida shakliy-semantik va poetik uyg‘unlik” nomli dissertatsiyasida esa g‘azal va ruboiy tarjimalarida shakliy-semantik va poetik uyg‘unlikka erishish masalalari tadqiq qilingan⁷⁰.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarini tarjima tiliga o‘g‘irishda tarjimonlarga qo‘yiladigan birlamchi vazifalar, avvalo, asarning barcha lingvistik, semantik va badiiy xususiyatlarini xorijiy kitobxonga to‘liq yetkazishdir. Bunda tarjimonlar to‘rt asosiy jihatlarni hisobga olishlari talab etiladi.

1) Folklor asarlarning qadimiyligini hisobga olib, ba‘zi arxaik so‘zlar ma‘nosini va asliyat tilning o‘sha davrga xos milliy xususiyatlarini tarjimada aks ettira olish;

2) Xalq og‘zaki ijodi namunalarining barcha semantik xususiyatlarini, uning badiiyligi va shaklini buzmasdan tarjima tiliga o‘tkazishi;

3) Tarjima jarayonida asliyat tilining stilistik xususiyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima tiliga o‘tkazishdan tiyilish, ya‘ni o‘zga madaniyat vakili bo‘lgan xorijiy o‘quvchida doston qahramonlari, vaziyatlar, haqida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otish ehtimolini hisobga olish;

4) Asliyat matnining hissiy ranglarini, dostonning ulug‘vorligi va tantanali ruhini tarjima tiliga o‘tkaza olish.

Yuqorida keltirilgan jihatlardan kelib chiqib, xalq og‘zaki ijodi namunalarini tarjima tiliga o‘g‘irish amaliyotida asliyatning lingvistik xususiyatlarini saqlab qolish sohasida Y.Naydaning formal ekvivalentlik va dinamik ekvivalentlik tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

– 146 с; Одилова Г. Инглиз ва ўзбек мумтоз шеърляти таржималарида адекватлик муаммолари. Филол. фан. номзод...дисс. – Тошкент, 2011. – 153 б; Тухтасинов И. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш. Педагогика. фан. док...дисс. – Тошкент, 2018. – 242 б; Буматова А. Шарқ лирик жанрларининг инглизча таржималарида шаклий-семантик ва поэтик уйғунлик (ғазал ва рубоий мисолида). Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 156 б.

⁶⁹ Одилова Г. Инглиз ва ўзбек мумтоз шеърляти таржималарида адекватлик муаммолари. Филол. фан. номзод...дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 110-121.

⁷⁰ Буматова А. Шарқ лирик жанрларининг инглизча таржималарида шаклий-семантик ва поэтик уйғунлик (ғазал ва рубоий мисолида). Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б 72-96.

Folklor asarlar tarjimonlari tarjimada shaklni saqlash birlamchimi yoki mazmunmi, asliyat va tarjima tili tuzilishida ko'zga tashlanadigan farqlarni moslashtirish uchun qanday tamoyillarga asoslanib, qaysi tarjima metodlaridan foydalanish samarador ekanligi muhim, kabi savollarga yechim topa olishlari shart. Qolaversa, tarjimon asliyat ruhiyati, milliy mentaliteti, qadriyatlariga jiddiy e'tibor berib xorijiy o'quvchiga tushunarli tarzda yetkaza olishi, buning uchun esa mutarjim ham asliyat, ham tarjima tili xalqlari tarixi, madaniyati va urf-odatlarini, o'sha xududga xos bo'lgan lahja va shevalarni chuqur o'rganmog'i lozim. Chunki mutarjimlar faqat tillar o'rtasidagi vositachilar emas, madaniyatlararo ko'priklar hamdir. Masalan, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi shevalarida otaning akasini "amaki" deb emas, "bobo" deb atashadi. "Alpomish" dostonida Boybo'ri Boysarining akasi, shuning uchun ham Boysarining qizi Oybarchin uchun Boybo'ri amaki, ammo shevada Oybarchin amakisiga "bobo" deb murojaat qiladi. Tarjimada bu ikki xil qarindoshlik atamalarini noto'g'ri o'girilishi kontekst mazmunini tushunarsiz qilib qo'yishi mumkin edi. Tarjimaning sotsiolingvistik jihatlarini hisobga olgan tarjimon Q.Mamurov komponent tahlil metodidan foydalanib bu muammoni eng to'g'ri va oddiy usulda bartaraf etgan. Quyida shu muammoga taalluqli bo'lgan parchani keltirib o'tamiz:

Asliyat:

*"Biy boboma bul xabarni beringlar,
Katta-kichik hamma duo qilinglar,
Qalmoqda qolmasin guldayin tanam,
Qalmoqning zulmidan yig'ladi enam."*⁷¹

Tarjima:

*"To my uncle, their leader, this bad news tell:
There's a threat to me, as a Kalmyk's wife, as well
I don't wish here in gaol to fade away."*

⁷¹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: "Шарк" нашриёти, 1998. – Б.69.

Mother is crying, finds no comfort today.”⁷²

Ko‘rib turganingizdek asliyatdagi “bobo” so‘zi tarjimada “grandfather”, “granddad” yoki “grandpa”(bobo) deb emas, “uncle”(amaki) tarzida tarjima qilingan va ekvivalent tarjimaga erishilgan. Bu bilan xorijiy o‘quvchida doston qahramonlari o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalari yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan mavhumlikning oldi olingan.

Tarjima tilidagi asarning o‘quvchisiga badiiy tasvirlarni unga noma‘lum bo‘gan o‘xshatishlar orqali emas, balki tanish bo‘lgan tasvir vositalari orqali uzatish tavsiya etiladi. Ammo shuni ham ta’kidlash kerakki, barcha holatlarda ham mutarjim uchun muammo bo‘lgan har bir so‘zning ekvivalentini topishga urinishlar, izoh berib tarjima qilishdan qochish tarjima asarning jozibasi va estetik sifatini tushirib yuborishi mumkin. Shu sababli, bu muammo ekvivalent tenglikni topgandan ko‘ra izohlash yo‘li bilan bartaraf etiladi. Shu o‘rinda “Alpomish dostonining ingliz tilidagi tarjimasidan yana bir parchani ko‘rib o‘tamiz:

Asliyat:

*“Kalma-shahodat musulmonning tiliga,
Azamat bosh berar dinning yo‘liga,
Xabar ketdi o‘n olti urug‘ eliga.
Eli-xalqqa shunday xabar bo‘ladi,
O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot eli biladi.”*⁷³

Tarjima:

*“Kalimai shahodat is Muslim’s word,
The clever is a leader for a religious road.
A notice was sent to sixteen tribes,
Such notice was disseminated to the folks.
All sixteen tribes of Qunghirat were aware,”*⁷⁴

⁷² Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 16.

⁷³ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 313.

⁷⁴ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 137.

Diniy atamalarni tarjima tilida ifodalash uchun qo‘llaniladigan eng samarali usul bu – transliteratsiya va transkripsiya usuli hisoblanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida kalimai shahodatga “Musulmonlikka iqror bo‘lish uchun yoki musulmonlik dalili, asosi sifatida aytiladigan arabcha ibora”⁷⁵ sifatida ta’rif beriladi. “Alpomish” dostoni tarjimasida esa bu iboraga glossariy bo‘limida “Kalimai shahodat is surah from Quran to believe in the uniqueness of Allah”⁷⁶ deya ta’rif berilgan. Tarjimon bu iboraga xorijiy kitobxon madaniyatiga mos bo‘lgan ekvivalent topishdan tiyilib transliteratsiya metodi yordamida tarjima matniga o‘tkazgan va havola orqali ibora izohini ochib bergan.

Milliy madaniyatga xos so‘zlar tarjimasida ham tarjimon uchun biroz muammo tug‘dirishi mumkin. Ba’zi tarjimonlar realiyalarga mos ekvivalent topib tarjima qilishga urinadilar va bu tarjimashunoslar e’tiroziga sabab bo‘ladi. Sababi, bir xalqqa xos realiyalarga tarjima tilida to‘liq mos keluvchi so‘zlar bo‘lishi kamdan kam uchraydigan holat hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday holatlarda tarjimon transliteratsiya va transkripsiya usulidan foydalangani ma’qul. Buni quyida keltirilgan misolda ham ko‘rishimiz mumkin.

Asliyat:

*“Qizu xotin borayotir,
Yo‘lda baqan solayik, deb,
To‘ppi, ro‘mol olayik, deb.
Shunday bo‘lib odam ketdi,”⁷⁷*

Tarjima:

*“Girls and women came tracing.
Let’s block the road with rope, said she,
Let’s get duppi and rumol, said she,
Thus, people had gone by crowds,”⁷⁸*

⁷⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2020. – Б. 298.

⁷⁶ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 148.

⁷⁷ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик дostonи // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 188.

⁷⁸ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 75.

Bu ikkita misolda ham realiyalar transliteratsiya usulida tarjimaga o'tkazilgan va izoh berib tarjima qilingan. Dostonning bu parchalarida keltirilgan "duppi", realiyasi havolaga olinib, "a head wear, scull cap", "ro'mol" realiyasi esa "a fabric head wear for women" tarzida izoh berib o'tilgan. Bu o'rinda tarjima muqobili sifatida inglizabon davlatlarda "do'ppi", "ro'mol" realiyalariga qisman ekvivalent bo'la oladigan so'zlardan birining ishlatilishi (masalan: pope, scullcap, snood) asar o'quvchisida tushunmovchilik keltirib chiqargan bo'lar edi. Tarjima jarayonida uchragan muammoning bu tarzda izoh keltirib tarjima qilinishi retseptorga dostonning badiiy-semantik xususiyatlarini yanada to'liqroq ochib beradi.

Mutarjimlar xalq og'zaki ijodi namunalarining she'riy qismining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratib, madaniy jihatdan retseptorga moslashishi ustida ish olib boradilar. Madaniy va tarixiy kontekstni tarjima tiliga o'tkazishda ekvivalentlarni to'g'ri tanlash tamoyillari, matnning til xususiyatlari, asliyat poetikasi va uslubining turli jihatlarini aks ettirish tarjimonlar oldiga alohida talablar qo'yadi. Milliy-madaniy komponentlarni o'girishda ekvivalent tarzda yetkazish asliyatning umumiy kommunikativ-pragmatik ta'sirini hamda uning o'ziga xosligini tarjima tilida qayta tiklash muhim va ustivor vazifadir. Bu borada A.Cherkasskiy shunday fikr bildiradi: "Maqollarni boshqa tillarga tarjima qilish usullari unchalik ko'p emas. Tarjimada asosiy vazifa – bu iboralarning ma'no va obrazlilikini yetkazish, ularning stilistik va emotsional tomonini shakllantirishdir."⁷⁹

Biz o'z ilmiy ishimizda tarjimani tarjimonning til transformatsiyasi faoliyatining yakuniy mahsuloti, natijasi, ya'ni tarjimaning lingvistik mahsuli bilan shug'ullanuvchi fan deb hisoblaymiz. Bunda tarjimon bir tilning (asliyat tilining) ma'nosi, mazmun-mohiyatini boshqa tilga (tarjima tiliga) asliyat mazmuni va shaklini saqlab qolishga harakat qilib o'zgartiradi. Shu nuqtayi nazardan, tarjimani asosan, tilning sintaktik qatlami doirasida amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Chunki barcha lingvistik birliklar, jumladan, fonema, morfema, leksema, sintaksema, so'z va iboralar gap tarkibida o'z funksional vazifalarini

⁷⁹ Черкасский А.Е. Русская литература на Востоке (теория и практика перевода). – М., 1987.

amalga oshiradi, ya'ni ularning barchasi sintaktik-semantik elementar va konstruktiv birliklar sifatida tarjima tilining funksional elementlariga aylanadi. Gap asosan eng kichik sintaktik-semantik birliklarni ifodalovchi barcha lisoniy birliklar sintaksemalar va konstruktiv sintaktik birlik sifatida biz o'rganadigan epik doston matnida faollashadi. A.Muxin "tarjima uchun, o'z navbatida, sintaktik-semantik variantlar (sintaksemalar) tizimini o'rganish, ayniqsa, sintaksema variantlarining sistemasini bir-birini o'rnida ishlatishdan iborat lingvistik eksperiment (tajriba) asosida o'rganish katta ahamiyatga ega"⁸⁰, deb takidlaydi. Bu sintaksemalar tarjima birligining variantlari sifatida qo'llanishi mumkin. Mazkur tarjima birligi variantlarining asliyatdagi til birliklariga muqobilligining to'liq mos, qisman mos yoki mos kelmasligini aniqlash va isbotlash uchun asliyatdagi sintaksemalarning semantik belgilari tarjimada o'z aksini topishi darajasi bilan belgilanadi.

Lingvistik birliklar nazariyasiga muvofiq sintaksemalarning semantik belgilari kategorial (umumiy) va nokategorial (xususiy) belgilarga bo'linadi. Kategoriyali belgilar uchta paradigmadan iborat. Bular: substantsional (obyekt va subyektni bildiruvchi nominal), prosessual (harakatni, jarayonni), kvalifikativ (xarakterni, xususiyatni, sifatni) sintaktik-semantik unsurlarni ifodalab keladi. Nokategorial sintaktik-semantik belgilarga agent, harakat, stativ, modallik, inkor, vosita, sabab, finallik (maqsad), lokativ (o'rin-joy), temporallik (payt) va boshqalar kiradi. Bu sintaktik-semantik unsurlar substantsiya, hodisa, jarayon, harakat kabi ekstralingvistik belgi va hodisani anglatgani uchun tarjima nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Yuqorida keltirilgan sintaktik-semantik unsurlarning asliyat va tarjima tillarida bir-biriga to'liq yoki qisman mos kelishi tarjimaning to'liq yoki qisman adekvatligini aniqlashga xizmat qiladigan mezon hisoblanadi.

Tarjima birliklari sifatida sintaksemalar bir-biridan o'zining formal distributiv xususiyatlari, ya'ni, pozitsion imkoniyatlari, post-pozitsiya, prepositsiya, interpozitsiyada ishlatilishi, leksik qurshovi hamda leksik bazasi bilan bir-biridan farqlanadi. Bu haqiqatan ham sintaksemalar kabi tarjima birliklarini ekvivalentlik

⁸⁰ Мухин А.М. Синтаксемный анализ и проблема уровней языка. – Л.: 1980. – С. 303.

darajasini aniqlashga va isbotlashga nisbatan kompleks yondashuv hisoblanadi.

“Tarjima birliklarini o‘rganishda uchta yo‘nalish mavjud:

- birinchi yo‘nalish – shakldan (ifoda vositalaridan) ma’noga, sintaktik-semantik algoritmiga asoslanadi;
- ikkinchi yo‘nalish – ma’nodan (sintaktik-semantikadan) lingvistik ifodaning barcha shakllarini (vositalarini) kashf qilishni o‘z ichiga oladi.
- uchinchi yo‘nalish – bu tarjima birliklarining (shakllarning, vositalarining) barcha sintaktik semantik variantlarini o‘rganish uchun sintaktik pozitsiya, gapning egasi, kesimi (predikativ) va boshqa ikkinchi darajali komponentlarining pozitsiyalari tadqiqotning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi”⁸¹.

Tadqiqotimiz obyekti “Alpomish” dostoni asliyat va tarjima tillaridagi variantlarni tadqiq qilishda yuqorida keltirib o‘tilgan shu uch yo‘nalish doirasida olib boriladi.

1-bob bo‘yicha xulosa

1. Folklor insoniyat yaratilib, muloqotga kirishgan ilk davrdan buyon asrlar davomida xalq va millat bilan birga yashab, birga rivojlanib kelgan. Badiiy adabiyot paydo bo‘lishidan avval folklor shakllangan. U har bir xalqning og‘zaki ijodini rivojlanishiga xizmat qilib, o‘zining, hayotiy, turmushbop, xalqchil, g‘oyaviy va tarbiyaviy ahamiyati bilan boshqa janrlardan ajratilib turadi.

2. Folklor janrlari orasida doston janri o‘z tarkibiga boshqa janrlar xususiyatlarini ham singdirgan, murakkab janr bo‘lganligi uchun doston sinkritik janr hisoblanadi. O‘zbek xalq dostonlari *qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romantik* va *kitobiy* kabi besh turga ajratiladi. “Alpomish” dostoni esa qahramonlik dostonlari sikliga mansubdir.

3. Mustaqillik davriga kelib o‘zbek xalq dostonlari tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilindi. Jumladan, dostonda qo‘llanilgan antroponimlarning

⁸¹ Shu manba. – B. 312.

semantik-uslubiy xususiyatlari va ularning lug‘aviy tizimdagi o‘rni (I.Xudoynazarov), stilistik formulalarning fonetik-stilistik, leksik-semantik, morfologik-stilistik, sintaktik-stilistik xususiyatlarini (Sh.Mahmadiyev), xalq dostonlari leksikasining umumlisoniy sistemada o‘rganish, dostonlarning an‘anaviy lingvofolkloristik qonuniyatlari (A.Rahimov), stilistik vositalar, dostonlarning badiiy-estetik va lisoniy-poetik xususiyatlari (G.Jumaniyozova), dostonlarning tarixiy-genetik omillari, ijtimoiy-siyosiy leksemalarining uslubiy, funksional, kommunikativ va konnotativ xususiyatlari, zoonimik va ornitonimik leksik birliklarning funksional-semantik xususiyatlari (I.Umarov), so‘zlarning semantik qurilishidagi o‘zgarishlar, individual neologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari (M.Qurbonova) bo‘yicha maxsus taqdiqotlar olib borildi.

4. XX asrning qator tarjimashunos olimlari tarjima qonuniyatlari, tarjima turlari, tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik nazariyalarini ishlab chiqdilar va tarjimaning uslublarini o‘z tadqiqot ishlari, risola va qo‘llanmalarida keng yoritib berganlar. Shuningdek, tarjima sohasida leksik, frazeologik, grammatik muammolar, tarjima birliklari, stilistik vositalarni tarjima qilishga oid bir qancha muammolarning yechimi borasida keng ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini tarjima qilishda tarjimonlarga mushkullik tug‘diradigan asosan uch omilni sanash mumkin: a) asliyat va tarjima tili o‘rtasidagi farqli jihatlar muammosi; b) xalq og‘zaki ijodi namunalarida stilistik vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq muammolar; d) she‘riy matni tarjima tilida qayta yaratish muammolari.

5. She‘riy matnlarni asliyatdan tarjimaga o‘girishda uchta metod taklif qilinadi: a) epik formula; b) variatsiya; d) satrlar parallelligi. Folklor poetikasida dostonning tipik joylari, variatsiyalar, satrlar parallelligi kabi xususiyatlarini har qanday tilga tarjima qilish uchun tadbiq etiladigan umumiy metodlar mavjud.

6. Ekvivalentlik nazariyasining taraqqiy etishi ikki asosiy tamoyilda amalga oshishi kuzatildi: *Birinchi, formal ekvivalentlik* tamoyili asosan ilmiy matnlarda qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi. Tarjima jarayonida formal ekvivalentlik matn grammatikasi, aniq va doimiy leksik muvofiqlik, kontekst mazmuni

doirasidagi ma'nolarning barqarorligini talab etadi. *Ikkinchisi, dinamik ekvivalentlik* esa asliyat matnining tarjima tilidagi eng yaqin ekvivalentini topishdir. Dinamik ekvivalentlik asliyat va tarjima tilida so'zlashuvchi xalqlar madaniyatiga, tarjima qilinayotgan asar kontekstiga, shuningdek, tarjima tili kitobxoniga mos kelishi talab etiladi.

II BOB. “ALPOMISH” DOSTONIDAGI STILISTIK VOSITALARNING INGLIZ TILIGA TARJIMALARI XUSUSIDA

2.1. “Alpomish” dostonidagi stilistik vositalarning tarjima qilish muammolari

Inson hayotining 70 foizini muloqot faoliyatining turli shakllariga, jumladan, gapirish, tinglash, o'qish va yozish kabilarga sarflaydi. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, inson faoliyatining verbal va noverbal ya'ni, ekstralingvistik shakllari o'rtasidagi munosabatlarining ishlash mexanizmidan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan stilistika fani tarjima sohasida ham til resurslarining sinonimlari hamda badiiy uslub variantlarini tanlab ishlatishda muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilining izohli lug'atida stilistikaga quyidagicha ta'rif beriladi: 1. Tilshunoslikning til va nutq birliklarini o'rnida qo'llashni, tilning tasviriy vositalarini o'rganuvchi bo'limi, 2. Uslubshunoslik, 3. Adabiyot nazariyasini badiiy adabiyot asarlarining til xususiyatlarini o'rganuvchi bo'limi.⁸² Stilistika tilshunoslikning deyarli barcha sohalarini qamrab olganligi sababli bu sohaga qiziqish yanada ortganini ko'rishimiz mumkin.

XX asr boshlarida tilshunos olimlar o'z diqqat-e'tiborlarini tilning adekvat funksiyasini ta'minlash uchun qo'llaniladigan til vositalarining ustuvor imkoniyatiga qaratadilar. Bu jarayonni amalga oshiradigan tilshunoslik fanining sohasi funksional stilistika deyiladi. Funksional stilistika til uslubini o'rganishning

⁸² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2020. – Б. 571.

muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. U maʼlum bir muloqot vaziyatining ehtiyojlariga xizmat qiladigan barcha lisoniy qatlamlari iyerarxiyasining til birliklari va ularning paradigmatic hamda sintagmatik munosabatlari bilan shugʻullanadi. Bunday til birliklarining paradigmatic munosabatlari tilning funksional stilistikasi sifatida talqin qilinadi. Biz oʻz tadqiqotimizda funksional stilistikani mashhur rus stilist olimi I.R.Galperin bergan taʼrif asosida tushunamiz va uni qabul qilamiz. “Funksional stilistika deb muloqotning maʼlum funksiyasini bajarishga va unda maʼlum natijaga erishish maqsadini amalga oshirishni koʻzlab muvofiqlashtirilgan oʻzaro bogʻlangan hamda bir-biri bilan shartli munosabatlarga kirishgan til birliklarining sistemasidir.”⁸³

“Alpomish” dostonida funksional stilistikaning koʻplab jozibali vositalari qoʻllanilgan. Biz dostonida eng koʻp qoʻllanilgan funksional uslub vositalaridan *metafora, oʻxshatish, sinekdoxa, qiyoslash, mubolagʻa* kabi funksional stilistik vositalar ustida taqdiqot olib boramiz. Mazkur badiiy tasvir vositalarining poetik mohiyati va tarjimada ekvivalentlik hamda uygʻunlik darajalarini aniqlashga harakat qilamiz. Bunday koʻrsatkichlarni aniqlab olish uchun biz “Alpomish” dostonida qoʻllanilgan stilistik vositalarning sintaktik-semantik unsurlarining bir-biriga toʻliq yoki qisman mos kelishiga qarab aniqlaymiz.

Folklor namunalari millat va jamiyatning maʼnaviy boyligi hisoblanib, bir-biri bilan uygʻun holda rivojlanadi. Xalq dostonlari, jumladan, “Alpomish” dostoni ham millatimizning turmush tarzi, eʼtiqodi, shonli tarixi haqida soʻzlaydi. Uning taʼsirchanligini oshirish uchun, qolaversa, dostonning badiiylik holatini aniq tasvirlashda turli badiiy tasvir vositalar: oʻxshatish, metafora, sinekdoxa va mubolagʻalardan unumli foydalanilgan. Doston tarjimasida sintaktik-semantik belgilarning asliyat va tarjima tillarida bir-biriga nechogʻlik mos kelishini aniqlashga harakat qilamiz.

Oʻxshatish. Doston matnlarida badiiy tasvir vositalaridan keng qoʻllanilganlaridan biri *oʻxshatish* (inglizcha – simile) hisoblanadi. Professor

⁸³ Galperin I.R. Stylistics. – M., 1981. – P. 253.

Nizomiddin Mahmudovning ta'rificha: "Ikki yoki undan ortiq predmet, tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida o'xshatish inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim konsept, tabiiyki, tilda ham o'z aksini topadi."⁸⁴ Bu fikrni davom ettirsak, o'xshatish bu tasvirlanayotgan shaxs, predmet yoki hodisaning biror xususiyatini yanada yorqinroq tasvirlashdir.

Tilshunos olim D.Fishelov o'xshatishlarning milliy mentalitetga bog'liqligi borasida tadqiqotlar olib borib sakkizta kategoriya asosida semantik tahlillar o'tkazadi.⁸⁵ Bunda obyektidan biri qiyoslangan bo'lib, u "tenor" (tenor) deb nomlanadi. Qiyoslovchi obyekt esa "vehicle" (vosita) deyiladi. "Tenor" bilan "vehicle" o'xshatishning ikki semantik qutbini tashkil qiladi. Bu ikki qutb bir-biri bilan bog'lovchi so'zlar orqali birikadi. D.Stamenkovich zoonimlar bilan beriladigan o'xshatishlarni kognitiv jihatlariga e'tibor berib, ular orqali shaxs xarakteri yaxshiroq ochib berilishini asoslab beradi.⁸⁶

O'zbek tilshunos olimlaridan M.Mukarramov o'xshatishning tarkibi uch qismdan iborat bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.⁸⁷ Uning fikriga ko'ra, o'xshatishlarda 1)o'xshatiluvchi predmet, 2)o'xshayotgan predmet va 3)o'xshashlik belgisi bo'lishi shart. Ulardan biri matnda tushirib qoldirilsa, o'xshatish munosabati ifodalanmay qoladi. Shu fikrga tayangan holda "Alpomish" dostoni va uning tarjimasidagi o'xshatishlardan birini tahlilga tortib ko'ramiz:

(6) Asliyat:

*"Bermasman deydiku omon,
Qalmoq kelar to'gib bosib.
Qaytmas maydonda savashib,*

⁸⁴ Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс.,... док. фил. наук. – Т., 1984. – Б. 259.

⁸⁵ Fishelov D. Simile understanding and semantic categories. // Journal of Literary Semantics. Vol 36. 2007.

⁸⁶ Stamenovic D. Cognitive semantic aspects of animal Similes in English. https://papers.ssrn.com_id=1785661

⁸⁷ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатишлар. – Тошкент: Фан нашриёти, 1976. – Б. 6.

Mard yigit daryoday toshib”⁸⁸.

Tarjima:

*“Saying no peace I would give,
Kalmyks were coming offensive.
Would not retreat from the field there,
The brave guy flooded like a river.”*⁸⁹

Asliyat va tarjimadan keltirilgan parchada “*mard yigit daryoday toshib*” va “*the brave guy flooded like a river*” misralari o‘xshatishga misol bo‘la oladi. Chunki, M.Mukarramov fikri bu yerda o‘z isbotini topgan deyish mumkin. “Yigit” (guy) – o‘xshatiluvchi predmet, “daryoday” (like a river) – o‘xshayotgan obyekt, toshmoq (to flood) esa ular o‘rtasidagi o‘xshashlik belgisi. Umumiy jihatdan olib qaralganda inson va daryo o‘rtasida biror o‘xshashlik bo‘lmasligi mumkin, ammo daryoning toshishi va inson shijoatini bir-biriga o‘xshatish bu yerda obrazli ifodalangan.

Jahon tarjimashunosligida o‘xshatish, uning vositalari, sintaktik-semantik xususiyatlari va ularning muammolariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ulardan M.I.Faget, T.J.Gambell, R.Hussayn, Y.Fenin, Y.Korshunova, A.Dolgova, T.Smaranda, A.Stefanovichlarni alohida ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq⁹⁰. Ingliz tilshunos olimi E.Sommer esa ingliz tilidagi o‘xshatishlarni jamlab “Similes dictionary” nomli lingvistik lug‘at nashr ettirgan⁹¹.

⁸⁸ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 290.

⁸⁹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 113.

⁹⁰ Faget.M.I. Similes in the works of Chaucer: Their origins and stylistic functions. – Ottawa, 1964. – 286 p; Gambell T.J. Simile and Metaphor Production in Children’s Oral language. – Alberta. 1976. – 153 p; Hussein R.F. A Corpus-based study of Similes in British and American English. AWEJ. 2016, №2. – P. 49-60; Фенин Ю. Устойчивые сравнения характеризующие лицо человека в русской картина мира. Дисс ...канд. филол. наук – Санкт-Петербург, 2016. – 255 с; Коршунова Е.С. Способы художественного перевода сравнений (на примере Э.Хемменуэя “Старик и море”) Филологические науки. // Вопросы и практики. – 2018. - № 5(83). – С. 124-127; Долгова А.Н. Грамматическая и лексико-семантическая структура устойчивых сравнений как класса фразеологических оборотов: (на материале русского, английского и немецкого языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Минск, 2007. – 21 с; Smaranda T. Generating Similes Effortlessly like a Pro: A Style Transfer Approach for Simile Generation. – Moution de Gruyter, Berlin. 2020. – 185 p. Stefanowitsch A. Corpus-Based Approaches to Metaphor and Metonymy. – Berlin, 2006. – 325 p.

⁹¹ Sommer E. Similes dictionary. – Detroit: Visible Ink Press, 2013. – 625 p.

Ingliz tilshunos olimi A.Gargani o'xshatishlarni pragmatik jihatlarini o'rganib, metafora va o'xshatishlarni bir-biridan farqlashga doir tadqiqotlar olib borgan⁹².

O'xshatishlarga oid ilmiy tadqiqot ishlari o'zbekistonlik filolog olimlar tomonidan ham muvaffaqiyatli olib borilgan. Jumladan, N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalar o'xshatishlar ustida chuqur lingvistik tahlillar olib borganlar va "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" nomli lug'at tuzganlar⁹³. M.Mukarramov esa nutqda qo'llaniladigan o'xshatishlarni tasniflab, ularning yasalishida ishtirok etuvchi komponentlarni aniqlagan⁹⁴. Ayniqsa, S.Aliyev, N.Mirzayeva, A.Hojimuhammedov, G.Qobiljonovalar o'z ilmiy tadqiqotlarida nazmda o'xshatishlarni o'rganar ekanlar, ular metafora va o'xshatishning farqli jihatlariga alohida to'xtalib o'tganlar.⁹⁵

Bizga ma'lumki, "Alpomish" dostoni xalq og'zaki ijodi namunasi. Doston ming yillar davomida og'izdan og'izga o'tgan holda shakllanib, rivojlanib borgan. Shuning uchun ham dostondagi o'xshatishlar o'zbek xalqining tasavvuri, madaniyati, turmush tarzidan kelib chiqib qo'llanilgan. Masalan, dostonda Alpomishning yori Barchining go'zalligi, husni-jamoli ko'p o'rinlarda oyga qiyos qilinadi. "Oy" etaloni bizning xalqimizda go'zallik eng yuqori cho'qqisi sifatida e'tirof etiladi. Inglizabon millatlarda ham ayolning go'zalligi oyga tenglashtirilib tasvirlanganini ko'p uchramiz. "Alpomish" dostoni tarjimasida ham o'xshatish bir xil shaklda, ya'ni "oy" etaloni bilan tarjima qilinganligi xorijiy o'quvchilarda ham bir xil tasavvur qoldirishida muammo tug'dirmasligini ko'rish mumkin:

(7) Asliyat:

"Yaqin keldi birday bo'lib,

Bu yurtga ovoza to'lib,

⁹² Gargani A. Poetic comparisons how similes are understood. Diss...PhD. Schools of Arts and media University of Salford. – UK, Salford. 2014. – 82 p.

⁹³ Махмудов Н, Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 318 б.

⁹⁴ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатишлар. – Тошкент: Фан, 1976. – 185 б.

⁹⁵ Алиев С. Мумтоз адабиётда бадиий санъатлар. Тарихий поэтика. – Бухоро: 1994. – 41 б; Мирзаева Н. XX аср шеърятда метафорик образ муаммоси: (Гарсиа Лорка ва Шавкат Раҳмон шеърят мисолида). – Тошкент, 2006. – 124 б; Ҳожимуҳаммедов А. Шеърый санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ нашриёти, 1998. – 160 б; Қобилжонов Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Дисс...конд филол. наук. – Тошкент, 2000. – 132 б.

*Barchin birga oʻyday boʻlib,
Qavatida kanizlari.*”⁹⁶

Tarjima:

*“They came close to us as one, gee.
This land was filled with news soon.
Barchin looked like a full moon.
Encircled by her maidens.”*⁹⁷

Bu yerda Barchinning oʻz kanizlari qurshovida Alpomish bilan birga Qalmoq elidan qaytib kelayotgan holati tasvirlangan. Mazkur parchada uning hammadan ajralib turganligini, naqadar goʻzal ekanligi toʻlin oyga qiyoslanib taʼriflangan. Tarjimaga ham bu oʻxshatish stilistik vositasi toʻliq adekvat tarzda oʻtkazilgan. Qiyoslang: *Barchin birga oʻyday boʻlib – Barchin looked like a full moon.*

Merriam Websterning ingliz tili izohli lugʻatida oʻxshatishga shunday taʼrif beriladi: Oʻxshatish (simile) nutq sanʼati boʻlib u ikkita bir biriga oʻxshamagan predmetlarni qiyoslaydi va u “like” yoki “as” elementlari yordamida ifodalanadi.⁹⁸ Masalan: *Your high-arched brows are like two war-bent bows.* Shu maʼnoda u metaforaga ham yaqinlashadi. Shuning uchun koʻplab tilshunos olimlar oʻxshatish (simile) bilan metaforani bir-biridan ajratishda baʼzi bir qiyinchiliklarni keltirib oʻtishadi. Mazkur lugʻatni mukammalligi shundan iboratki, unda soʻzlarning etimologiyasi va turli janrlarda ishlatilishi ham keltiriladi. Masalan, oʻxshatishning folklor janrda, epik sheʼriyatda asardagi obrazning qahramonlik mavqeini boʻrttirib koʻrsatish uchun kengaytirilgan oʻxshatish (an extended simile) qoʻllanilishi haqida aytib oʻtilgan.

“Alpomish” dostonida qoʻllanilgan oʻxshatishlarni yana bir misolda koʻrib oʻtish orqali tarjimada ham aks etishini chogʻishtirib oʻrganishimiz mumkin:

(8) Asliyat:

“Nomus bilan orin olib,

⁹⁶ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 188.

⁹⁷ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 75.

⁹⁸ Merriam Webster. Dictionary of English Usage.

*Kelayotir sherday bo'lib,
Dushman qolgan yerday bo'lib,
Ishonmasang chiqib qara,*"⁹⁹

Tarjima:

*"Gaining your honor and dignity showed,
Like a lion he is coming, in truth.
The foe was left like a black earth,
If you don't believe, come and see,"*¹⁰⁰

Dostondan keltirilgan parchadan ko'rinib turibdiki, "*Kelayotir sherday bo'lib*", "*Dushman qolgan yerday bo'lib*" misralari tarjimaga "*Like a lion he is coming*", "*The foe was left like a black earth*" tarzida o'tgan, ya'ni o'zbek tilida o'xshatish yasash uchun foydalaniladigan "*-day*" affiksi "*like*" ko'makchisi shaklida tarjima tilida o'z aksini topgan.

O'xshatishlar xalqlarning turmush tarzi, flora va faunasi, madaniyati, geografik joylashuvi kabi turli omillarga bog'liq holda paydo bo'ladi. Dostondagi qahramonlarning xarakteri, tashqi ko'rinishi, kayfiyati ham aynan o'xshatishlar yordamida o'quvchiga yanada tushunarli va ta'sirchan tarzda yetkazilgan. Tilshunoslikda o'xshatishlar ikki turga bo'lib o'rganiladi. Bular quyidagilar:

1. Individual (erkin) o'xshatishlar.
2. Turg'un (doimiy) o'xshatishlar.

Individual (erkin) o'xshatishlar muallif mahoratiga bog'liq bo'lib, uning tasavvuri kengligi bilan izohlanadi. Turg'un (doimiy) o'xshatishlarga keladigan bo'lsak, ma'lum bir xalqning tasavvurida shakllangan barqaror obraz sifatida o'xshatish etaloni qo'llaniladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi¹⁰¹. "Alpomish" dostonida qo'llanilgan o'xshatishlarning barchasi turg'un o'xshatishlarga misol bo'la oladi.

⁹⁹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: "Шарқ" нашриёти, 1998. – Б.187-188.

¹⁰⁰ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: "ART FLEX", 2019. – P. 75.

¹⁰¹ Алиев С. Мумтоз адабиётда бадий санъатлар: Тарихий поэтика. – Бухоро: 1994. – В. 41.

Filologiya fanlari doktori M.Yoqubbekova fikriga ko'ra, "O'xshatishlar inson hayoloti va tassavuriga assotsiativ ta'sir ko'rsatib, tasvir obyektiga nisbatan ma'lum munosabatni shakllantiradi. O'xshatishlarning o'ziga xos murakkab tabiati haqida, tarkibiy, lisoniy va ma'naviy xossalari haqida turli xil nazariy, ilmiy, ommabop tadqiqotlar mavjud. O'xshatishlarni ham adabiyotshunoslikda, ham tilshunoslikda *tasviriy vosita* sifatida maxsus o'rganib kelingan."¹⁰²

O'zbek tilida o'xshatishlar *-day, -dayin, -dek, -dayingina, -cha, -larcha, -chasi, -ona, -omuz, -simon, -namo* kabi suffikslar; *misli, kabi, singari, xuddi, bamisoli, go'yo, misoli, baayni, yanglig'* ko'makchi va yuklamalari yordamida ifodalansa, ingliz tilida esa *like, as, as if, as though, as like, such as, as...as* kabi predlog yoki bog'lovchilar bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, o'zbek tilida "o'xshamoq", "mengzamoq", "bo'lmoq", "barobar bo'lmoq" kabi fe'l so'z turkumiga mansub bo'lgan fe'llar o'xshatishni ifodalashda ishlatilsa, ingliz tilida "to resemble", "to seem", "to recollect", "to remember", "to look", "to appear", "to disguise" mustaqil fe'llari o'xshatish vositasi sifatida qo'llaniladi.

O'xshatishni oddiy (mantiqiy) qiyoslash bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Qiyoslashda qiyoslanayotgan obyektlar bir xil sinfga mansub bo'ladi. Masalan: inson bilan inson, hayvon bilan hayvon qiyoslanadi. O'xshatishda esa semantik jihatdan turli sinfga mansub bo'lgan obyektlar qiyoslanadi.

Metafora. "Alpomish" dostonida qo'llanilgan stilistik vositalardan metafora alohida ajralib turadi. Metafora yunoncha "metaphorien" so'zidan olingan bo'lib, "ko'chirish", "ko'chim" ma'nolarini anglatadi. Nutqqa obrazlilik, emotsiya berish maqsadida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zlar va iboralarning ko'chma ma'noda ishlatilishi metafora deyiladi.¹⁰³ Fikrimizcha, metaforaning yuzaga kelishi uchun ikki predmet yoki voqea-hodisaning ba'zi belgilarining o'xshash jihatlari asosida birining o'rniga ikkinchisining nomini ko'chirilishi va o'xshayotgan predmet yoki voqea-hodisa tushirib qoldirilishi lozim.

¹⁰² Ёкуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 10.

¹⁰³ Шомаксудов А., Расулов И., Кўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: "Ўқитувчи" нашриёти, 1983. – Б. 236.

Shu jihati bilan u o‘xshatish bilan farqlanib turadi. Buni dostonidan keltirilgan parcha va uning tarjimasini misolida asliyat va tarjimaning lingvostilistik jihatlarini ko‘rib chiqishimiz mumkin:

(9) Asliyat:

*“Uchirgan suqsuring Oyko‘l qo‘nibdi,
To‘qson g‘ajir o‘rtaga olib turibdi.
Yosh o‘g‘lonsan, bekor halak bo‘lasan,
G‘ajirlar ilojin qanday qilasan?
Bekor halak bo‘lib bunda kelasan,
G‘ajirlar changida tayin o‘lasan,”¹⁰⁴*

Tarjima:

*“That duck which escaped you, now has flown to us.
On Aykul lake, poor creature, she sits thus,
And ninety hawks above her go wheeling round.
Both day and night Poor creature, she thus is found!
In vain, young falcon, you in haste have flown!
Do you think those hawks will let her be your own?”¹⁰⁵*

Qorajon tilidan yangragan bu parcha yorini qalmoq alplari zulmidan xalos etish maqsadida kelayotgan Alpomishni fikridan qaytarish uchun aytilgan. Asliyatdagi *“To‘qson g‘ajir o‘rtaga olib turibdi”* va tarjimada berilgan *“And ninety hawks above her go wheeling round”* misralarida to‘qson alp nazarda tutilyotganini ko‘rishimiz mumkin. Asliyat matnidagi *“g‘ajir”* va tarjimada berilgan *“hawk”* so‘zlari orqali metaforik ko‘chma ma‘no qo‘llanilgan. To‘qson alpning kuchli va berahm ekanligini Qorajon yirtqich qush g‘ajir misolida obrazli ifodalagan. U tarjimada ham yurtqich qush misolida metaforik ko‘chma ma‘noda qo‘llanilgan. *“G‘ajir”* so‘zi dostonida umumiy to‘rt marta qo‘llanilgan bo‘lsa, uch marta metaforik ma‘no kasb etayotganini ko‘rishimiz mumkin.

¹⁰⁴ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 104.

¹⁰⁵ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 29.

Sinekdoxa. “Alpomish” dostonida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalaridan yana biri – bu sinekdoxa hisoblanadi. Sinekdoxa yunoncha “synecdoche” so‘zidan olingan bo‘lib, “munosabatdoshlik”, “o‘zaro bog‘lanish” ma‘nolarini bildiradi. U metonemiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, butun (katta) narsaning nomini uning qismi (kichik) nomi bilan yoki aksincha atashdan iborat ko‘chim turi.¹⁰⁶ Sinekdoxaning asosan ikki xil ko‘rinishi mavjud:

1. Butun (katta) orqali qismni (kichik) yoki aksincha qism (kichik) orqali butunni (katta) tushunish.
2. Birlik orqali ko‘plikni tushunish.

Sinekdoxaning birinchi turiga quyidagi parchani misol qilib olsak bo‘ladi:

(10) Asliyat:

*“Senday sarson bo‘p yurmasman,
O‘lmasam omon bermasman,
Olmay o‘zbakni qo‘ymasman,
Askarimni qaytarmasman.”¹⁰⁷*

Bu parcha Qorajonning Qalmoq bahodirlarini Alpomish bilan jangga kirmaslik haqidagi ogohlantirishiga javoban Qalmoq alplari nutqidan olingan. “Askarimni qaytarmasman.” misrasidagi “askarimni” so‘zi qo‘shinni tashkil etuvchi askar so‘zi orqali butun boshli qo‘shin nazarda tutilgan. Endi sinekdoxa tarjima tiliga qay tarzda o‘girilganini ko‘rib chiqamiz:

Tarjima:

*“Like you I’ll not wander,
Till I die I’ll not give peace,
I’ll fight till I defeat Uzbeks,
I’ll not call back my troops.”¹⁰⁸*

Asliyatdagi “askarimni” so‘zi tarjima tiliga “my troops” shaklida o‘girilganini ko‘rishimiz mumkin. Sh.Butayevning “English-Uzbek Dictionary” lug‘atida

¹⁰⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Б. 511.

¹⁰⁷ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 180.

¹⁰⁸ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 67.

“troop” so‘zi *qo‘shin, lashkar* deb tarjima qilinadi.¹⁰⁹ Ko‘rinib turibdiki, tarjimon aslyat matnidagi sinekdoxani ko‘chma ma’noda emas o‘z ma’nosida tarjima qilgan.

Sinekdoxaning ikkinchi turiga (birlik orqali ko‘plikni tushunish) “Alpomish” dostonidan quyidagi misolni keltirib o‘tamiz:

(11) Aslyat:

*“Xayolingga boshqa gaplar kelmasin,
Bul so‘zim sha‘ningga nomard bo‘lmasin,
Qasd qilma, bek do‘stim, qalmoq o‘lmasin,
Qalmoq kelar ahvolidan bexabar.”¹¹⁰*

Bu parcha Qorajon do‘sti Xakimbekni Qalmoqlar qo‘shini bilan jangdan oldin yana bir bor jang qilish fikridan qaytarish uchun qilgan urinishidan olingan. “*Qalmoq o‘lmasin*”, “*qalmoq kelar*” birikmalarida ko‘plik shakl o‘rniga birlik shakl qo‘llanilgan. Biroq, tarjimada bu o‘z aksini topmaganini ko‘ramiz:

Tarjima:

*“May other words not come to your mind,
May my words not discredit your might.
No revenge, no death to them, my bek dear mate,
The Kalmyks are coming unaware of their state.”¹¹¹*

Aslyat matnidagi “*Qalmoq kelar*” birikmasi tarjimada “*The Kalmyks are coming*” tarzida ko‘plik shaklida berilgan. “Qalmoq” so‘zi dostonida o‘n ikki o‘rinda birlik shaklida kelib ko‘plik shaklini ifodalab sinekdoxa hosil qilgan bo‘lsa hamki, tarjimada sinekdoxa ko‘rinishida aks ettirilmaganini ko‘ramiz. Fikrimizcha, tarjimon ingliz tili normalariga rioya qilib, xorijiy kitobxonda birlik va ko‘plik yuzasidan ikkilanishlar bo‘lishi mumkinligini hisobga olgan holda sinekdoxaning ma’nosini tarjima tilida aks ettirishni ma’qul deb topgan bo‘lishi mumkin.

Mubolag‘a. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida, xususan, qahramonlik dostonlarida doston qahramonlarining jismonan baquvvat, yengib bo‘lmas bahodir

¹⁰⁹ Butaev Sh. English-Uzbek Dictionary. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2016. – B. 631.

¹¹⁰ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 178.

¹¹¹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 65.

ekanliklarini tasvirlashda mubolag‘a stilistik usulidan keng foydalaniladi. Mubolag‘a maxsus, ataylab bo‘rttirib ko‘rsatish, urg‘u berishni ifodalab keladi. Mubolag‘a ham epitet singari imotsional ma‘noni kuchaytirib, bo‘rttirib aytish asosida qurilgan. Bunda so‘zlovchining tuyg‘ulari va imotsiyalari shunchalik kuchaytiriladiki, natijada so‘zlovchi o‘z nutqida ma‘lum bir obyekt yoki subyektning sifati, soni, kuch-qudratini kuchaytirib, bo‘rttirib ifodalashga intiladi. Bugungi kunda insonning nutq jarayonida mubolag‘a keng tarqalgan ekspressiv stilistik vosita hisoblanadi. Biz ko‘pincha bir narsadan zavqlanganimizni yoki biror narsadan jahlimiz chiqqanligini mubolag‘a vositasida ifodalaymiz. Masalan, “*Ushbu filmni jonim bilan yuz marta ko‘rishni xohlayman.*” Shunga o‘xshash mubolag‘a vositalari muloqotda, tilda ko‘p qo‘llanaverib o‘zining originalligini yo‘qotib so‘zlovchining his-hayajonini oshirib, bo‘rttirib ko‘rsatadigan tayyor qolipli iboralarga aylanib qolgan.

Taniqli o‘zbek tilshunos olimi A.Hojiyev takidlashicha, “mubolag‘a narsa, hodisa, jarayonlarning belgi xususiyatini o‘ta bo‘rttirib tasvirlashdir.”¹¹² Yana bir qator uslubshunos olimlarning fikrlariga ko‘ra, “mubolag‘a, bo‘rttirish, orttirib ko‘rsatish ma‘nolarini bildiradi. Mubolag‘a ham asosan ko‘chma ma‘noga asoslangan. Lekin tropning boshqa turlarida ko‘chma ma‘no asosida qandaydir o‘xshatish yoki boshqa biror predmet va voqea-hodisa tushinilsa, mubolag‘ada haddan tashqari kuchaytirish yoki kichraytirish to‘g‘ri ma‘noda tushunmaslikni talab qiladi. Mubolag‘a usulidan foydalanayotganda u haqiqatga qay darajada mos kelishiga ahamiyat berishi kerak. Aks holda mubolag‘a badiiy bo‘yoq berish o‘rniga o‘quvchida ishonchsizlik o‘yg‘otishi mumkin.”¹¹³ Mubolag‘a turli adabiyotlarda boshqa (litota, ig‘roq, giperbola, g‘ulluv, tablig‘) nomlar bilan talqin etiladi.

“Alpomish” dostoni matnida mubolag‘a stilistik usuli ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Unda mubolag‘a badiiy san‘ati nihoyatda kuchaytirib, oshirib, bo‘rttirib rang-barang obrazlar bilan berilgan. Bu dostonning boshqa dostonlardan farqi ham shundaki,

¹¹² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ўzbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyati, 2002. – B. 30.

¹¹³ Шомақсудов А., Расулов И., Қунғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.; 1983. – Б. 244.

unda ko‘proq mubolag‘a san‘ati qo‘llanilgan. Bu dostonidagi voqealar ko‘lami mifik hodisalar bilan ham bog‘liq. Alpomishning qalmoq alplaridan ustunligini ifodalash uchun ko‘p hollarda mubolag‘a san‘atiga murojaat etiladi. Masalan:

*“Tikilsam quriydi daryoning gumi,
Na’ra tortsam qular qo‘rg‘onning timi,
Buncha so‘zni lof urmagin bema’ni,
Otim Hakim, men ham Boysinning xoni.
Ketgan odam izlab bunda kelami,
Kelgan odam sendan kamroq bo‘lami,
O‘zi o‘lmay, kishi yorin berami,
Hech bir elda senday tentak yurami.
Lof urib o‘zini bozor solami,
Lof bilan qo‘lidan bir gap kelami?!”¹¹⁴*

Keltirilgan parcha Alpomishning u bilan uchashish uchun kelgan kallasi kapaday, tanasi tepaday, butlari selanglab otning ostiga aymashib ketgan Qalmoq alplari va ularning boshlig‘i Ko‘kaldoshga qarata aytgan nutqidan olingan. “Alpomish” dostonida mubolag‘a san‘atidan naqadar mohirona foydalanilganligi “Tikilsam quriydi daryoning gumi,” va “Na’ra tortsam qular qo‘rg‘onning timi,” misralarida yaqqol ko‘rinadi. Hakimbekning o‘z fikrida sobitligi, yori Barchinni qalmoqlar qo‘lidan qutqarish yo‘lida Ko‘kaldosh boshliq to‘qson alp ham to‘siq bo‘la olmasligini mubolag‘a stilistik usuli bilan tasvirlangan.

Dostonda keltirilgan mubolag‘a stilistik usulini tarjima tiliga o‘girilishida tarjimon qay darajada uddalay olganligini quyidagi misollarda ko‘rib chiqamiz:

Asliyat:

*“To‘rangning otini dushman minibdi,
Yig‘lay bergin, qiyomat kun bo‘libdi.
Bek Alpomish o‘z yurtida to‘rami,*

¹¹⁴ Алпомиш: Ўзбек халқ қахрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 124-125.

O'lmasa otini dushman minami?!¹¹⁵

Bu to'rtlikda poygada Alpomishning Boychiborini qalmoqlar bahodiri Qorajon minib kelayotganini ko'rgan Barchinning kanizlaridan biri holatni bo'rttirib *"Yig'lay bergin, qiyomat kun bo'libdi"* misrasida mubolag'a qo'llaganligini ko'rishimiz mumkin. Kanizning *"Alpomishni dushmanlar halok qilgan bo'lmasa nega Boychiborni dushman chavondozi minib keladi"* degan fikrini *"qiyomat kuniga"* qiyoslanishi orqali mubolag'a yuzaga keltirilgan. Bu misralarni tarjimon Q.Mamurov quyidagicha tarjima qiladi:

Tarjima:

"An enemy knight captured and mounted his steed...

Weep, my dear, the fateful day is here...

Or, was Alpomish no Biy – it's not clear!

Or, did he hand over his steed to the foe?"¹¹⁶

Umumiy planda olib qaraganda tarjimon aslyat mohiyatini tarjima tiliga o'tkaza olgan, deya olamiz. Biroq, ingliz tilidagi *"fateful day"* birikmasining o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjimasi *"halokatli kun"* ma'nosini beradi. *"Qiyomat kuni"* birikmasining ingliz tilida yana ham yaqinroq bo'lgan *"doomsday"* shaklida tarjimasi borligini ham aytib o'tish joiz.

Keyingi o'rinlarda *"Alpomish"* dostonida ko'p qo'llanilgan *"ko'z yoshi sel bo'ldi"* mubolag'asining tarjimada berilishini ko'rib chiqamiz. Bu mazmundagi mubolag'alar dostonida bir necha marta qo'llanilgan. Shulardan biridan tahlilimiz uchun foydalanamiz.

(14) Aslyat:

"Oh tortganda ko'zda yoshim selmidi,

Bek do'stim, umidim sendan shulmidi?

Senday bekni bunda tirik ko'raman,

¹¹⁵ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: "Шарқ" нашриёти, 1998. – Б. 115.

¹¹⁶ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: "ART FLEX", 2019. – P. 31.

Ne bet bilan Qo'ng'irot elga boraman?"¹¹⁷

Tarjima:

*“When I sigh woe, my tears will run flooding,
My bek friend, is this from you I'm expecting?
I see the bek like you here alive, my friend,
How shamelessly I go back to Qunghirat land.”¹¹⁸*

Bu misolda “oh tortganda ko‘zda yoshim selmidi” mubolag‘a stilistik usuli tarjima tiliga “when I sigh woe, my tears will run flooding” shaklida o‘tkazilgan. Tarjimon tomonidan “sel” leksemasi tarjimasi uchun “flood” leksemasining tanlanishi bilan ekvivalent tarjima yuzaga kelgan.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, “sel” leksemali mubolag‘alar “Alpomish” dostonida ko‘p o‘rinlarga kelgan. Tarjimon bu mubolag‘alarning tarjimasini qay tarzda amalga oshirganligini quyidagi jadval orqali ko‘rishimiz mumkin:

Asliyat:	Tarjima:	So‘zma-so‘z tarjima:
Oh tortganda ko‘zda yoshim selmidi	When I sigh woe, my tears will run flooding	Oh tortsam ko‘z yoshlarim sel bo‘lib oqar edi.
Sel bo‘ldi qalmoq ko‘z yoshi	Kalmyks’ tears ran flooding	Qalmoqlarning ko‘z yoshlari sel bo‘lib oqdi
Esimga olsam, ko‘zda yoshim sel bo‘lar	When I recall tears from my eyes run flooding	Eslasam ko‘z yoshlarim sel bo‘lib oqar edi.
Oh urganda ko‘zdan oqar selob yosh	When one sighs oh-h tears run flood-like	Oh ursa ko‘z yoshlari seldek oqar edi.
Ko‘zdan to‘kar bunda selob yoshimni	They will make my tears pour like flood	Ular mening ko‘z yoshlarimni sel kabi to‘kadilar

¹¹⁷ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 250.

¹¹⁸ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 106.

To'karman ko'zimdan selob yoshimni	I'll shed my tears from eyes like flood	Ko'z yoshlarimni seldek to'kaman
Oh urganda ko'zda yoshim bo'lar sel	When I sigh oh, my tears run like flood here	Oh ursam ko'z yoshlarim sel kabi oqadi

Jadvalda keltirilgan “*sel*” leksemali mubolag‘alarning tarjimalarini tahlil qilib shunga amin bo‘ldikki, tarjimon har bir mubolag‘aning tarjimasida adekvat tarjimaga erisha olgan. Mubolag‘a mazmun mohiyati to‘liq tarjima tiliga o‘tkazilgan. Tarjima matnida qo‘llanilgan “*flood*” leksemasi “*pour*”, “*run*”, “*shed*” fe‘llari bilan birikib kelishi uning turli uslublarda tasvirlangani va takrorlardan mohirlik bilan voz kechilganligini sezish mumkin. Asliyatda “sel” ot so‘z turkimi bilan ifodalangan bo‘lsa, tarjimada “*sel bo‘lib oqmoq*” ma’nosidagi harakatni aniq ifodalash uchun tarjimon kengaytirish transformatsiyasidan foydalanib fe‘lni Participle 1 shakli bo‘lgan “*flooding*”ni “*pour*”, “*run*”, “*shed*” asosiy fe‘llar bilan birikuvini yaratish bilan asliyatdagi mubolag‘a stilistik vositasining semantik ma’nosini aniq bera olgan.

2.2. Aslyat va tarjimada o‘xshatishlarning sintaktik-semantik tahlili

Tilshunoslik fani *fonologiya, leksikologiya, morfologiya, sintaksis va stilistika* kabi sohalarga ajratib o‘rganilib kelingan. Tilshunoslar lingvistik tadqiqotlar olib borish jarayonida har bir til qatlamidan avvalo tilning konstruktiv birligini ajratib olib, uning tarkibida tilning mazkur qatlamdagi eng kichik (bo‘linmas) birliklarning sistemali bog‘lanishini o‘rganadilar. Masalan, fonologiya sohasi so‘zni fonologik konstruktiv birligi tarkibidagi fonema (nutq tovushlari) asosida o‘rganilsa, morfologiya bo‘limida morfologiyaning konstruktiv tarkibi birligi bo‘lgan so‘zning eng kichik ma’noli birligi sifatida morfemalar o‘rganiladi.

O‘zbek folklori namunalari, jumladan, “Alpomish” qahramonlik dostonini aslyat tili va tarjima tilida tadqiq qilar ekanmiz, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash bizdan lisoniy birliklar asosida chog‘ishtirishni taqozo etadi. “Agar biz tarjimani tilshunoslikning bir tarmog‘i sifatida qaraydigan bo‘lsak, u

holda tarjimaning elementar birligi nima? Bu birlik o'rganiladigan tarjimaning konstruktiv birligi qanday lingvistik birlik bo'lishi mumkin, degan savollar tug'ilishi tabiiy. Hozirgacha tarjima tilshunoslik fani sifatida asliyat tilidan tarjima tiliga transformatsiya qilish, o'girish asosida o'rganilib, bu soha tarjimonlar va tarjimashunos olimlar tomonidan tarjimaning *leksik, morfologik, sintaktik va stilistik* muammolari sifatida tadqiq etib kelishmoqda.”¹¹⁹

Shu bilan birga, tarjimashunos olimlar tarjimashunoslikda so'z, frazeologik komponent, gap va butun matnni tarjima birligi sifatida tan olib, bu birliklar ustida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Darhaqiqat, tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu birliklar bir-biriga teng, ekvivalent birliklar emas. Shuningdek, ushbu birliklar ro'yxati nafaqat til tizimining birliklarini, balki butun xabar matnini, ya'ni tizimli tilshunoslik nuqtayi nazaridan noto'g'ri bo'lgan nutq kategoriyalarini ham o'z ichiga oladi¹²⁰. Ammo, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tarjima jarayoni faqat lisoniy hodisalar bilan chegaralanib qolmay, tarjima matnini ilmiy tavsiflash uchun faqat lingvistik kategoriyalar yetarli emasligi tobora aniq bo'lib bormoqda. Tarjima til tizimlari orqali amalga oshiriladigan nutqiy faoliyat ekanligini hisobga olib, biz tarjima birligini til tizimining elementlari sifatida til birliklari bilan qanday munosabatda bo'lishini aniqlash zarur deb hisoblaymiz. Shu fikrlarga asoslangan holda biz o'z tadqiqot ishimizni “Alpomish” dostoni matnida faollashgan so'z shakllari yoki birikmalarini tarjima birliklari sifatida ularning sintaktik-semantik xususiyatlarini o'rganamiz.

Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan “Alpomish” dostoni matnida uchraydigan sintaksemalarning sintaktik-semantik xususiyatlarini o'rganishda biz mazkur dissertatsiyamizning 1.3 faslida keltirilgan tarjima birliklarini tadqiq qilishning uch asosiy yo'nalishidan birinchisiga asoslanib olib boramiz. Fikrimizni misollar yordamida asoslaydigan bo'lsak, dostonning asliyat tili matnidagi ot va olmosh so'z turkumiga mansub leksemalarga *-day, -dek, -dayin* qo'shimchalarning qo'shilishi

¹¹⁹ Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика. – М.: 1979. – С. 71.

¹²⁰ Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: 1990. – С. 149.

va *kabi*, *misli* yordamchi soʻzlari vositasida tilda faollashuvi oʻxshatish (simile) badiiy tasvir vositasini yuzaga keltiradi.

Asliyat:

*“Yashinday boʻp shu zamonda,
Koʻring u chinorga yetdi,
Bu chinorning bir shoxini
Yoyning oʻqi yulib ketdi.”*¹²¹

Yuqoridagi misolimizda “*yashinday*” sintaksemasi harakatni ifodalovchi “*yetdi*” feʼli oldidan qoʻllanilib substansial kategoriyaga mansub boʻlgan agentivlik sintaktik-semantik unsumni hosil qilgan. Endi ayni parchaning tarjimasini tahlil qilamiz:

Tarjima:

*“Like a lightning at the moment’s sign,
Look, the arrow reached the pine.
This branch of the pine tree,
The bow’s arrow torn off free.”*¹²²

Mazkur misralarning ingliz tilidagi tarjimasida ham asliyat tilidagidek oʻxshatish badiiy tasvir vositasi “*like a lightning*” tarzida kelgan boʻlib, unda ham agentivlik sintaktik-semantikasi oʻz aksini topgan. Ikkala misolda keltirilgan agentivlik sintaksemasining formal-distributiv xususiyati shundan iboratki, ular predikativlik bogʻlanish asosida kesim oʻrnida ishlatilgan aktivlik sintaksemasi (oʻzbek: *yetdi*, ingliz: *reached*) bilan birikib kelish xususiyatiga ega. Bunda agentivlik semantikasini predikatsiyalash va oʻrnini almashtirish eksperimenti orqali isbotlash mumkin. Masalan: *like a lightning – the arrow reached the pine – the lightning reached the pine*. Bunday transformatsiya imkoniyati “*like a lightning*” oʻxshatish birligi tarkibida agentivlik sintaktik-semantikasi mavjudligini asoslaydi.

¹²¹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 369.

¹²² Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 133.

O‘xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalab kelgan agentivlik sintaksemasining leksik bazasini bir xil kategoriyaga mansub bo‘lgan predmet ot so‘z turkumiga mansub leksemalar tashkil qiladi. Masalan, “Alpomish” dostonida foydalanilgan ot so‘z turkumi yordamida yasalgan o‘xshatishlardan: *yashinday - like a lightning*, *sherday – like a lion*, *qushday – like a bird*, *Rustamdayin – like Rustam*, *bo‘taday – like a foal*, *o‘tday – like a fire*, *daryoday – like a river*, *yerday – like a black earth*, *oyday – like a full moon*, *misli aydahor – like a dragon*, *humoyunday – like a humo bird*, *Yusufkabi – like Josef*, shuningdek, *bizday – like us*, *menday – like me*, *senday – like you* kishilik olmoshlari ham o‘xshatish badiiy tasvir vositasining agentivlik semantikasini ifodalashda qo‘llanilgan.

Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, “Alpomish” dostonining ingliz tiliga qilingan tarjimasidan farqli o‘laroq, asliyatda o‘xshatish badiiy tasvir vositasi bir necha variantlarda ifodalangan. Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, asliyat matnida *-day* (*sherday*), *-dayin* (*Rustamdayin*), *-dek* (*daryodek*), *kabi* (*Yusuf kabi*), *misli* (*misli aydahor*) kabi 5 xil variantda (Ot + *-day*, Ot + *-dayin*, Ot + *-dek*, *misli* + Ot, Ot + *kabi*) gapda faollashib qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. Tarjima matnida esa mutarjim bu o‘xshatishlarni yagona variantda qo‘llagan (*like* + N). Fikrimizcha, asliyat tilida o‘xshatishlarni bir nechta ko‘rinishlarda ifodalanishi bir qo‘shimchaning asliyat tili shevalarida turli ko‘rinishlarga ega ekanligi bilan izohlanadi. Bunday variantlilik imkoniyati tarjima tilida mavjud emasligi tufayli tarjimon birgina “*like* + N” tarjima birligidan foydalangan.

“Alpomish” dostonida qo‘llanilgan o‘xshatish badiiy tasvir vositasi tarkibida bir qator sintaktik-semantik unsurlar, jumladan *agentivlik* (*bajaruvchi*), *obyektlik*, *identifikatsiya*, *negativlik*, *kvalitativlik* kabi unsurlar borki, ularning yig‘indisi dostonida qo‘llanilgan o‘xshatish sintaksemasining mazmun mundarijasini tashkil etadi. Asliyatdagi sintaktik-semantik unsurlarning ingliz tilidagi tarjimasida ham to‘liq o‘z aksini topishi, tarjima matni asliyat matniga to‘liq adekvat ekanligini bildiradi. Agar qisman aks etgan bo‘lsa tarjima qisman adekvat hisoblanadi.

Tahlilga tortilgan “Alpomish” dostonining asliyat matnida “*Ot* + *day/dek*” shaklida ifodalangan o‘xshatish badiiy tasvir vositasining tarkibida obyektlik

sintaktik-sematik unsuri mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Bu unsurlarni dostonidan olingan quyidagi misollar bilan tahlil qilamiz:

Asliyat:

*“Shunday qip o‘ldirdi menday sultondi.
Hech kimga kelmaydi mening quvvatim,
Beega bo‘lgandir toju davlatim,
Vayron bo‘ldi mening o‘sgan elatim,”*¹²³

Tarjima:

*“Thus, they killed the sultan like me,
My power could fit nobody, so pity.
My throne and crown were left ownerless,
The land I grew was destructed, powerless.”*¹²⁴

Asliyat:

*“Senday alpni o‘ldirarman,
Qiyomat kunni solarman,
Boring qaytarib olarman.
Seni men odam demasman,”*¹²⁵

Tarjima:

*“I’ll kill the alp like you, brave.
I’ll cause you a doomsday,
I’ll seize whatever you have.
I don’t consider you a man.”*¹²⁶

Dostonidan olingan yuqoridagi misollar tarkibidagi *-day* qo‘shimchasi bilan kelgan *menday*, *senday* kishilik olmoshlari o‘xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalab kelmoqda. Birinchi misoldagi *“menday sultondi”* birikmasida sultonga

¹²³ Алпомиш: Ўзбек халқ қахрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 229.

¹²⁴ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 93.

¹²⁵ Алпомиш: Ўзбек халқ қахрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 180.

¹²⁶ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 67.

o'xshatilsa, ikkinchi misolda “*senday alpni*” birikmasida alpga o'xshatilish kuzatiladi. Demak, “*sulton*”, “*alp*” leksemalari tarkibida qanday sintaktik-semantik unsur mavjud bo'lsa, mazkur unsur “*menday*”, “*senday*” o'xshatish elementlari tarkibida ham mavjud bo'ladi. Misolda keltirilgan “*sultondi*”, “*alpni*” ob'ekt leksemalari “*o'ldirdi*”, “*o'ldirarman*” shaklidagi o'timli fe'l bilan ifodalangan aktiv sintaksema bilan subordinativ (tobe) bog'lanish orqali birikib kelgan bo'lib, o'zida obyektlik sintaktik-semantikasini ifodalab keladi. Shunday ekan, “*senday*”, “*menday*” o'xshatish sintaksemasi tarkibida ushbu semantika mavjudligini isbotlash uchun tahlil qilinayotgan ikki gapni predikatsiyalash hamda passivizatsiyalash transformatsiyasi eksperimentiga tortamiz:

Shunday qip o'ldirdi menday sultondi – shunday qip menday sultanni o'ldirishdi – sulton o'ldirildi – men o'ldirildim.

Senday alpni o'ldirarman - senday alp o'ldirildi – alp o'ldirildi – men o'ldirildim.

Yuqoridagi passivizatsiya va o'rnini almashtirib predikatsiyalash transformatsiyasi eksperimenti orqali “*menday*”, “*senday*” elementlari tarkibida obyektlik sintaktik-semantikasi mavjudligi o'z isbotini topdi. Endi bu misollarning ingliz tiliga qilingan tarjimalarini tahlilga tortamiz.

Tarjima tili matni tarkibidagi “*like me*”, “*like you*” predlogli birikmalari asliyat tili matnidagi “*senday*”, “*menday*” singari o'xshatish badiiy tasvir vositasini o'zida ifodalaydi. Tarjima matnidagi o'xshatish sintaksemasi tarkibida asliyatdagidek obyektlik sintaktik-semantikasi mavjud yoki mavjud emasligini asoslash uchun ularni ham predikatsiyalash va passivizatsiyalash transformatsiyasi eksperimentini o'tkazib ko'ramiz:

Thus, they killed the sultan like me - they killed the sultan - they killed me the sultan was killed by them like me - I was killed by them like the sultan.

I'll kill the alp like you - I'll kill the alp - I'll kill you like the alp - The alp will be killed by me like you - You will be killed by me like the alp.

O'tkazilgan lingvistik eksperimentimiz natijasida asliyat matnidagi o'xshatishlar transformatsiya eksperimentiga tortilganda ham obyektlik sintaktik-

semantikasi o'zgarishsiz saqlanib qoldi. Aynan shu misollar tarjimasida nafaqat o'xshatish badiiy tasvir vositasi, balki obyektlik sintaktik-semantikasi ham saqlanib qolgani ko'rishimiz mumkin. Demak, dostonning asliyat matnida qo'llanilgan "Olmosh + -day" shaklidagi o'xshatish badiiy tasvir vositasi va tarjima matnida qo'llanilgan "like + N" shaklidagi o'xshatishlarning sintaksemlari tarkibidagi ob'ektlik sintaktik-semantikasi bir-biriga to'liq adekvat ekanligini asosladik.

Endi "Alpomish" dostoni asliyat matnidagi o'xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalab kelgan "Ot + day/dek" va "Olmosh + day/dek" obyekt sintaksemlari bilan birga tarjima matnidagi "like + N" va "like + Pr" obyekt sintaksemalarining formal-distributiv xususiyatlarini aniqlashga o'tamiz. Har ikki tildagi misollarda ham ob'ekt sintaksema o'timli fe'l "o'ldirdi – killed" va "o'ldirarman - will kill" bilan subordinativ (tobe) bog'lanish orqali birikib kelgan. Ob'ekt sintaksema bilan ifodalangan mazkur o'xshatishlar o'zbek tilida o'timli fe'ldan oldin, ya'ni prepozitsiyada ishlatilgan bo'lsa, ingliz tilida u prepozitsiya va postpozitsiyada, ya'ni kesimni ifodalagan o'timli fe'ldan keyin ham, oldin ham ishlatiladi. Fikrimizni keyingi misollar orqali mustahkamlashga harakat qilamiz:

Asliyat:

*"Qutulmadim Yusuf kabi zindondan.
Zindonni aylanib parvoz qilasan,
Sog'misan sen yo, shikasta balosan.
Necha so'zni shunqor g'ozdan so'radi,
So'z aytmakka g'ozning tili bo'lmadi."*¹²⁷

Tarjima:

*"Like Josef I was not saved from dungeon,
Round the dungeon you are flying, go on.
Are you healthy or wounded by evil, came back?
Several words he asked from the young duck,*

¹²⁷ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: "Шарқ" нашриёти, 1998. – Б. 233.

To speak the duck had no tongue.”¹²⁸

Yuqoridagi misol o‘xshatishni ifodalab kelgan obyekt sintaksemasi passiv gap tarkibida prepozitsiyada va hatto gapning boshida kelganligini ko‘rsatmoqda. Demak, o‘zbek tilidan farqli o‘laroq, ingliz tilida agar gap majhul (passiv) nisbatda bo‘lsa, obyekt sintaksema gapning egasi pozitsiyasida ham ishlatilishi mumkin. Fikrimizni asoslash uchun keyingi misollarni ham ketirib o‘tmoqchimiz:

Asliyat:

*“Qayt endi, kelgan bema’ni!
Sen eshitgin aytgan tildi,
Qorajon, yo‘lingda turdi,
O‘ldirar senday dushmandi,”*¹²⁹

Tarjima:

*“Go back who came senseless!
Listen, the word, spoken, hey,
Qorajon is standing on your way.
Like a foe you will be slain,”*¹³⁰

Asliyat:

*“Ot jilovin tortib qarab tursang-chi,
Bul so‘zima, qo‘zim, javob bersang-chi,
Bemahal yurishni, beklar, qo‘ysang-chi!
Senday beklar bu elatda to‘radi(r),”*¹³¹

Tarjima:

*“Why don’t you stop, pulling the horse rein?
Answer my word, my babe, reply, not strain.
Taking journey late at night, give up, beks,*

¹²⁸ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 97.

¹²⁹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 179.

¹³⁰ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 66.

¹³¹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 211.

The beks like you are needed as rulers next."¹³²

Berilgan misollar orqali obyekt sintaksema agentiv sintaksemadek to'rt xil pozitsion variantga ega ekanligi, ular bosh leksemaga nisbatan prepozitsiya, postpozitsiya hamda ega va tobe gap bo'lagi o'rnida ishlatilishi aniqlandi.

O'xshatish obyekt sintaksemasining leksik bazasi agentiv sintaksemaning leksik bazasi kabi ot so'z turkumiga mansub leksemalar: *Yusuf - Josef, sel - flood*, va kishilik olmoshlari *sen, senday - you, like you, men, menday - me, like me*, obyekt sintaksema bog'langan aktiv sintaksemani ifodalab kelgan ba'zi o'timli fe'llar: *xafa qilmoq - upset, offend, ko'rmoq - see, gumon solmoq - cause doubt, asramoq - save, so'ymoq - slay, zarur bo'lmoq - need, hadik bermoq - cause suspicion, to'kmoq - pour, haydab kelmoq - bend, bring, ko'rmoq - see, o'ldirmoq - kill* kabi fe'l leksemalar o'xshatish obyekt sintaksemasining leksik qurshovini tashkil qiladi. Demak, o'xshatishni ifodalab kelgan ob'ekt sintaksema agentiv sintaksemadan o'zining tarjima tilida ham aks etgan obyekt sintaktik-semantikasi variantlarining ozligi bilan farqlanadi. Asosan o'zbek tilida "*Ot + day*", ingliz tilida "*like + N*" shakli qo'llanilishi, to'rt xil pozitsiyaviy variantlarga ega ekanligi, leksik bazasi va leksik qurshovini faqat o'timli fe'llar tashkil qilishi bilan ajralib turadi.

"Alpomish" dostoni asliyat matnida "*Ot + day*", tarjima matnida esa "*like + N*" bilan ifodalangan o'xshatish badiiy tasvir vositasining identifikatsiyalovchi sintaktik-semantik xususiyatlari mavjud ekanligi aniqlandi:

Asliyat:

*"Tog' Asqarin chalib tuman,
Egam berdi bunga omon.
Necha dushman bo'lib hayron,
Yodgor sherday bo'lib shul zamon."*¹³³

Tarjima:

"The cloud covered the mount,

¹³² Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: "ART FLEX", 2019. – P. 91.

¹³³ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик дostonи // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: "Шарк" нашриёти, 1998. – Б. 368.

*My god kept him safe and sound.
Many foes were shocked by his win,
Yodgor was like a lion at that time.”¹³⁴*

Keltirilgan misolimizning 4-misrasidagi “*Yodgor sherday bo‘lib shul zamon*” gapida “*sherday bo‘lib*” birikmasi o‘xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalash bilan birgalikda uning tarkibida identifikatsiyalovchi sintaktik-semantik unsur ham mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Chunki, aslyiat matnidagi gapning kesimi o‘rnida “*sherday*” o‘xshatmasi kesimning yordamchi elementi “*bo‘lib*” bilan birikib kelgan. Ya’ni, bu yerda Yodgorning shersifatli ekanligi tasvirlanmoqda. Mazkur identifikatsiyalovchi sintaksema ikki tomonlama predikativ bog‘lanish asosida Yodgorga “*sher*” nisbatini bermoqda. Aynan mana shunday ma’nodan kelib chiqib tarjimon tarjima jarayonida to‘g‘ri yo‘l tutganligi, ya’ni tarjimada o‘xshatishning identifikatsiyalovchi sintaktik-semantikasi “*to be*” fe‘lining o‘tgan zamon shakli “*was*” bilan birikib bir butun sintaktik-semantik birlik sifatida identifikatsiyalovchi sintaksemani ifodalay olganligi aniq ko‘rinib turibdi. Chunki, o‘xshatish identifikatsiyalovchi sintaksema predekativ bog‘lovchining lingvistik elementi bo‘lgan “*was*” orqali ega o‘rnida kelgan “*Yodgor*” sintaksemasi tarkibida identifikatsiyalanish sintaktik-semantikasi mavjudligi fikrimizga dalil bo‘la oladi. Tarjima matnida “*Yodgor was like a lion at that time*” sintaksemasi aslyiat matni tarkibidagi sintaktik-semantik unsurlarni o‘zida to‘liq aks ettirish bilan birga mazkur unsurlarning tarjima tilida ham mavjudligini tasdiqlab kelmoqda. Demak, bu holat tarjimaning aslyiatga nisbatan to‘liq adekvat ekanligini isbotlaydi. Fikrimizni yana bir misol bilan dalillashni maqsadga muvofiq deb topdik.

Aslyiat:

*“Oltin kosa gulgun sharob,
Ichilib maydon ichinda.
Bu maydonda bedov otlar,
Aydahorday katta to‘plar,*

¹³⁴ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 132.

Ishqirar maydon ichinda.”¹³⁵

Tarjima:

*“A gold bowl, red wine,
Is drunk in the field, fine.
The wild horses are in the field,
The big cannons like dragon’s shield
Are roaring in the field.”*¹³⁶

Keltirilgan misolning to‘rtinchi qatorida kelgan “*Aydahorday katta to‘plar*” o‘xshatishining tarjimasini “*The big cannons like dragon’s shield*” tarzida berilgan. Ammo, undan oldingi misolimizdan farqli ravishda “*to be*” fe‘li bu misolimizda tushirib qoldirilgan. Bunga sabab asliyatda ham qo‘llanilmagan “*bo‘lmoq*” fe‘li tarjimada ham o‘z aksini topmagan. Chunki, asliyat va tarjima matnidagi o‘xshatish ishtirokidagi gaplar tasviriy (descriptive) gaplardir. Yuqoridagi ikki misoldan ko‘rinib turibdiki, o‘xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalab kelgan identifikatsiyalovchi sintaksema ikki xil variantga ega bo‘ladi.

1) To‘liq variantda: “*to be + like + N*” (Yodgor was like a lion)

2) To‘liqsiz shakli: “*like+N*” (The big cannons like dragon’s shield).

Ikkinchi misolni “*to be*” fe‘lining tegishli shaklini kiritish yordamida predikatsiyalash eksperimentiga tortish orqali undagi identifikatsiyalovchi sintaktik-semantik unsumni ajratib ko‘rsanish mumkin, masalan: *The big cannons like dragon’s shield – The big cannons were like dragon’s shield.*

Bundan tashqari, o‘xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalab keladigan identifikatsiyalovchi sintaksemalar ingliz tilida “*look*” va “*seem*” fe‘llari bilan birga qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

Asliyat:

*“Misli quralayday bo‘lib,
Kelayotir yo‘lni tortib,*

¹³⁵ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 289.

¹³⁶ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 113.

*Besh yuz norga sepin ortib,
Turmagin munda bexabar.*”¹³⁷

Tarjima:

*“She looked like black birds,
Coming on covering the long road,
Her dowry on camels of five hundred,
Don’t stay here without being aware.”*¹³⁸

Chopag‘onchining Boybo‘riga Alpomish va Barchinoyning kelayotganligi haqida bergan xabaridan olingan parchada “*Misli quralayday bo‘lib*” misrasi tarjima tiliga “*She looked like black birds*” shaklida o‘tkazilgan. Bu o‘xshatish tarjima tiliga ham identifikatsiyalovchi sintaksema sifatida o‘girilganligini ko‘ramiz. Uning predikatsiyalovchi vositasi esa “*look*” fe‘li hisoblanadi. Endi “*seem*” fe‘li yordamida ifodalangan identifikatsiyalovchi sintaksemani ko‘rib o‘tamiz:

Asliyat:

*“Qirmasam nomard bo‘larman.
Bu so‘zni aytib yo‘lga soldi,
Har na qalmoq qochib berdi,
Oz odam ko‘pdayin bo‘ldi.”*¹³⁹

Tarjima:

*“If I don’t slay I’ll be a traitor,
Saying this he led the road,
Each Kalmyk took a flee,
A few people seemed a crowd.”*¹⁴⁰

Tahlilga tortilgan bu misolimiz asliyatidagi “*Oz odam ko‘pdayin bo‘ldi*” misrasi tarjima matniga “*A few people seemed a crowd*” tarzida o‘girilgan. Bunda

¹³⁷ Алпомиш: Ўзбек халқ қахрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 188.

¹³⁸ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 75.

¹³⁹ Алпомиш: Ўзбек халқ қахрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 182.

¹⁴⁰ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 70.

ham tarjima tilidagi o'xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalab kelgan identifikatsiyalovchi sintaksema mavjud ekanligi aniqlandi. “*Seem*” fe’li bu misolda predikatsiyalovchi vosita sifatida qo’llanilgan.

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, o'xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalagan identifikatsiyalovchi sintaksemalarning barcha variantlari sintaktik jihatdan o‘zi bog‘langan gap bo‘lagiga nisbatan postpozitsiyada qo’llanilgan. Yuqorida tahlil qilingan o'xshatish badiiy tasvir vositasi sintaktik–semantik birliklarning leksik bazasi singari identifikatsiyalovchi sintaksemaning ham leksik bazasini afsonaviy mavjudotlar, koinot jismlarini ifodalovchi ot so‘z turkumiga mansub leksemalar tashkil etadi. Masalan, “*dragon*”, “*shield*”, “*lion*”, “*horse*”, “*bow*”, “*moon*”, “*crowd*”...va hokazo.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalab kelgan identifikatsiyalovchi sintaksemalar o‘zining formal-distribyutiv xususiyatiga ega. Eng asosiysi, agentiv va obyekt sintaksemalardan farqli ravishda o'xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalab kelgan identifikatsiyalovchi sintaksemaning asosiy pozitsiyasi kesim hisoblanadi. Identifikatsiyalovchi sintaksema kesim o‘rnida ikki xil (to‘liq va to‘liqsiz) variantlarda kelishi mumkin. Shu bilan birga o'xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalovchi identifikatsiya sintaksemasi “*look*” va “*seem*” fe’llari bilan ifodalangan variantlarga ham ega. Tarjima variantlarining lingvistik modellari esa quyidagilar: “*be + like + N*”, “*like + N*”, “*look + like + N*”, “*seem + like + N*”.

Olib borgan tahlillarimiz ko‘ra “*Alpomish*” dostonida qo’llanilgan o'xshatishlar mazmunida kvalifikativlik kategorial (umumiy) sintaktik-semantikasi ham mavjud ekanligi aniqlandi. Fikrimizni dalillash maqsadida e’tiboringizni quyidagi misolga qaratmoqchimiz:

Asliyat:

*“Xafa qip ammingning ko‘nglin bo‘lasan,
Tarzing ko‘rsam vaqti xushday yurasan,
Yaxshilik so‘z xabarini bilasan,*

Xabar bergin, bolam, nega kulasan?”¹⁴¹

Tarjima:

“Offending your aunt, you feel touched, why?

If I see your face, you seem happy and gay.

You are well aware of good news, then,

Let me know why you laughed, my son.”¹⁴²

Dostondan olingan mazkur parchaning “*Tarzing ko’rsam vaqti xushday yurasan*” misrasida “*vaqti xushday*” birikmasi o’xshatish badiiy tasvir vositasi sifatida kelgan. Unda “*-day*” qo’shimchasi “*xush*” sifat so’z turkumiga mansub so’zga qo’shilgan holda kvalifikativlik sintaktik-semantikasini ifodalab kelgan. Tarjimada keltirilgan “*If I see your face, you seem happy and gay*” misrasida ham o’xshatishning kvalifikativlik sintaktik-semantikasi o’zini yaqqol namoyon qilmoqda. Tarjima variantida o’xshatish sintaktik-semantikasi “*seem*” fe’li bilan ifoda etilgan bo’lib, kvalifikativlik sintaktik-semantikasini ifoda etishda sifat so’z turkumiga mansub “*happy*” va “*gay*” leksemalari bilan birikib kelgan. Ular birgalikda kvalifikativlik sentaksema sifatida gapning kesimi o’rnida faollashmoqda. Q.Mamurov tarjimasida bir emas ikki kvalifikativ sintaksemlar qo’llanilganini ko’rishimiz mumkin. Fikrimizcha, tarjimon bu yerda tarjimaga kreativ yondashib, asliyatdagi “*xushday*” leksemasini ingliz tilida “*happy*” va “*gay*” sifat so’z turkumidagi leksemalarni qo’llab yanada aniqlikka erishgan. Tarjima natijasida o’xshatishning kvalifikativlik semantikasi kuchaytirib ko’rsatilishiga erishilgan. Bunday natijaga tarjimon ikkita kvalifikativ sintaksemani uyushiq kesim o’rnida qo’llash orqali erishgan. Gapning egasi o’rnida kelgan “*you*” sifatlanmishi bilan predikativ bog’lanish orqali birikib gapning asosini tashkil qiladi. Tarjimadan farqli o’laroq asliyatda gapning egasi alohida ifodalanmagan. Chunki, gapning egasi mazkur misrada egalik qo’shimchasi yordamida kesimning o’zida ifodalangan.

¹⁴¹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 372.

¹⁴² Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 134.

Q.Mamurovning kvalifikativ sintaksemlar tarjimasiga doir ijodiy yondashuvini quyida yana bir misol orqali ko‘rishimiz mumkin.

Asliyat:

*“Duo olmay, baring ketib borasan,
Quloq solmay, otga qamchi urasan,
Bul yurishing yomon, qanday bo‘lasan,
Har qaysing sherday chopinib borasan.”*¹⁴³

Tarjima:

*“Not taking lucky prayers, you are all leaving,
Not hearing my words, you keep whipping.
Your journey seems evil, what’ll become of it,
Like lion each of you gallop towards some hit.”*¹⁴⁴

Tahliga tortilgan parchaning *“Bul yurishing yomon, qanday bo‘lasan”*, *“Har qaysing sherday chopinib borasan”* misralarida o‘xshatish badiiy tasvir vositasi qo‘llanilgan. Ular tarjimaga *“Your journey seems evil, what’ll become of it”* va *“Like lion each of you gallop towards some hit”* shaklida o‘tkazilgan. *“Bul yurishing yomon, qanday bo‘lasan”* misrasida esa o‘xshatish butun bir gap bilan ifodalangan bo‘lsa, uning tarjima variantida mazkur o‘xshatish badiiy tasvir vositasi kesim o‘rnida qo‘llangan *“seems evil”* kvalifikativ sintaksemasi bilan berilgan. Bu orqali biz kesim o‘rnida qo‘llanilgan sintaksemaning semantikasi butun bir gapga tegishli ekanini ko‘ramiz. Tarjimonning yondashuviga ko‘ra asliyatdagi butun gap orqali ifodalangan o‘xshatish badiiy tasvir vositasi tarjimada kesim o‘rnida ishlatilgan kvalifikativ sintaksemasi bilan ifodalash maqsadga muvofiq deb topilgan. Bu misolimizni o‘ziga xos yana bir xususiyati shundan iboratki, unda yana bir o‘xshatish badiiy tasvir vositasi agentivlik sintaktik-semantikasi bilan ifodalangan so‘z birikmasi *“like lion”* bilan kelgan. Mazkur birikmada kelgan *“like”* predlogi aynan o‘xshatishning lingvistik vositasi hisoblanadi. Birinchi misradagi

¹⁴³ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 212.

¹⁴⁴ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 91.

o‘xshatishdan farqli o‘laroq ikkinchi misrada kelgan “like lion” o‘xshatishi gapning tobe bo‘lagi o‘rnida kelgan. Bu o‘xshatish sintaksemalarning o‘ziga xos formal-distributiv xususiyatidan darak beradi.

Bundan tashqari o‘xshatish badiiy tasvir vositasining kvalifikativlik sintaktik-semantikasini ifodalashda tarjimon tomonidan “*as ... as*” modeli birikmalar ham qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

Asliyat:

*“Ko‘rganning aqlin oladi,
O‘zi shunday boy bo‘ladi (r),
Husni to‘lgan oy bo‘ladi.
Ko‘p qizlar xizmat qiladi.”¹⁴⁵*

Tarjima:

*“Who sees her she’d enchant some.
He is such a rich’s maiden, noon,
She is as beautiful as a full moon.
Many girls would serve, watch,”¹⁴⁶*

Mazkur misolda o‘xshatish badiiy tasvir vositasi o‘zbek tilida o‘xshatish hosil qiluvchi qo‘shimchalarsiz ifodalangan. “*Husni to‘lgan oy bo‘ladi*” misrasida “-*day /dek*” qo‘shimchasi “*oy*” so‘zidan tushib qolgan. Bu folklor tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ammo, tarjimada bu qo‘shimcha “*as+Adj+as+N*” birikmasi bilan ifoda etilgan bo‘lib, “*She is as beautiful as a full moon*” tarzida tarjima tiliga o‘girilgan. Tarjimada Barchinning husni “*to‘lgan oy*” emas balki “*to‘lgan oydek*” ekanligi asliyatdagidek belgisiz tarzda berilmagan. Tahlilimizni “*as ... as*” modeli bilan ifodalangan o‘xshatish badiiy tasvir vositasiga yana bir misol dalillashga harakat qilamiz:

Asliyat:

“Xatga qarab bunday xafa bo‘lasan,

¹⁴⁵ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 190.

¹⁴⁶ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 77.

*Yig‘lamagin biy otangni ko‘rasan,
Qayta boshdan qadimgiday bo‘lasan,
Sen otangni ko‘rsang, o‘ynab-kulasan,
Qo‘ng‘irotning yurtida davron surasan.”¹⁴⁷*

Tarjima:

*“You look too sad looking at the letter,
Don’t weep, you’ll see your biy father.
You will be as happy as before, rather,
You’ll be merry if you see your father,
In the land of Qunghirat enjoy life further.”¹⁴⁸*

Mazkur misolni lingvistik tahlilga tortganimizda “*Qayta boshdan qadimgiday bo‘lasan*” misrasida o‘xshatish hosil qiluvchi “*–day*” qo‘shimchasi “*qadimgi*” ravish so‘z turkumidagi so‘zga qo‘shilganligini ko‘ramiz. Tarjimon bu misra tarjimasida o‘xshatishning “*like*” modelini qo‘llamasdan “*as ... as*” modelini “*You will be as happy as before, rather*” misrasida qo‘llash orqali asliyat tilidagi implisit (yashirin) kvalifikativlik semantikasini tarjimada eksplisit (yashirin bo‘lmagan) tarzda ochib berganligi bilan ahamiyatlidir.

Misollar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalovchi kvalifikativ sintaksemasining asliyat tilida ham tarjima tilida ham uchta varianti mavjud. Bular asliyatda “*Sifat + day*”, “*Sifat + dek*” va yashirin (implicit) modellari bo‘lsa, tarjima tilida esa eksplisit medellar bo‘lib “*seem + Adj*”, “*as + Adj + as + N*” va “*as + Adj + as + Adv*” lardir.

Kvalifikativlik sintaksemasining gapdagi sintaktik o‘rni kesim hisoblanib, u ega o‘rnida ishlatilgan sintakseмага nisbatan doimo postpozitsiyada qo‘llaniladi. Bu esa uning asosiy formal-distributiv xususiyatini ko‘rsatadi. O‘xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalovchi kvalifikativ sintaksemaning dostonidagi leksik bazasini sifat so‘z turkumiga mansub leksemalar tashkil etadi. Uning leksik bazasi

¹⁴⁷ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 207.

¹⁴⁸ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 86.

chegaralangan bo‘lib, unga “happy”, “beautiful”, “gay”, “evil” leksemalarini kiritishimiz mumkin.

Biz yuqorida o‘xshatish badiiy tasvir vositasiga mansub bo‘lgan substansial va kvalifikativ kategorial sintaktik-semantik unsurlar doirasidagi nokategorial, ya’ni xususiy sintaktik-semantik birliklar va ularning formal-distributiv xususiyatlarini ko‘rib chiqdik.

Endi biz lingvistik tahlil nazariyasi va metodologiyasi doirasidagi o‘xshatish badiiy tasvir vositasining prosessual (jarayon, harakat) sintaktik-semantik xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz. “Alpomish” dostonining asliyat va tarjimasidan tahlilga tortilgan misollar ichida o‘xshatishning fe’l so‘z turkumiga oid leksemalar bilan ifodalangan variantlari oz bo‘lsada mavjudligi aniqlandi. Quyida buni misollar tahlili orqali ko‘rib chiqamiz:

Asliyat:

*“Jonivor zo‘r urib shu zamon tortdi,
Boychiborga pirlar berdi quvvatdi,
Hakimbek u zamon zindondan chiqdi.
Dunyoni ko‘rganday bo‘lib qoladi,
Hakimbek otini tavof qiladi.”¹⁴⁹*

Tarjima:

*“The creature pulled with all his might.
The pirs kept empowering Boychibor, same.
Out of the dungeon Hakimbek came,
He seemed to see a real world outside,
His horse Hakimbek worshipped beside.”¹⁵⁰*

Bu keltirilgan misolimizning “Dunyoni ko‘rganday bo‘lib qoladi” misrasida “-day” o‘xshatish hosil qiluvchi qo‘shimchasi “ko‘rgan” fe’liga qo‘shilgan. Uning mazmuni tarkibida kategorial (umumiy) sintaktik-semantik unsur prosessuallik va

¹⁴⁹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 286.

¹⁵⁰ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 110.

nokategorial (xususiy) sintaktik-semantik unsur aktivlik mavjud. Fikrimizni dalilash uchun esa lingvistik eksperiment turlaridan qo‘shimcha element kiritish va predikatsiyalash transformatsiyasini qo‘llab ko‘ramiz. Uning uchun biz qo‘shimcha element “*nazarida*” leksemasini gap tarkibiga kiritamiz hamda “*ko‘rganday*” leksemasini uchinchi shaxs birlik shakliga o‘tkazamiz:

“Dunyoni ko‘rganday bo‘lib qoladi” – “Hakimbek nazarida dunyoni ko‘radi”.

Bunday eksperiment natijasida grammatik va semantik jihatdan asliyatga yaqin bo‘lgan perifraza gapini shakllantiramiz. Bu olingan perifraza gapimiz orqali biz asliyat gapining mazmun mundarijasida prosesuallik va aktivlik sintaktik-semantikasi mavjudligini asoslay olamiz. Tarjimon ham asliyat tarkibidagi o‘xshashlik, prosesuallik va aktivlik sintaktik-semantik unsurlaridan kelib chiqib tarjima qilganligi tufayli tarjima va asliyat o‘rtasida adekvatlik yuzaga kelgan. Qiyoslaymiz: “*He seemed to see a real world outside*” (so‘zma-so‘z tarjimasi: U tashqarida haqiqiy dunyoni ko‘rganday bo‘ldi.) Tarjimon qo‘shimcha elementlar qo‘shish orqali yaxshi natijaga erishgan. Bu misolning asliyatida mavjud bo‘lgan barcha sintaktik-semantik unsurlar tarjimada ham to‘liq aks etgan. Mazkur misolda o‘xshatish “*seem*” fe’li va “*to see*” fe’lining infinitiv shakli birikuvi bilan ifodalangan. Doston tarjimasida fe’lning boshqa shakllarining ham qo‘llanilgan holatlari ham aniqlandi. Masalan:

Asliyat:

*“Zamoningda sen ham daryoday toshib
Sen qolganday tabgiringdan adashib,
Ko‘p so‘zni so‘ylading aqiling shoshib,
Yaqinlab kelgansan menga yonashib.”¹⁵¹*

Tarjima:

*“In your time you flood like a river’s slot.
You seem to have lost your way?”*

¹⁵¹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ дostonи // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 201.

You talked much, your mind is in way

You have come close, do believe.”¹⁵²

Mazkur misolning “*Zamoningda men ham daryoday toshib*”, “*Sen qolganday tabgiringdan adashib*” misralarida o‘xshatish qo‘llanilgan. Bu misralar tarjimaga “*In your time you flood like a river’s slot*”, “*You seem to have lost your way?*” tarzida o‘tkazilgan. Prosessuallik sintaksemasi esa ikkinchi o‘xshatishda ifodalangan. “*Tabgir*” so‘zi doston o‘quvchisiga tushunarsiz bo‘lishi mumkinligini hisobga olib uning izohini keltirib o‘tishni lozim deb topdik. “Alpomish” dostonining izohli lug‘atida “*tabgir*” so‘ziga ikki xil ta’rif berilgan: 1) Ta’bir, 2) So‘z, gap, mo‘ljal.¹⁵³ Tahlilga olingan misolimiz konteksti “*tabgir*” so‘zining izohli lug‘atdagi ikkinchi ma’nosida kelganligini ko‘rsatadi. Aslyatda ishlatilgan “*adashib*” leksemasi o‘timli fe‘l bo‘lib o‘zi birikib kelgan ob’ekt chiqish kelishigida kelishini talab etadi. Aslyatda o‘timli fe‘lning ob’ekti (*tabgiringdan*) prepozitsiyada kelgan bo‘lsa, tarjima tilida postpozitsiyada (*your way*) kelgan. O‘zbek tilida “*adashib qolganday*” birikmasi ish-harakatning tugallanganligini bildiradi. Shuning uchun tarjimon tomonidan fe‘lning perfekt shakli “*to have lost*”ning qo‘llangani to‘g‘ri bo‘lgan va aslyat semantikasiga mosdir. Mazkur aktiv sintaksema o‘zining formal-distributiv xususiyatiga ko‘ra ega o‘rnida kelgan agentiv sintaksema “*you*” bilan o‘zaro predikativ bog‘lanish asosida faollashib keladi. Bu prosessual aktiv sintaksemasining formal-distributiv xususiyati hisoblanadi. Bundan tashqari o‘xshatishni ifodalagan prosessual aktiv sintaksema fe‘lning gerund shakli bilan ham ifodalanib kelishi mumkin. Masalan:

Aslyat:

“Dod deganman eshitmaydi so‘zini,

Yosh oqizib bunda ikki ko‘zini,

Har kimga sarg‘aytib gulday yuzini,

¹⁵² Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 83.

¹⁵³ Мирзаев Т., Ешонқулов Ж., Селами Ф. “Алпомиш” дostonининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Елмус-Пресс-Медиа” нашриёти, 2007. – Б. 86.

Haydab borar Boysarining o‘zini.”¹⁵⁴

Tarjima:

*“No one listens when he ells.
From his eyes tears were running.
Facing each he seemed repenting.
Boysari was pushed ahead.”¹⁵⁵*

Tahlilga tortilgan bu misolimiz asliyatida “*Har kimga sarg‘aytib gulday yuzini*” va tarjima variantining “*Facing each he seemed repenting*” misralarida prosessual aktiv sintaksemali o‘xshatish qo‘llanilgan. Mazkur misradagi o‘xshatish frazeologik birikma tarzida “*sarg‘aytib gulday yuzini*” deb berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ammo tarjimon bu frazeologik birikmani so‘zma-so‘z tarjima qilmasdan, uning o‘rniga ma‘nosi jihatidan asliyat fraziologizmiga ekvivalent bo‘la oladigan tarjima tilidagi leksemani qo‘llagan va prosessual aktiv sintaksemali o‘xshatishni “*he seemed repenting*” tarzida o‘girgan. Fikrimizcha, “*Sarg‘aytib gulday yuzini*” birikmasi asliyat kontekstida “*uyalmoq*”, “*pushaymon qilmoq*”, “*tavba qilmoq*” ma‘nolarini anglatib kelganligi uchun tarjima tilida ushbu ma‘nolarni anglata oluvchi “*repenting*” leksemasini o‘rinli qo‘llagan holda tarjima adekvatligiga erisha olgan.

Quyidagi ikki misolda esa prosessual aktiv sintaksema asliyat matnida ham, tarjima matnida ham bo‘lishsizlik yuklamasi bilan qo‘llanilib, negativlik sintaktik semantikasini hosil qilgan:

Asliyat:

*“Omon-eson, bolam, seni ko‘ribmiz,
Shu azobni ko‘rmaganday bo‘libmiz.
Xudoyim bergayda barchaga darmon,
Ish bo‘lmas qudratli haqdin befarmon.”¹⁵⁶*

¹⁵⁴ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 194.

¹⁵⁵ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 80.

¹⁵⁶ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 302.

Tarjima:

*“Safe and sound we had seen you, my child,
We seemed not to have suffered this torture.
Our Allah would provide all with fortune,
Nothing would happen without god’s decree.”¹⁵⁷*

Asliyat:

*“Qancha kulfat o‘tib ketgan boshidan,
Ul azobni ko‘rmaganday bo‘ladi.
Alpomish kelibdi, shukur qiladi,
Hammasiga Hakim sabab bo‘ladi.”¹⁵⁸*

Tarjima:

*“So much misfortune they suffered.
They seemed not to have undergone torture,
For Alpomish’s arrival they were grateful, sure.
The cause of all these events was Hakim.”¹⁵⁹*

Bu misollar asliyatining “Shu azobni ko‘rmaganday bo‘libmiz”, “Ul azobni ko‘rmaganday bo‘ladi” misralarida va tarjimaning “We seemed not to have suffered this torture”, “They seemed not to have undergone torture” misralarida o‘xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalaydigan prosessual-negativ aktiv sintaksema qo‘llanilgan. Bu o‘xshatishlarning mazmun mundarijasida prosessuallik, aktivlik, negativlik va tugallanganlik semantik unsurlari mavjudligi aniqlandi. Prosessual-aktiv sintaksemasining gapdagi o‘rni kesim bo‘lib, u o‘zi predikativ bog‘lanish asosida birikib kelgan agentiv sintaksemaga nisbatan doimo postpozitsiyada keladi. Bu mazkur sintaksemaning o‘ziga xos formal-distributiv xususiyatidir. Uning leksik bazasi chegaranlangan bo‘lib, asosan “lose”, “repent”, “undergo”, “suffer” fe’llari tashkil qiladi. Mazkur fe’l so‘z turkumiga oid leksemalar o‘xshatish yuzaga

¹⁵⁷ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 145.

¹⁵⁸ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 392.

¹⁵⁹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 145.

keliradigan “*seem*” fe’li bilan birikib keladi. Demak, o‘xshatish badiiy tasvir vositasi ifodalab kelgan prosessual sintaksema o‘zining uchta variantiga ega ekanligi tahlillarimiz natijasida asoslantirildi.

2.3. “Alpomish” dostoni va uning tarjimasida qiyoslash va mubolag‘alarning sintaktik-semantik tahlili

Asliyat va tarjima matnini tadqiq etish jarayonida biz qiyoslash (comparative) sintaktik-semantik unsurini sifatning qiyosiy daraja shakli va “*than + N*”, va “*than + Pr*” shaklida kelgan holatlarni uchratdik. Mazkur shakllar bilan ifodalangan sintaktik-semantika o‘xshatish sintaktik-semantikasiga yaqin bo‘lsada, u qiyoslash sintaktik-semantikasini ifodalashi bilan farqlanadi. Masalan, quyidagi misolda:

Asliyat:

*“Qarasang, bir damda kelib qoladi,
Bilgin, qalmoq, yurtning vayron bo‘ladi,
Aydahordan cho‘rtta yomon balodi(r),
Harakat qil, kim barobar bo‘ladi.”¹⁶⁰*

Tarjima:

*“If you wait he would come very soon, roared.
Be aware Kalmyk land would be destroyed,
He was a devil much worse than a dragon,
Try who dare to fight against him, go on.”¹⁶¹*

Asliyatdan olingan parchaning “*Aydahordan cho‘rtta yomon balodi(r)*” misrasidagi “*yomon balodir*” birikmasi kvalitatif-komparativ sintaktik-semantikasini ifodalab kelgan. Chunki, uning semantikasida qiyoslash elementlari mavjud. “*Aydahordan*” leksemasi tarkibidagi “*-dan*” qiyoslash qo‘shimchasi bilan kelgan otdan keyin kelgan sifatni qiyosiy daraja shaklida kelishini talab qiladi. Uning kengaytirilgan sintaktik-semantikasi “*ajdarhodan ko‘ra yomonroq balodir*” shaklida ifoda etilsada, xalq dostonlari og‘zaki ijod namunalaridan bo‘lgani uchun

¹⁶⁰ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ дostonи // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 287.

¹⁶¹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 111.

uning to‘liq shakli qisqartirib qo‘llanilishi odatiy hisoblanadi. Bu lingvistik hodisani e‘tibordan chetda qoldirmagan tarjimon ushbu misrani “*He was a devil much worse than a dragon*” tarzida ingliz tiliga tarjima qilgan. Chunki, ingliz tilining grammatik normalari shunday tarjimani talab qiladi. O‘zbek dostonchiligi shevalaridagi “*cho‘rtta yomon*” birikmasining sintaktik-semantikasi tarjima matnida “*much worse*” birikmasi bilan ifodalanishi orqali to‘liq adekvatlikka erishilgan. O‘zbek tilida “*dan*” qo‘shimchasi orqali ifodalangan qiyoslashni ingliz tilida “*than*” bog‘lovchisi bilan ifodalanganligi buning isboti hisoblanadi. Tarjima matnidagi “*much*” elementi bu yerda kuchaytirish ma‘nosini berishi uning formal-distributiv xususiyatini ko‘rsatadi. Ushbu tahlilimizni yanada rivojlantirish maqsadida keyingi misolga e‘tiboringizni qaratamiz:

Asliyat:

*“Qalmoq zo‘r yov, tozagina balodi(r),
Sen yolg‘iz, qo‘lingdan nima keladi,
Ot-yaroq, asbob senda bo‘lmasa,
Er yigit xotindan xarob bo‘ladi.”¹⁶²*

Tarjima:

*“Kalmyks are a strong foe, a severe evil,
You are alone, you can’t do anything civil.
Since your horse and arms you lost,
A bold man is worse than a lass.”¹⁶³*

Bu misolimizda “*Er yigit xotindan xarob bo‘ladi*” misrasi tarjima tiliga “*A bold man is worse than a lass*” tarzida o‘girilgan. Har ikki keltirilgan misollarda ham qiyosiy daraja shaklida keltirilgan kvalitatif-komparativ sintaksema kesim o‘rnida ishlatilganligi uning gapdagi sintaktik pozitsiyasini ko‘rsatadi.

¹⁶² Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 249.

¹⁶³ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 106.

“Alpomish” dostoni va uning tarjimasi misralarida kvalitatif-komparativ sintaksema sifat darajasining murakkab shakli ham qo‘llanilganligi aniqlandi. Buni quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz:

Asliyat:

*“Nechovlari gumon qilib boradi.
Muning o‘zi shunday sag‘ir boladi(r),
O‘g‘li otasidan baland bo‘ladi,
O‘ldirmasak, bu davlatni oladi.”¹⁶⁴*

Tarjima:

*“Many of them went on with suspicion,
He himself is such an orphan child, patient.
The son is more powerful than his father,
He’ll seize the throne if we don’t kill rather.”¹⁶⁵*

Tahlilga tortilgan bu misolimizda asliyatdagi “O‘g‘li otasidan baland bo‘ladi” misrasi tarjimaga “The son is more powerful than his father” shaklida o‘girilgan. Mazkur misolning tarjima variantida kvalitatif-komparativ sintaksema sifat qiyosiy darajasining murakkab shakli bilan ya‘ni, “more powerful” bilan ifodalangan. O‘zi qiyoslayotgan “father” yelementi bilan “than” bog‘lovchisi orqali birikib kelgan. Mazkur misoldagi kvalitatif-komparativ sintaksemaning murakkab varianti bo‘lgan “more powerful” sifatning qiyosiy darajasi “to be” fe‘li bilan birikib gapda kesim o‘rnida faollashib kelmoqda. Bu uning gapdagi sintaktik pozitsiyasini ko‘rsatadi. Shu bilan birga kvalitatif-komparativ sintaksema fe‘l bilan ifodalangan proessual-aktiv sintaksema bilan birikib kelishi mumkin. Buni quyidagi misol orqali tahlil qilib ko‘ramiz:

Asliyat:

*“Bek bo‘lmay o‘lay deb boyqish jiladi,
Bu ishiga ko‘p pushaymon qiladi.”*

¹⁶⁴ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ дostonи // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 368.

¹⁶⁵ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 132.

*O‘ylab tursa mening ko‘nglim boyag‘i,
Qayda qoldi yilqi boqqich tayog‘i?!”¹⁶⁶*

Tarjima:

*“I’d better die than be a bek”, the humble cried
Very much he pitied this affair around.
If thought his soul remained as before, swift
Where was his stick to pasture the herd left?”¹⁶⁷*

Bu keltirilgan misoldagi *“Bek bo‘lmay o‘lay deb boyqish jiladi”* misrasi tarjima tilida *“I’d better die than be a bek”, the humble cried* tarzida aks etgan. Qiyoslash uchun olingan misoldan ko‘rinib turibdiki, asliyatdagi kvalitatif-komparativ sintaksema o‘zbek tilida *“bek bo‘lmay o‘lay”* deb qisqartirilgan shaklda berilgan. Dostonning she‘riy shaklda ekanligi hisobga olsak uning kengaytirilgan semantikasi *“bek bo‘lgandan ko‘ra o‘lsam yaxshi bo‘lmasmidi”* mazmuniga ega ekanligini ko‘ramiz. Tarjimom bu misraning ingliz tiliga tarjimasida *“had better”*, variantinidan foydalangan. Bu bilan dostonning asliyat tilidagi mazmun-ma‘nosini, shaklini va his-hayajon tuyg‘usini tarjima tiliga ko‘chirishga muvaffaq bo‘lgan. Kvalitatif-komparativ sintaksemaning mazkur varianti qiyoslash (komparativlik) mavjudligi uchun ham u qiyoslangan element *“be a bek”* birikmasi bilan *“than”* bog‘lovchisi yordamida birikib kelmoqda. Bu kvalitatif-komparativ sintaksemaning belgilovchi formal-distributiv xususyatini tasdiqlaydi. Mazkur misolda *“had better”* birikmasidan keyin ishlatilgan fe‘l *“to”* yuklamasini olmaydi. Birikma tarkibidagi *“had”* elementi o‘tgan zamon shaklida ishlatilgan bo‘lsada uning ma‘nosi hozirgi yoki kelasi zamonga qaratilgan. M.Suanning fikricha, *“Somebody had better do something”* strukturasi asosidagi gaplarda odatda tavsiya qilingan ish-harakat boshqa ish-harakatga nisbatan yaxshiroq bo‘ladi degan ma‘noni anglatmaydi. Bu shunchaki *“u bu ishni qilishi lozim”* degan ma‘noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda *“had better”* ma‘no-mazmunida qiyoslash g‘oyasi mavjud emas,

¹⁶⁶ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 384.

¹⁶⁷ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 138.

vaholangki unda “better” so‘zi ishlatilgan.¹⁶⁸ Ammo biz tahlilga torgan misolda “had better” birikmasi “than” bilan qo‘llanilgani uchun ham “had better” bilan ifodalangan ish-harakatda qiyoslash yoki bir ish-harakatni boshqasiga nisbatan afzal ko‘rish semantikasi mavjud deb hisoblaymiz. Fikrimizni asoslash uchun yana bir misoldan foydalanamiz.

Asliyat:

*“Baland tog‘ning boshin chalgandir tuman,
Chiqardan chiqmasim zindondan gumon,
Hakimbekni o‘ldi degin, Qorajon,
Qonlar yig‘lab men zindonda qoldimman;”*¹⁶⁹

Tarjima:

*“The cloud might cover the mount peak,
My release is more doubtful than I speak.
Qorajon, tell that Hakimbek died, plunged,
Weeping blood, I remain in the dungeon aged.”*¹⁷⁰

Mazkur misolning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u bosh gapning kesimi o‘rnida ishlatilgan kvalitatif-komparativ sintaksema ergashgan qiyosiy gap “than I speak” bilan bog‘lovchi “than” yordamida bog‘lanib kelmoqda. Demak, kvalitatif-komparativ sintaksema nafaqat sodda gap tarkibida balki, ergashgan qoshma gaplar tarkibida ham qo‘llanilishi mumkin. Bu yerda mazkur misol bilan bog‘liq muhim lingvistik qoidani qayd etish kerakki, agar kvalitatif-komparativ sintaksema gapning kesimi o‘rnida ishlatilsa, u butun bir gapni qiyosiy gapga aylantiradi. Mazkur holatda esa bu qiyosiy ergashgan gap tarkibida faollashib kelayotganini ko‘rsatadi. Kvalitatif-komparativ sintaksema qo‘llanilgan yana bir gapni ko‘rib chiqamiz:

Asliyat:

“Mendan battar sen ham bo‘libsan sarson,

¹⁶⁸ Swan M. Practical English Usage. – Oxford, England: Oxford University Press, 1980. – P. 275.

¹⁶⁹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 251.

¹⁷⁰ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 107.

*Seni ham qo‘ymabdi bu elda dushman,
Eshitib so‘ngra ko‘p qilganman pushaymon,
Seni ko‘rib ketdi yurakdan armon,”¹⁷¹*

Tarjima:

*“You had wandered worse than I had done.
The foes had caused you troubles too,
Hearing I had much pitied you.
Seeing you my pity was gone, said,”¹⁷²*

Mazkur gapda ifodalangan qiyosiy (komparativ) sintaksema bosh gapdagi kesim o‘rnida ishlatilgan aktiv sintaksema bilan birikib u ifodalagan ish-harakatni ergashgan gapdagi *“had done”* bilan ifodalangan ish-harakat bilan, ya’ni prosessual-aktiv sintaksema bilan qiyoslab kelmoqda. Bu qiyoslashning formal-distributiv xususiyati shundan iboratki, mazkur murakkab gapdagi bosh gap ergashgan gap bilan *“than”* qiyoslovchi bog‘lovchisi bilan birikib kelgan. Mazkur tarjima asliyatdagi qiyoslash semantikasini mukammal ravishda ifodalagan. Bu esa uning tarjimaning asliyatga nisbatan to‘liq adekvat ekanligini ko‘rsatadi. Qiyoslang:

“Mendan battar sen ham bo‘libsan sarson” - “You had wandered worse than I had done”

Bunga asliyatning qo‘shma gapga aylantirish transformatsiya eksperimenti tasdiqlaydi. *“Men sarson bo‘lgan edim. Sen mendan ham battar sarson bo‘libsan.”* Tarjima variantida bosh gapdagi implitsit kesim ekplitsit tarzda (*had done*) kengaytirish usulidan foydalanilgan. Tarjima nazariyasi va amaliyotida bunday uslub amplification (kengaytirish) usuli deyiladi¹⁷³.

Tahlillar natijasida shunday xulosa keldikki, qiyoslashni ifodalovchi kvalitatif-komparativ sintaksema to‘rt xil variantda faollashadi. Bular quyidagilar:

1. Oddiy variant: *“to be + Adj + er”*
2. Murakkab variant: *“more + Adj”*

¹⁷¹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 388.

¹⁷² Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 142.

¹⁷³ Йўлдошев У. Таржима назарияси. – Самарқанд: СамДЧТИ институти нашриёти, 2021. – Б.51.

3. “*had better*”

4. “*would rather*”

Birinchi ikki variant ot so‘z turkumiga mansub leksemalar bilan birikib kelsa, keyingi ikkitalik fe‘l so‘z turkumiga oid leksemalar bilan birikib keladi. Shu bilan birga kvalitatif-komparativ sintaksema murakkab ergashgan gap tarkibida ham kelishi mumkin ekanligi tahlillarimizda isbotlandi.

Mazkur kvalitatif-komparativ sintaksemaning leksik bazasini sifat so‘z turkumiga oid barcha so‘zlar tashkil etadi. Ammo “Alpomish” dostonida kam hollarda uchraydi. Shu bilan birga mazkur sintaksema dostonidagi ham sodda ham murakkab gaplar tarkibida uchraydi.

Ayni paytda “Alpomish” dostonida ko‘p o‘rinlarda qo‘llangan mubolag‘a stilistik vositasi uchta kategorial (umumiy) sintaktik-semantikaga ega bo‘lgan sintaksemalar bilan ifodalanishi tadqiqotimiz davomida o‘z isbotini topdi.

1. Substansial (predmet yoki substansiyani bildirib, asosan ot va olmosh so‘z turkumlari bilan ifodalanadi);
2. Prosessual (jarayonni bildiradi va u asosan fe‘l so‘z turkumi bilan ifodalanadi);
3. Kvalifikativ (xarakteristika, belgini bildirib, asosan sifat, ravish va son so‘z turkumlari bilan ifodalanadi).

Avvalo biz substansial sintaksemalar bilan ifodalangan mubolag‘a stilistik vositasining sintaktik-semantik tahlilini olib boramiz. Dostonda Murodtepa yonida Alpomish va Qorajonning ilk uchrashuvi chog‘ida Alpomish o‘zini tanitib aytgan so‘zlaridan bir parchani tahlilga tortamiz:

Asliyat:

*“Ko‘kqamish ko‘lidan suqsur uchirdim,
Suqsurni izlagan lochin bo‘laman,
Bog‘larim zumratdan, changalim po‘lat,
Boysindan quyulgan shunqor bo‘laman.”¹⁷⁴*

Tarjima:

¹⁷⁴ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 103.

*“From Kokkamish Lake a wild duck once I missed -
I am a hawk, which now seeks its own duck.
With emeralds all around my belt is stuck.
Forged steel my suit, like iron my fist will strike.”¹⁷⁵*

Mazkur misolimizda bog‘ni “zumrad” deb atash, changalini eng qattiq va mustahkam metall bo‘lgan “po‘lat” bilan qiyoslanishi orqali mubolag‘a stilistik usluli yuzaga keltirilgan. Bu orqali biz “zumrad” va “po‘lat” elementlari substansial kategoriyaga mansub bo‘lgan identifikatsiyalovchi sintaktik-semantik unsurga ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Fikrimizni dalillash uchun esa biz predikatsiyalash transformatsiya eksperimentidan foydalanamiz:

“Bog‘larim zumratdan, changalim po‘lat” - “Bog‘larim zumraddir, changalim po‘latdir”

Q.Mamurov tomonidan amalga oshirilgan ingliz tilidagi bu parcha tarjimasida tarjimon predikatsiyalash va kengaytirish transformatsiyasidan foydalangan. Bizning fikrimizga ko‘ra, bu yerda identifikatsiyalash transformatsiyasini “to be” fe‘lining 3-shaxs birlik shakli yordamida amalga oshirganda edi tarjima asliyatga yana ham yaqin bo‘lar edi. Mazkur parcha tarjimasi bizning nazarimizda quyidagicha ko‘rinish olgan bo‘lar edi:

My garden is emerald, my fist is steel

I’m a hawk flew off from Boysun.

(tarjima o‘zimizniki. I.X)

Biz taklif qilgan bu tarjima variantida asliyatdagi identifikatsiya sintaktik-semantik unsuri tarjimada ham o‘z aksini topadi. Fikrimizcha, parcha tarjimasining biz taklif qilgan varianti asliyatga nisbatan adekvat tarjima hisoblanadi va ayni paytda uning mundarijasidagi sintaktik-semantik unsurlar – substansiallik va identifikatsiyalash semantik unsurlari saqlangan bo‘lar edi va bu tarjimini yanada mukammal bo‘lishini ta‘minlar edi.

¹⁷⁵ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 28.

Yana quyidagi parchalarda ham ot soʻz turkumiga oid leksemalar yordamida mubolagʻa yuzaga keltirilgan boʻlib, substansial sintaktik-semantik kategoriya mansub sintaksemlar bilan ifodalangan.

Asliyat:

*“Munday yoʻlda ellardan,
Necha suvli koʻllardan,
Zogʻ uchmagan choʻllardan,
Ne bir qiya yoʻllardan,
Katta, adir, bellardan,
Bir qamishzor koʻllardan,
Oʻtib ketib boradi.”¹⁷⁶*

Tarjima:

*“Such roads and lands,
Many waterfall lakes try.
No crow flying fields,
Many sliding roads,
Slopes, hills and mounts,
A lake full of reeds,
All they have all passed.”¹⁷⁷*

Birinchi misoldan farqli oʻlaroq tahlilga tortilgan ikkinchi misolimizda substansial sintaktik-semantik kategoriyaga mansub sintaksema bilan birga lokativ sintaksema ham mubolagʻa stilistik usulini ifodalashda ishtirok etgan. Buning oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, misralar ketma-ketligida mubolagʻa stilistik usuli bir-biridan kuchli leksemalarning takror va takror kelishi Alpomishning Boysarini qalmoqlar changalidan qutqarish uchun qanchalar shaxd bilan yoʻl olganligini yanada boʻrttirib koʻrsatishga xizmat qiladi.

¹⁷⁶ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 213.

¹⁷⁷ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 92.

Endi prosessual sintaktik-semantik kategoriya doirasidagi sintaksemalar bilan ifodalangan mubolag‘alarning sintaktik-semantik tahliliga o‘tamiz. Dostonda shunday misralar borki, unda mubolag‘a stilistik vositasi fe‘l so‘z turkumiga oid leksemalar yordamida yuzaga keltirilgan. Bu esa o‘z navbatida prosessual sintaktik-semantikani anglatib keladi. Masalan:

Asliyat:

*“Qaytmay Hakim qilib maydon.
Kesildi dushmanning boshi,
Sel bo‘ldi qalmoq ko‘z yoshi,
Shuldir Hakimbekning ishi.
Qalmoq ko‘pdir, tob berolmas,
Bunga ro‘baro‘ kelolmas,
Qo‘lida bor keskir olmos,
Sermaganda jon qutulmas.”¹⁷⁸*

Tarjima:

*“No retreating Hakim did battling,
Off the foes’ heads went rolling.
Kalmyks’ tears ran flooding,
That was Hakimbek’s battling.
Kalmyks were a lot, no bearing,
Could not come to him not fearing.
In his hand he had a sharp diamond,
When bashed no soul escapes at the moment.”¹⁷⁹*

Tahlil uchun asliyatdan olingan bu misolimizning “*Sel bo‘ldi qalmoq ko‘z yoshi*” va tarjima variantining “*Kalmyks’ tears ran flooding*” misralarida mubolag‘a stilistik usuli qo‘llanilgan. Mazkur misoldagi “*sel bo‘ldi*” birikmasi prosessuallik, jarayon va harakatni ifodalab keladi. Tarjimon asliyatda anglashilgan bu prosessual

¹⁷⁸ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 291.

¹⁷⁹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 114.

sintaksemani “*tears ran flooding*” birikmasini tarjimada qo‘llash bilan asliyatda qo‘llanilgan mubolag‘aning mohiyatini to‘liq ochib bera olgan. Tarjima tilidagi mubolag‘a stilistik vositasi fe’ning *Participle 1* shakli (*flooding, bearing, fearing*) bilan ifodalangan. Shu bilan birga u murakkab kesimning bir qismi bo‘lib gapning egasi “*tears*” leksemasi bilan predikativ bog‘langan va gap egasi o‘rnidagi agentivlik sintaksemasining kesim o‘rnidagi aktiv sintaksema bilan predikativ bog‘lanish asosida faollashganini anglatib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida mubolag‘aning prosessual kategoriya doirasida gapning egasi agentivlik sintaksemasining harakat faoliyatini ko‘rsatadi. Gap egasi bilan predikativ bog‘lanish asosida u o‘zining sintaktik-semantikasini amalga oshirmoqda. Prosessual kategoriya doirasidagi mubolag‘aning leksik manbasini “*to flood*”, “*to crush*”, “*to swallow*”, “*to battle*”, “*to bear*”, “*to fear*”, “*to nash*” singari harakat ma’nosini anglatuvchi fe’llar tashkil qiladi.

Mazkur mubolag‘adagi harakat, prosessuallik, jarayon va aktivlik semantikalariga ega bo‘lgan sintaksemlar o‘zlarining formal-distributiv xususiyatiga ega bo‘lib, u asosan gapning egasi o‘rnida kelgan agentiv sintaksema bilan predikativ bog‘lanishi, postpozitsiyada kelishi, hamda fe’ning *Participle 1* va *Participle 2* shakllarida ifodalanishi bilan boshqalardan farqlanadi. Fikrimizni asoslash uchun “Alpomish” dostoni asliyat va tarjimasidan olingan yana boshqa misollarga murojaat qilamiz:

Asliyat:

*“Biz avloddan davlat qaytgan,
Davlat endi qulga yetgan,
Zarbingdan er bilan yakson,
Yodgor bo‘ldi juda sarson.”¹⁸⁰*

Tarjima:

*“The wealth has left our ancestors, alas!
The wealth was obtained by slaves.*

¹⁸⁰ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ дostonи // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 365.

*With your blow the earth is crushed,
Yodgor has wandered and idled much.”¹⁸¹*

Yuqoridagi misolning oldingilaridan farqli jihati shundan iboratki, tarjima matnida mubolag‘a (hyperbole) fe‘lning majhul nisbatida kelgan va “*to be + Participle 2*” ko‘rinishida ifodalangan. Uning sintaktik-semantikasi aktivlikdan tashqari yo‘naltirilganlik ma‘nosini ham anglatadi. Chunki bunda aktiv yo‘naltirilgan sintaksema ega o‘rnida kelgan ob‘ekt sintaksema bilan predikativ bog‘lanish asosida faollashganini ko‘rishimiz mumkin. Demak, mubolag‘ani ifodalovchi sintaksema o‘zining formal-distributiv xususiyatiga ko‘ra ega o‘rnida kelgan ob‘ekt sintaksema bilan predikativ bog‘lanish asosida faollashadi. Prosesual-aktiv sintaksema o‘zi sintaktik bog‘langan ob‘ekt sintaksemaga nisbatan postpozitsiyada ishlatiladi.

Endi kvalifikativlik kategoriyasi doirasida qo‘llanilgan mubolag‘aning sintaktik-semantik tahlillarini ko‘rib chiqamiz.

Asliyat:

*“Oltmish qarich olachadan qalpog‘i,
To‘qson qo‘yning terisidan telpagi,
Shunday qalmoq kelib kirdi maydonga.
To‘rt yuz to‘qson quloch qo‘lda hassasi,
Sarhovuzdan katta edi kosasi,
Shuning bilan o‘n sakkizta nashasi,
To‘qson qarich bo‘zdan bo‘lgan kissasi,
Shunday qalmoq aylanadi maydonda.”¹⁸²*

Tarjima:

*“Of sixty hands long rugs his cap is made,
Of ninety sheep’s skin his fur hat is made,
Such a Kalmyk entered the battlefield, bang,*

¹⁸¹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 129.

¹⁸² Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарк” нашриёти, 1998. – Б. 160.

*His stick is four hundred ninety hands long,
His bowel is bigger than the biggest pool,
All together they make eighteen, all fool.
Of ninety-meter fabric his pocket is made,
Such a Kalmyk is walking in the field, self-made.”¹⁸³*

Ushbu sakkizlikning asliyatida mubolag‘a stilistik usuli har bir misrada qo‘llaniganligini ko‘rishimiz mumkin. Mubolag‘aning har misrada ketma-ket qo‘llanilishi uning darajasini oshirib ko‘rsatilishiga xizmat qilmoqda. Bu borada u folklorning *lof* janriga yaqinlashib borganligini ham aytib o‘tmoqchimiz. Buni asliyat tilida tasvirlangan “*oltmish qarich olachadan qalpog‘i*”, “*to‘qson qo‘yning terisidan telpagi*”, “*to‘rt yuz to‘qson quloch hassasi*”, “*sarhovuzdan katta kosasi*”, “*to‘qson qarich bo‘zdan kissasi*” kabi bir-birini mubolag‘a tarzida kuchaytirib keluvchi birikmalar o‘zida namoyon etib turibdi. Bu misralarda asosan kvantitativlik sintaktik-semantikasini ifodalovchi son so‘z turkumiga oid leksemalardan foydalanilgan. Tarjima tilida ham ular “*of sixty hands*”, “*of ninety sheep’s skin*”, “*four hundred ninety hands long*”, “*bigger than the biggest pool*”, “*of ninety-meter fabric*” singari kvantitativ birikmalar yordamida tarjima qilingan. Tahlilga torilgan misolimizda gapning kesimi uch o‘rinda majhul nisbatda qo‘llanilganini ko‘ramiz. Qolgan besh misrada esa qiyosiy darajali gap konstruksiyasi qo‘llanilgan. Mazkur mubolag‘alarning o‘ziga xos lingvistik xususiyati shundan iboratki, tarjima variantida uch misrada kesim majhul nisbatda qo‘llanilgan kesim o‘rnida faollashgan aktiv sintaksema “*make*” o‘timli fe‘lininig majhul nisbati “*is made*” bilan ifodalangan. Bilamizki, “*make*” fe‘li o‘timli fe‘l hisoblanadi Chunki u o‘zidan keyin bir, hatto ikkita ob‘ekt kelishini talab etadi. Bu lingvistik normani e‘tiborga olgan tarjimon ikkita vositali va vositasiz ob‘ektni tarjima tilida aks ettirgan.

Tadqiqot ishimizda funksional sintaktik-semantik elementlar, sintaktik-semantik tarjima birliklari tarjima variantlari sifatida o‘zini realizatsiya qila olishi o‘z isbotini topdi. Tarjima birliklari ham sintaksemalar singari tashqi olam bilan

¹⁸³ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 11.

bog‘liq mazmun ifodalovchi sintaktik-semantik unsurlar majmuasidan iborat bo‘lib, ular formal-distributiv xususiyatlarga, jumladan, pozitsion imkoniyatlar; postpozitsiya, prepositsiya, interpozitsiya hamda leksik qurshov va leksik bazalari bilan bir biridan farq qiladi. Ularning lingvistik xususiyatlari til birliklarining asliyat va tarjima tilidagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlarida namayon bo‘ladi. Yuqorida tahlil qilinganidek, sintaksemalarni tarjima birliklari sifatida o‘rganish uchta yo‘nalishda olib borildi (1.3 faslga qarang). Tarjima birliklarini o‘rganishda uchta yo‘nalish masalalari ustida tadqiqot olib boruvchilar (magistratura va PhD izlanuvchilari) uchun bu ilmiy tadqiqot metodi samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Chunki tarjima birliklarining sintaktik-semantik tahlil nazariyasi va metodologiyasi lingvistik tarjimashunoslikning yangi ilmiy sohasi bo‘lib, u tarjima nazariyasi va amaliyotida o‘ziga xos yangi yo‘nalishni tashkil qiladi.

2-bob bo‘yicha xulosa

1. “Alpomish” dostonida hissiy ta’sirchanlikni oshirish va voqelikni badiiy tasvirlashda o‘xshatish, metafora, sinekdoxa va mubolag‘alar kabi stilistik vositalardan unumli foydalanilgan. Mazkur badiiy tasvir vositalarining poetik mohiyati va ular tarjimasida ekvivalentlik hamda uyg‘unlik darajalarini tekshirildi. Ularning sintaktik-semantik jihatlari bir-biriga to‘liq yoki qisman mos kelishi aniqlandi.

2. Stilistik birliklarning tarjimalari adekvatlik va ekvivalentlik mezonlari asosida tekshirilganda shu narsa tarjimon har bir mubolag‘aning tarjimasida adekvat tarjimaga erisha olganligi aniqlandi. Badiiy tasvir vositalarining mazmun mohiyati to‘liq holatda tarjima tiliga o‘tkazilgan.

3. “Alpomish” dostonida qo‘llanilgan o‘xshatish badiiy tasvir vositasi tarkibida qator sintaktik-semantik unsurlar uchradi. Bular *agentivlik*, *obyektivlik*, *identifikatsiya*, *negativlik*, *kvalitativlik* kabi unsurlar bo‘lib, ularning jamlanmasi dostonida qo‘llanilgan o‘xshatish sintaksemasining mazmun mundarijasini tashkil etadi. Asliyatdagi sintaktik-semantik unsurlar ingliz tilidagi tarjimasida ham to‘liq o‘z aksini topgani, tarjima matni asliyat matnida to‘liq adekvat holatni

ta'minlaganligi kuzatildi.

4. Asliyat matnidagi o'xshatishlar transformatsiya lingvistik eksperimentiga tortilganda obyektlik sintaktik-semantikasi o'zgarishsiz saqlanib qolgani aniqlandi. Asl matn va tarjimadadi misollar tahlilga tortilganda nafaqat o'xshatish badiiy tasvir vositasi, balki obyektlik sintaktik-semantikasi ham saqlanib qolgani oydinlashdi. Demak, dostonning asliyat matnida qo'llanilgan "Olmosh + - day" shaklidagi o'xshatish badiiy tasvir vositasi va tarjima matnida qo'llanilgan "like + N" shaklidagi o'xshatishlarning sintaksemalari tarkibidagi obyektlik sintaktik-semantikasi bir-biriga to'liq adekvat ekanligi asoslandi.

5. O'xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalab kelgan identifikatsiyalovchi sintaksema ikki xil variantga ega deb xulosalandi: a) To'liq variantda: "*to be + like + N*" (Yodgor was like a lion); b) To'liqsiz shakli: "*like+N*" (The big cannons like dragon's shield). Misollardan ko'rinib turibdiki, o'xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalagan identifikatsiyalovchi sintaksemalarning barcha variantlari sintaktik jihatdan o'zi bog'langan gap bo'lagiga nisbatan postpozitsiyada qo'llanilgan.

6. Qiyoslashni ifodalovchi kvalitativ-komparativ sintaksema to'rt xil variantda faollashdi. Bular quyidagilar: 1) Oddiy variant: "*to be + Adj + er*"; 2) Murakkab variant: "*more + Adj*"; 3) "*had better*"; 4) "*would rather*". Ayni paytda "Alpomish" dostonining ko'p o'rinlarida qo'llangan mubolag'a stilistik vositasi uchta muhim kategorial (umumiy) sintaktik-semantikaga ega bo'lgan sintaksemalar bilan ifodalanishi o'z isbotini topdi.

a) Substansial (predmet yoki substansiyani bildirib, asosan ot va olmosh so'z turkumlari bilan ifodalanadi);

b) Prosesual (jarayonni bildiradi va u asosan fe'l so'z turkumi bilan ifodalanadi)

d) Kvalifikativ (xarakteristika, belgini bildirib, asosan sifat, ravish va son so'z turkumlari bilan ifodalanadi)

III BOB. “ALPOMISH” DOSTONINING INGLIZ TILIDAGI TARJIMASIDA TARJIMON MAHORATI

3.1 “Alpomish” dostonida frazeologik birliklar tarjimasida tarjimon mahorati

Frazeologizmlar har bir xalqning madaniyati va tasavvurlarini, tafakkur va dunyoqarashini o‘zida aks ettiruvchi qimmatli manba hisoblanadi. Frazeologik birliklar tag ma’nosida millat madaniyati shakllanishi jarayoni namoyon bo‘ladi. Tilshunos olim F.Buslaev fikricha, “Frazeologizmlar o‘ziga xos kichik dunyo bo‘lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o‘z ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodadir. Ular millatning o‘ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir.”¹⁸⁴

Frazeologiya doirasida so‘zlarning turg‘un birlashmalaridan tashqari maqol, matal va hatto aforizmlar ham frazeologiya doirasida o‘rganiladi. Demak, frazeologiya deb so‘zlarning semantik bog‘lanishlarini tushunish mumkin. Frazeologik birlik bo‘lishi uchun so‘zlarning turg‘un birlashmasi obrazida ko‘chma ma’no yotishi shart. Frazeologik birlikdan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan ma’no, uning tarkibidagi so‘z – komponentlarga xos leksik ma’nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi. Iboraning ma’nosi umumlashgan ma’no mahraj ma’no sifatida namoyon bo‘ladi.¹⁸⁵ Bu tushunchalardan kelib chiqib aytish mumkinki, bu yerda so‘z birikmalarida yaxlitlik mavjud bo‘lib ma’lum bir obraz asosida ma’noni ko‘chirish yoki tadbiiq yo‘li bilan semantik transformatsiya jarayonida sodir bo‘ladi. Bunday transformatsiya asosida yaratilgan ko‘chma ma’no frazeologik ma’no deyiladi.

Frazeologik birliklar tarjimasida muammo sifatida ko‘tarilar ekan, bu she’riy shakldagi matn tarjimasida tarjimon uchun ba’zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Bu haqda tarjimashunos olim Q.Musaev shunday deydi: “Tilning leksik birliklariga nisbatan birmuncha murakkab tarkibli lisoniy

¹⁸⁴ Buslaev Ф.И. Русские пословицы и поговорки, собранные и объясненные. Москва, 1954. С-37.

¹⁸⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразиологик луғати. Қомуслар бош тахририяти, Тошкент, 1992. Б-3.

vositlari bo‘lmish frazeologik birliklarni tarjimada adekvat talqin etish tarjima amaliyotining o‘ta murakkab va shu bilan birga, juda mas’uliyatli masalalaridan hisoblanadi”¹⁸⁶. Frazeologik birliklar doston qahramonlarining nutqini oddiy ifodasidan ko‘ra ko‘proq uning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilishi tufayli ham tarjimada ularning aks etishi muhim hisoblanadi. Ammo, frazeologik birliklarning lingvokulturologik, leksik va qurilish jihatlari tarjima jarayonida ba’zi murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Q.Musaev frazeologik birliklar tarjimasiga nisbatan qo‘llaniladigan asosiy to‘rt usulni taklif qiladi. Ular quyidagilar:

1. Ekvivalentlar vositasida tarjima qilish usuli.
2. Muqobil variantlar yordamida tarjima qilish usuli.
3. Kalka usuli.
4. Tasviriy (sharhlash) tarjima usuli.¹⁸⁷

Asliyatdan tarjima tiliga amalga oshirilgan frazeologik birliklar tarjimasining ma’no va uslub jihatidan bir-biriga nechog‘lik uyg‘un ekanligi yoki emasligini ilmiy tahlillar orqali aniqlashtirish mumkin. Frazeologik birliklar ko‘pma’noli ekanligi tufayli kontekstda anglashilgan ma’no asosida tarjima tiliga o‘g‘irish tarjimon mahorati va tarjimaga ijodiy yondashuviga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lib, u kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xato va kamchiliklarni bartaraf eta oladi.

V.Teliya ta’kidashiga ko‘ra, tilning frazeologik tarkibi lingvomadaniy jamoa milliy o‘zligini ko‘radigan ko‘zgu bo‘lib, aynan frazeologizmlar til sohibining dunyoni, hodisalarni o‘ziga xos ko‘rishini namoyon etadi.¹⁸⁸ Shunga ko‘ra frazeologizmlar shaklanishida xalq og‘zaki ijodi namunalari, jumladan dostonlar, afsona va rivoyatlar muhim ahamiyatga ega. Ular orasidan tadqiqotimiz obyektida tanlab olingan “Alpomish” dostoni tarkibida ham frazeologik birliklar keng qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “*ko‘ngli qabarmoq*”, “*aqli shoshmoq*”, “*ko‘ngli buzilmoq*”, “*bag‘ri ezilmoq*”, “*so‘zga quloq solmoq*”, “*sulton suyagini xo‘rlamas*”, “*tili yangi chiqqan*”, “*gap yetaklamoq*”, kabi frazeologik

¹⁸⁶ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. “Fan” nashriyati. Toshkent, 2005. B -183 b.

¹⁸⁷ Shu manba. – B. 185.

¹⁸⁸ В.Н.Телия. Образы средства русского языка. М., 1995.

birliklarni doston matnida ko‘plab uchratamiz. Bu iboralar orasidan “gap yetaklamoq” iborasi ishtirok etgan parchaga e’tiboringizni qaratmoqchimiz.

*“Yurishimiz qirqin qizlar bilmasin,
U qurg‘urlar gap yetaklab yurmasin,
El ichinda malomat so‘z bo‘lmasin,
Bu ishimni ota-enam bilmasin.”¹⁸⁹*

Qalmoq shohining qizi Tovka oyim bek Alpomishni ko‘rish ilinjida ketayotganda Kayqubodga qarata aytgan nutqidan olingan bu parchada bugungi kunda xalq orasida keng tarqalgan “gap tashimoq” yoki “gap ko‘tarib yurmoq” iboralariga ma’no jihatidan teng keladigan “gap yetaklamoq” iborasi keltirilgan. Bu kabi iboralar dostonga qanchalar badiiy ko‘rk bag‘ishlagani to‘g‘risida tilshunos olim Nizommiddin Mahmudov “Til” nomli risolasida quyidagicha fikr bildiradi: “Mazkur iboraning hozirgi tilimizdagi muqobili bo‘lmish “gap ko‘tarib yurmoq” iborasida gapning bevosita harakati yo‘q, u go‘yo oddiy bir narsa, uni faqat ko‘tarib yuradilar, xolos. “Gap yetaklab yurmoq” iborasi shuning uchun o‘tkir va o‘zg‘irki, unda gapning o‘zi bevosita yuradi, faol harakatga qodir, faqat uni chirkin maqsadlarga xizmat qildirish uchun qayoqqa xohlashsa, o‘sha yoqqa yetaklab yuradilar, bechora gap yetovdagi molday iznini no‘xtachiga tamoman tutqazib ketaveradi, no‘xtachining muddaosi esa gapning ma’noyu mantiq muvozanatini butunlay boshqa burchakka burib yuborishdan iborat. “Gap” va “yrtaklamoq” so‘zlaridan tarkib topgan bu ibora ana shunday ma’no nozikliklari, zakiy ishoralar bilan to‘yinib betakror bir ifoda sifatida she’rga, badiiy mazmunga ko‘rk bergan.”¹⁹⁰

“Gap yetaklamoq” iborasining xalqimiz orasida keng tarqalgan “mish-mish” so‘zi ifodasida muqobili ham bor. “Mish-mish” iborasi doston tarkibida “emish-memish” va “emesh-emish” shakllarida uchraydi.

Asliyat:

“Qultoy” ishini ko‘rsatdi,

¹⁸⁹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарк” нашриёти, 1998. – Б. 271.

¹⁹⁰ Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент, Ёзувчи, 1998. Б-30.

*Ovozasi yurtga ketdi.
Emish-memish gap bo‘p yotdi,
“Qultoy” qanday yoyni otdi,
Bir nechalar yo‘q bo‘p ketdi.”¹⁹¹*

Bizning davrimizda iste‘molda bo‘lgan “*mish-mish*” aslida “*emish-emish*” ning qisqargan shakli ekanligi bizga ma’lum. Tarjimada bu qanday aks etganligi tarjima matnida keltirilgan misoldan ko‘rib bilishimiz mumkin.

Tarjima:

*“His deed “Qultoy” demonstrated,
Of it the land to speak they started,
It has been gossiped much, and.
How could “Qultoy” shot the bow,
Many of them have disappeared so.”¹⁹²*

Asliyatdagi “*Emish-memish gap bo‘p yotdi*” misrasi “*It has been gossiped much, and*” tarzida tarjima qilingan. “*Mish-mish*” so‘zi o‘zbekcha-inglizcha lug‘atlarda “*gossip*” so‘zi bilan tarjima qilinishi ko‘rsatilgan. Bu bilan tarjima tog‘ri amalga oshirilgan xulosaga kela olamiz.

Frazeologik birlklar leksemalar singari tilning lug‘ati doirasida o‘rganilib kelingan bo‘lsada, ular o‘zlarini mazmun mohiyatini, butun jozibasini gap tarkibida namayon etadi. Demak, biz ularni gap tarkibida o‘rganar ekanmiz, frazeologik iboralarning elementlari endi funksional sintaktik birliklar, ya’ni sintaksemalar sifatida o‘zlarini realizatsiya qiladi. Masalan, yuqoridagi misolda “*Emish-memish gap bo‘p yotdi*” frazeologik birligi “*mish-mish gap bo‘lib ketdi*” tarzida transformatsiya qilinsa, ma’nosi aniq ochib beriladi. Bunda gap egasi o‘rnida “*emish-memish*” substansional obyekt sintaksemani ifodalasa, tarjimada “*It has been gossiped much*” ham aktiv sintaktik-semantikani protsessual kategoriya doirasida, kesim o‘rnida faollashib keladi. Har ikki qiyoslanayotgan tillarda ham bu

¹⁹¹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 369.

¹⁹² Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 133.

aktiv yo‘naltirilganlik sintaksemasi predikativ bog‘lanish orqali gap tarkibiga kiritilib, ega kesim munosabatlariga kirishgan. Ingliz tili uchun o‘ziga xos shaxsi no‘malum “it” strukturali passiv gap tanlangani tarjimonning ingliz tilining transformatsion imkoniyatlaridan yaxshi xabardor ekanligini va unga kreativ yondashganligini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib tarjima asliyat transformatsiyasi “*mish –mish gap bo‘lib ketdi*” asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bunda passiv konstruksiya qo‘llanilgan: “*It has been gossipred much*”. Mazkur sintaktik-semantik tahlil yana shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklar gapda qo‘llanganda, gapning qonun-qoidalariga amal qilsada, o‘z elementlarinig sitaktik-semantik va formal-distributiv xususiyatlarini saqlab qolsada, uning ko‘chama konnotativ ma‘nosi yo‘qolmaydi, aksincha, bir butun frazema sifatida o‘zining funksional vazifasini va maqsadini saqlab qoladi. Mazkur misraning lingistik modeli quyidagicha ko‘rinishga ega:

Emish-memish gap bo‘p yotdi – SbOb. PrAc.

It has been gossipred much – SbOb.PrAcDr.

Mazkur modeldan ko‘rinib turibdiki, asliyadagi ob‘ektlik va aktivlik (SbOb. PrAc.) sintaktik-semantikasi, tarjimada ham saqlangan (SbOb.PrAcDr). Faqat tarjimada passiv gapdagi yo‘naltirilganlik (Dr.) aktiv sintaksema tarkibiga qo‘shshimcha aniqlik kiritilgan. Bu tarjimaning asliyatga nisbatan adekvat ekanligidan dalolat beradi.

Lingvistik funksional nuqtayi nazardan “Alpomish” dostoni matnida qo‘llanilgan frazeologik birikmalar, ya‘ni iboralarning vazifasi misralarga rang-baranglik, semantik qayta idrok qilish, ichki tuyg‘u va hissiyotlarni, his-hayajon va taasurotlarni obrazli ravishda ixcham ifodalash hisoblanadi. Tadqiqotimizning ushbu faslida frazeologiyaga berilgan yuqoridagi ta‘riflar va tarjima usullari asosida “Alpomish” dostonida qo‘llanilgan iboralarni ingliz tiliga qilingan tarjimalarning qanchalik asliyatga mos, ya‘ni adekvat (to‘liq yoki qisman) ekanligini ko‘rib chiqamiz.

Asliyat:

“Borayotgan shunday qaysar,

*Qavatinda Barchin dilbar,
Gohi kulsa, goh vaqtinda,
Otasini esga olar.
Barchinning ko'ngli buzilar.*"¹⁹³

Asliyatdan olingan bu parchada “*ko'ngli buzilar*” iborasi qo'llanilgan. Mazkur ibora Sh.Rahmatullayevning “O'zbek tilining fraziologik lug'ati” kitobida frazeologik ibora sifatida kiritilgan bo'lib, uning ma'nosi “*mungraymoq*”, “*mungraytirmoq*” so'zlari bilan ochib berilgan. Unga sinonim sifatida “*dili siyoh bo'lmoq*” iborasi keltirilgan.¹⁹⁴ Mazkur frazeologik birlik alohida ega-kesim predikativlik munosabatida faollashib agentivlik semantikasini bildiradi. Ammo, bu ikki so'z birikuvi frazeologik bir ma'noni anglatadi. Endi bu iboraning tarjimada qanday berilganiga e'tibor qaratamiz.

Tarjima:

*“Going is the obstinate to lead.
Among them is the charming Barchin,
From time to time she smiles, fortune.
By and by her father she recalls,
Barchin's soul weeps, she sobs.”*¹⁹⁵

Tarjimadan olingan bu parchadan asliyatdagi “*Barchinning ko'ngli buzilar*” misrasi “*Barchin's soul weeps, she sobs*” tarzida o'g'irilganini ko'rishimiz mumkin. So'zma-so'z tarjimada “*Barchinning ko'ngli yig'laydi*” ma'nosini beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, asliyatdagidek frazeologik birlik ma'nosini beruvchi ibora tarjimada ham aks etgan. Mazkur misraning davomida tarjimon unga “*she sobs*”- “*u xursinib ichdan yig'laydi*” birikmasini qo'shib, tasviriy tarjima usulidan foydalangan holda tarjima qilgan. Bu bilan tarjimon Barchinning otasini esga olganda qanchalik tushkun kayfiyatda bo'lishi holatini xorijiy kitobxonga yanada

¹⁹³ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарк” нашриёти, 1998. – Б. 185.

¹⁹⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразиологик луғати. Қомуслар бош таҳририяти, Тошкент – 1992. Б - 162.

¹⁹⁵ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 72.

tushunarli, aniq yetkazishga harakat qilgan. Mazkur misraning lingistik modeli quyidagicha ko‘rinishga ega:

Barchinning ko‘ngli buzilar – SbPs SbAg. PrAc.

Barchin’s soul weeps, she sobs – SbPs SbAg. PrAc (SbAcPrAc).

Mazkur lingistik modeldan ko‘rinib turibdiki, asliyadagi agentivlik va aktivlik (SbOb. PrAc.) sintaktik-semantikasi, tarjimada ham saqlangan (SbAg.PrAc). Faqat tarjimada predikatsiya aynan bir xil sitaksema tarkibida takrorlanib, tarjimoni kuchaytirib, unga qo‘shimcha aniqlik kiritib keladi. Bu tarjimonning kreativ yondashuvidan dalolat beradi.

Dostonda “*ko‘ngli buzilmoq*” iborasi bir necha o‘rinda kelganligini ko‘ramiz. Quyida xuddi shu ibora qatnashgan boshqa bir parchaning tarjimasini tahlilga tortib ko‘ramiz.

Asliyat:

“Yig‘lama, jon bolam, ko‘nglim buzildi,

Ketishingni ko‘rib bag‘rim ezildi.

Xafa qilib bunda senday sanamni,

Qo‘yib ketma menga dog‘i-alamni, ”¹⁹⁶

Barchinning otasi Boysaribiy nutqidan olingan bu parchada “*ko‘nglim buzildi*”, “*bag‘rim ezildi*” iboralari qo‘llanilgan. Avvalgi misoldan farqli o‘laroq, tarjimon bu o‘rinda ibora tarjimasiga o‘zgacha yondashganligini ko‘ramiz. Chunki, birinchi keltirilgan misolimizda baxshining doston qahramoni Barchin holatiga bo‘lgan munosabati, his-tuyg‘ulari ask etgan. Ikkinchi misolimizda esa Boysaribiy o‘z ichki kechinmalarini o‘zi ifodalab ko‘rsatmoqda. Bu farq tarjimada ham aks etganini ko‘rishimiz mumkin.

Tarjima:

“Don’t weep, my dear, my heart can’t bear after.

Seeing you leave, my soul broke to pieces,

How I have made you, such a beauty distress.

¹⁹⁶ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарк” нашриёти, 1998. – Б. 171.

Don't leave me you sorrows and wows,"¹⁹⁷

Tarjima matnida asliyatdagi “*ko‘nglim buzildi*”, “*bag‘rim ezildi*” iboralari “*my heart can’t bear after*”, “*my soul broke to pieces*” deb tarjima qilingan. Bunda 1-shaxs (Boysari) tilidan yangragan ibora 3-shaxs (Fozil baxshi) qo‘llagan iboradan ko‘ra biroz emotsional bo‘yoqdorligi yuqori tarzda tarjimaga o‘tkazilganini ko‘rishimiz mumkin. Aynan “*bag‘ri ezilmoq*” iborasi dostonning boshqa joyida aytuvchi (3-shaxs) tomonidan qo‘llanilganda tarjimon yondashuvi o‘zgacha bo‘lganligini yana bir misol bilan asoslashga harakat qilib ko‘ramiz.

Asliyat:

*“Qarab turib ko‘zda yoshi tizilar,
Boysarining qarab bag‘ri ezilar.
Boysarixon xo‘p darhayron bo‘ladi,
Bori davlatini qo‘ldan beradi.”*¹⁹⁸

Tarjima:

*“Staring his tears ran falling swiftly,
Looking up Boysari wept deeply,
Boysari was shocked much,
All his wealth he lost such.”*¹⁹⁹

Asliyat matnida keltirilgan “*ko‘zda yoshi tizilar*”, “*bag‘ri ezilar*” iboralari tarjima matniga “*tears ran falling swiftly*”, “*wept deeply*” tarzida o‘tkazilganini ko‘rishimiz mumkin. Asliyat tilidagi iboralar o‘zbek o‘quvchisiga tushunarli bo‘lishi tabiiy hol. Biroq, doston matnini tarjima tilida mutoala qiluvchi kitobxonga bu iboralar semantikasini asliyatdagidek yetkazib bera olish tarjimonning asosiy vazifasi sanaladi. Birinchi ibora tarjimasida tarjimon “*swiftly*” ravish so‘z turkumiga oid leksemani qo‘shimcha tarzda qofiya va bo‘g‘inlar sonini tengligini ta‘minlash maqsadida tarjimaga kiritgan. Shunga qaramasdan gapning ma‘no-mazmuni o‘zgarmagan. Shuning uchun ham asliyat va tarjima matnidagi ikki

¹⁹⁷ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 64.

¹⁹⁸ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 195.

¹⁹⁹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 81.

frazeologik birlik misra oxirida “*tizilar - ezilar*” va “*swiftly - deeply*” tarzida qofiyadosh bo‘lib kelgan. Bu bilan tarjimon nafaqat misranining ma’nosi balki uning qofiyadoshligi ham tarjimada o‘tkaza olgan. Mazkur misraning lingvistik modeli quyidagicha ko‘rinishga ega:

Boysarining qarab bag‘ri ezilar – SbPs.PrAc.SbAg.PrAc.

Looking up Boysari wept deeply – PrAc.SbAg.PrAc.QfMn.

Mazkur lingvistik modeldan ko‘rinib turibdiki, asliyadagi agentivlik va aktivlik (SbAg.PrAc.) sintaktik-semantikalari tarjimada ham saqlangan (SbAg.PrAc). Ammo, ularning formal-distributiv xususiyatlariga ko‘ra, asliyatda *PrAc* sintaksema interpozitsiyada, o‘rtada kelgan bo‘lsa, tarjimada gap boshida, prepozitsiyada kelgan. Ularning sintaktik bog‘lanish va birikish xususiyatlari bir xil.

Tuzilish jihatidan teng bo‘lgan bu ikki frazeologik birlik ma’no jihatidan ham asliyatga tenglasha oladi. Chunki turli xalqlarning xayotiy tajribalarida mushtaraklik tushunchalar bo‘lishi tarjima va asliyatning qiyoslanishi orqali ko‘p bora isbotlangan. Quyida so‘zma-so‘z tarjima orqali berilgan frazeologik birliklarni tahlil qilamiz.

Asliyat:

*“Quloq sol, jonivor, aytgan nolishima,
Xafa falak zahar qo‘shgan oshima.
Qo‘ng‘irot elda qovmu qarindoshima,
Arzamni yetkargin dengu dushima.”²⁰⁰*

Tarjima:

*“Listen to my woes, my dear creature, support
The sad fate added poison in my food.
To my kith and kin in Qunghirat land,
For sure, take my message to my kin, send.”²⁰¹*

²⁰⁰ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 235.

²⁰¹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 98.

Bu to'rtlikda "*xafa falak zahar qo'shgan oshima*" misrasi "*the sad fate added poison in my food*" tarzida tarjima qilingan. Misrada qo'llanilgan har bir lingvistik elementl o'zining asl ma'nosida emas, ko'chma ma'noda ishlatilgan. Asliyat tilida to'g'ridan to'g'ri ma'noda zaxarning yegulikka solinishi tushiniladi. Ammo, bu yeda falakning oshga zaxar solishi, ya'ni g'am-g'ussaga botirishi, iztirob olib kelishi, qayg'u-alamga to'ldirishi, boshga kulfat solishi nazarda tutilgan. Tarjimon bu misra tarjimasini diyarli so'zma-so'z amalga oshirgan. "*Osh*" komponentining tarjimada "*food*" deb berilishi esa generalizatsiya usulini qo'llanilganligini ko'rsatadi. Gapning egasi o'rnida kelgan agentivlik sintaksemasi "*the sad fate*" ning semantikasida "*xafa falak*", "*qismat*", "*taqdir*" bo'lganligi uchun ham so'zma-so'z tarjima qilinsa-da, ko'chma ma'no qo'llanilganligi va bu tarjima matni o'quvchisining asliyat frazeologizmi ma'nosini to'liq tushinishida tarjimaning eng maqbul usuli ekanligi ko'rinib turibdi. Mazkur misraning lingvistik modeli quyidagicha ko'rinishga ega:

Xafa falak zahar qo'shgan oshima – QfQlt. SbAg. SbOb. PrAc. SbOb.

The sad fate added poison in my food – QfQlt. SbAg. PrAc. SbOb. SbOb.

Mazkur lingvistik modeldan ko'rinib turibdiki, asliyadagi sintaktik-semantikalar tarkibi (QfQlt.SbAg.SbOb. PrAc.SbOb) tarjimada ham o'z aksini topgan (QfQlt.SbAg.PrAc.SbOb.SbOb.). Ammo, ular formal-distributiv xususiyatlariga ko'ra, asliyatda (SbOb...SbOb) ikkita obyekt sintaksemalar "*qo'shgan*" o'timli fe'ldan oldin prepozitsiya va keyin postpozitsiyada kelgan bo'lsa, tarjimada har ikkisi ham "*added*" o'timli fe'lga nisbatan postozitsiyada kelgan. Har ikki tilda ham ular umumiy predikativ sintaktik bog'lanishi va birikish xususiyatlariga ega.

Dostonda yuqoridagi misollar kabi somatik so'zlar qatnashgan frazeologik birliklar ham bir nechta o'rinlarda uchraydi. Ulardan "*quloq solmoq*", "*bosh bo'lmoq*", "*boshidan o'tkazmoq*", "*ko'zi tushmoq*" kabi iboralarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Somatik so'zlar ishtirokidagi frazeologik birliklardan birining tarjima variant bilan qiyosiy tahlilga tortamiz.

Asliyat:

*“Quloqqa tut, bolam, aytgan so‘zimni,
Qaytayin, jo‘natdim senday qizimni,
Yosh to‘ldirma sen ham narkas ko‘zingni,
Juda xafa qildim senday qo‘zimni.”*²⁰²

Tarjima:

*“Keep my word, what I say, my child.
What could I do, I sent my daughter away,
Don’t fill your starry eyes with tear anyway,
I have made you very sad, my dear daughter.”*²⁰³

O‘zbek xalqining og‘zaki nutqida ishlatiladigan “*quloq tutmoq*”, “*quloqqa tutmoq*” kabi somatik so‘zlar ishtirokidagi iboralar doston tarkibida ko‘p bora uchraydi. Bu ikki ibora komponentlari bir-biriga o‘xshash bo‘lsa hamki, ikkala iboraning ma‘nosi turlicha. Ular asliyat tilida birgina fonetik o‘zgarishga uchragan jo‘nalish kelishigi “-qa” bilan farqlanadi. Birinchi ibora semantikasida (*quloq tutmoq*) eshitmoq, diqattini qaratmoq ma‘nolari bo‘lsa, ikkinchi ibora (*quloqqa tutmoq*) semantikasida esa eslab qolmoq, yodda saqlamoq ma‘nolari bor. Bu ikki bir-biriga o‘xshash ibora semantikasidagi nozik farqni ilg‘agan tarjimon kontekstdan kelib chiqib tarjima qilganligini ko‘rish mumkin. Shunday qilib, asliyat matnidagi “*Quloqqa tut, bolam, aytgan so‘zimni*” misrasi tarjimada “*Keep my word, what I say, my child*” tarzida aks etgan. Mazkur ibora asliyatdagidek tarjimada ham buyruq gap shaklida tarjimaga o‘tkazilgan. Mazkur misraning lingvistik modeli quyidagicha ko‘rinishga ega:

“Quloqqa tut, bolam, aytgan so‘zimni” – PrAc.SbVc. PrAc.SbOb.

“Keep my word, what I say, my child” – PrAc. Ob (SbOb).SbVc.

Mazkur lingvistik modeldan ko‘rinib turibdiki, asliyadagi sintaktik-semantikalar tarkibi (*PrAc.SbVc. PrAc.SbOb*) tarjimada ham o‘z aksini topgan (*PrAc.Ob(SbOb).SbVc.*). Ammo, ular formal-distributiv xususiyatlariga ko‘ra,

²⁰² Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 171.

²⁰³ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 64.

asliyatda *bolam* (*SbVc*) vokativ sintaksema interpozitsiyada kelgan bo'lsa, tarjimada *child* postozitsiyada kelgan. Har ikki tilda ham ular umumiy predikativ sintaktik bog'lanishi va birikish xususiyatlariga ega. Bu tarjima adekvat ekanligini tasdiqdaydi.

Eshitmoq, diqqatini qaratmoq ma'nolarida keluvchi "*quloq solmoq*" iborasi qatnashgan parchalarni tahlilga tortganimizda barcha o'rinlarda "*listen*" fe'li orqali tarjima qilinganligini ko'rdik. Ulardan birini tahlil qilib ko'ramiz.

Asliyat:

*“Elda yurgan men bozorchi bo'laman,
Yuk bosdi tuyamni, yo'lga kiraman,
Ko'p hayallab, so'zga quloq solaman,
So'zing bo'lsa aytgin, yo'ldan qolaman.”*²⁰⁴

Tarjima:

*“Among these folks of lands I am a trader,
My camels are under weight, I must start,
Listening to your words I'll be late for mart,
If you have more words, say, delay me not.”*²⁰⁵

Asliyat matnidagi "*ko'p hayallab, so'zga quloq solaman*" misrasi tarjima matnida "*listening to your words I'll be late for mart*" tarzida tarjima qilingan. Tarjimada berilgan mksraning so'zma-so'z tarjimasi quyidagicha: "*So'zlaringga quloq solib bozorga kech qolaman*". Bundan ko'rinib turibdiki, asliyat gapida ishtirok etgan frazeologik birlik ma'nosi tarjimada ham to'laligicha aks etgan. Dostonda jami bo'lib 22 marta "*quloq solmoq*" iborasi ishtirok etgan va barchasi "*listen*" fe'li yordamida tarjima matniga o'tkazilgan.

Bizga ma'lumki, lingvokulturogik xususiyatga ega frazeologik birliklar tarjimasi tarjimon uchun biroz mashaqqatli jarayon sifatida e'tirof etiladi. Bu borada tarjimondan ham asliyat tili, ham tarjima tili lingvokulturologik xususiyatlariga

²⁰⁴ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 201.

²⁰⁵ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 82.

jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi. So'zma-so'z tarjima bu holatlarda retseptorga g'aliz jumalarnigina bera oladi. Dunyoning turli mintaqalarida yashaydigan xalqlar madaniyati to'g'risida tarjimonning fon bilimlar bazasi qanchalik yaxshi shakllanganligi, ikkala xalq madaniyati bilan yaqindan tanish bo'lishi bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun ancha qo'l kelgan. Quyida shu mavzuga oid yana bir parchani tahlilga tortib ko'ramiz.

Asliyat:

*“O'ldirmayin men ham sening o'zingdi,
Jon shirin-da, sening ko'ngling buzildi,
Qilgan ishlaringga o'lim lozimdi(r),
Hali ham men ozod qildim o'zingdi,
Mol boqarga sardor bo'lmoq lozimdi(r).”²⁰⁶*

Tarjima:

*“To kill you I have no intent,
Your soul is dear, you wept.
For your deeds you deserve death,
However, I'll release you on earth.
Your leadership is needed for cattle breeders.”²⁰⁷*

Mazkur misolning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu misolda lingvokulturologik omil yaqqol sezilib turibdi. Bu misolimizda frazeologik birliklar qatnashgan *“jon shirin-da, sening ko'ngling buzildi”* misrasini tarjimon *“your soul is dear, you wept”* deb tarjima qilgan. Bu misolda *“jon shirin-da”* iborasi tarjimasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, *“shirin”* so'zi tarjimada *“sweet”* emas *“dear”* shaklida berilganini ko'ramiz. Chunki ingliz tili linvomadaniyati uchun *“soul + sweet”* birikmasi ma'no anglashga g'alizlik keltirib chiqarishishi mumkin. Bu muammoni bartaraf etish uchun esa tarjimon *“sweet”* so'zini *“dear”* bilan almashtirishni ma'qul deb topgan.

²⁰⁶ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 197.

²⁰⁷ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 82.

“Alpomish” dostonida tasvir nozikliklarini ta’minlash maqsadida frazeologik birliklardan juda ustalik bilan foydalanilganki, abstract tushunchalar betakror tarzda konkretlashib, doston tinglovchisi yoki o’quvchisi uchun aniq tushunchalarga aylanib ketgan. Bu iboralarning tarjimasida qay darajada adekvatlikka erishilganini asliyat va tarjima matnlarini qiyosiy tahlil qilib ko‘ramiz.

Asliyat:

*“Zakot dedi, o‘n to‘rt mahram buyurdi,
Mahram kelib menga berdi xabardi.
Zakot degan gapga ko‘nglim qabardi,
Ulsiz edim ko‘p gap yodima keldi,
Akamning so‘zlari qattiq ko‘rindi.”²⁰⁸*

Asliyat matnida keltirilgan “ko‘nglim qabardi” iborasi orqali Boysaribiyning ichki ruhiy holati yuksak badiyat bilan ifodalangan. Tilimizda qo‘llaniladigan “ko‘ngli og‘rimoq” iborasi bu iboraning sinonimi sifatida ko‘rsatilishi mumkin, ammo “ko‘ngli qabarmoq” iborasida ranjli ruhiy holatni ko‘rsata olish jihati ancha kuchli. Tarjimada bu ruhiy holat qay tarzda berilganini ko‘rib o‘tamiz.

Tarjima:

*“He urges me pay tax, duties of fourteen types,
Of these his messenger informed, gave notice.
Of such words my soul had become dark,
I recalled and foresaw life would be hard,
My own brother’s words injured me too.”²⁰⁹*

Ma’lumki, “ko‘ngil” abstrakt tushuncha, ammo “qavarmoq” konkret tushuncha ham shu ikki komponent birikuvidan hosil bo‘lgan. Tarjima tilidagi matnda esa tarjimon so‘zma-so‘z tarjimadan tiyilganini ko‘ramiz. Vaholangki, ingliz tilida “swell”, “calloused” singari qavarmoq ma’nosini beruvchi so‘zlar mavjud. Tarjimon tomonidan asliyat iborasining “my soul had become dark” tarzida

²⁰⁸ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 169.

²⁰⁹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 62.

tarjima qilinishi to‘liq adekvat tarzda qahramon ranjli ruhiy holatini ochib berolmagan bo‘lsa hamki, ma’no jihatdan asliyatga yaqin ekanligini ko‘rish mumkin. Fikrimizcha, agar verbalizatsiya transformatsiyasini, ya’ni sifatdan fe’l yasash transformatsiyasi qo‘llanilganda asliyat ma’nosi yana ham ixcham ifodalangan bo‘lar edi. Masalan:

Of such words my soul had become dark

Of such words my soul had darkened.

(Tarjima o‘zimizniki I.X)

Mazkur misraning lingistik modeli quyidagicha ko‘rinishga ega:

Zakot degan gapga ko‘nglim qabardi – SbCs.SbAg.PrAc.

Of such words my soul had darkened – SbCs.SbAg.PrAc.

Mazkur lingvistik modeldan ko‘rinib turibdiki, asliyadagi sintaktik-semantikalar tarkibi (*SbCs.SbAg.PrAc*) tarjimada ham o‘z aksini topgan (*SbCs.SbAg.PrAc*). lingvistik modellashtirish eksperimenti shundan dalolat beradiki, asliyat va tarjima tillarida qiyoslanayotgan misralarning ham sintaktik-semantik unsurlar tarkibi, ham ularning formal-distributiv xususiyatlari bir xil. Bunday moslashuv tarjima to‘liq adekvat ekanligini tasdiqdaydi.

3.2 “Alpomish” dostoni tarjimasida qofiya va ohangning qayta yaratilishi

“Alpomish” dostoni tarkibi ham nasr, ham nazmdan tashkil topgan bo‘lib, nasr tarjimasida mutarjim ko‘p muammolarga duch kelmasligi mumkin. Ammo, dostonning she’riy qismlari haqida bunday deb bo‘lmaydi. Chunki she’riy tarjimada rioya qilinishi kerak bo‘lgan talablar nasriy tarjimadan ko‘ra murakkabroq va salmoqlidir. Shuningdek, nazm ohangi, his-tuyg‘ulari rang-barangligini xorijiy kitobxonga yetkazib bera olish she’riy tarjimaning muhim va zaruriy jihati hisoblanadi. Yirik hajmli dostonning tarjima tilida shakl va mazmunini buzmasdan qayta yaratish tarjimondan yuksak badiiy mahorat va ijodiy yondashuvni talab etadi.

“Alpomish” dostoni nazm va nasr qorishmasidan tuzilganligi uchun tarjima jarayoni turli metodlar qo‘llashni taqazo etadi. Dostoning she’riy misralari 7-8

bo'g'indan, ba'zan 11-12 bo'g'indan tashkil topgan. Qofiyadosh misralar ikki misradan boshlanib, 8-10 misragacha, ba'zan 30 misrani tashkil etganligini kuzatish mumkin. Misralarning qofiyalanishi asrlar davomida yetuk baxshilar avlodidan avlodlarga o'taverib takomillashib, qat'iy bir shaklga tushirilgan. She'riy parchalarni aynan asliyatdagidek tarjimada qayta yaratish she'riy tarjimaning asosiy talablaridan biri talabi hisoblanadi. "Tarjimon oldida ko'ndalang bo'ladigan eng katta to'g'anoqlardan biri, asl nusxa bilan tarjima tillaridagi she'riy sistemaniig monand emasligidir. Agar shu "nomonandlilik" yoki to'g'anoq qanchalik bartaraf qilinsa, boshqa tilda asliyat nusxasining adekvat namunasini yaratish shunchalik oson bo'ladi"²¹⁰ deb takidlaydi tarshimashunos olim professor G'.Salomov. Ammo o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarining she'riy parchalarini ingliz tiliga tarjima qilishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelinishi, albatta, tabiiydir.

"Nutqning ekpressivligini to'la ta'minlash, uni she'rga aylantirish uchun vazn bilan qofiya bo'lishi zarur. Vazn she'rning ritmik harakatini vujudga keltirsa, qofiya uning jarangdorligi, ohangini hosil qiladi. Vazn – bir o'lchovdagi ritmik birliklar takrori, qofiya – ohangdosh tovushlar takrori."²¹¹

XIX asrdan beri ingliz tilida qofiya (rhyme) she'rning asosiy bo'lagi emas deb qaraladi. Agar she'riy parcha o'ta mohirlik bilan qofiyalanmasa, u havaskorona va jo'n ko'rinish kasb etib qoladi hamda o'z ohangdoshlik, musiqiylik xususiyatlarini yo'qotadi. Asliyat she'rlarini qofiyaga keltirish uchun so'zma-so'z tarjimadan foydalanib bo'lmaydi. Bunday yondashuv esa tarjima asarining asliyatga aloqadorligiga putur yetishi mumkin.

Xitoy tilidan ingliz tiliga poetik tarjima ishlarini olib borgan tarjimon Artur Ueyli tarjimalarida qofiyaning yo'qligi to'g'risida bildirgan fikrlari o'zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjima ishlariga nasbatan ham qo'llab aytish mumkin: "Men qofiya ishlatmadim, chunki ingliz tilida qofiya effektlarini aslo o'xshash qilib bo'lmaydi. Bu yerda bir xil qofiya ba'zan butun bir she'r orqali o'tadi. Bundan

²¹⁰ Саломов Ф., Жўраев К., Олимов С. Таржима санъати. 4-к. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б.128.

²¹¹ Саломов Ф., Комилов Н., Салимова З., Жўраев К., Отажонов Н. Таржимон маҳорати. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 1979. – Б. 31.

tashqari, qofiya cheklovlari, albatta, odam tilining kuchini yoki o‘z versiyasining so‘zma-so‘zligini buzadi. Men, har holda, buning aksiga oid misolni bilmayman”.²¹² Fikrimizcha, “Alpomish” dostonoda ham qofiyani asliyatdagidek saqlashning sira iloji yo‘q. Bunday gepotezani ikki til - o‘zbek va inglaz tillari turli til sistemalariga munsubligi va ularning lingvistik imkoniyatlari turlicha ekanligi bilan izohlash mumkin.

“Alpomish” shaklan she‘riy doston. Unda nasriy parchalar ham uchrab tursada, uni to‘liq she‘riy doston deya olamiz. Alpomish dostonidagi misralar she‘riy qofiyaga ega bo‘lib, ular turli qofiya uslublari va modellari bilan berilgan. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligida qofiyaga quyidacha ta‘rif beriladi: “Qofiya she‘r intonasiyasining ritmik tarkibida, sintaktik-semantik birligida, band tuzilishida muhim vazifa bajaradi, u she‘riy nutqni ohangdor va ta‘sirchan qilishga xizmat etadi, misralarning yodlanishini osonlashtiradi.”²¹³

“Alpomish” dostoni o‘zbek og‘zaki ijodining she‘riy shaklida keng tarqalgan barmoq vazni asosida shakllangan asar bo‘lib, unda o‘zbek xalq qo‘shiqlari, laparlari, aytishuvlari, ohangdoshligiga va qofiya qoidalariga amal qilingan. Mazkur dostonni ingliz tiliga tarjima qilishda tarjimon ingliz she‘riyatida, xususan epik she‘riyatida keng tarqalgan poetik vazn (poetic meter) qoidalariga tayanib tarjima qilgan. Shuning uchun ingliz she‘riyati vazn va qofiyadoshlik qoidalariga qisqacha to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ingliz tilida vazn (poetic meter) bo‘ginlar soniga qarab emas, balki ko‘proq urg‘ular soniga qarab belgilanadi. She‘r strukturasiidagi vazn urg‘usiz va urg‘uli yoki urg‘uli va urg‘usiz bug‘inlarning takrorlanib kelishidan iborat bo‘ladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda urg‘usiz bug‘in kuchsiz, urg‘uli bug‘in esa kuchli talaffuz etiladi. Ingliz tilida keng tarqalgan vazn turlari avvalo “yamb” (urg‘usiz - urg‘uli), “anapest” (urg‘usiz – urgusi-urg‘uli), “trochee” (urg‘uli - urg‘usiz) va “doktil”

²¹² Waley A., trans. One Hundred & Seventy Chinese Poems. – London: Constable and Co., 1918. – 168 p.

²¹³ Салаев Ф., Курбонниёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б.317.

(urg‘uli - urg‘usiz - urg‘usiz) kabi ritmik vaznlardan iborat. Kam uchraydigan turlariga urg‘usiz bug‘in va “spondee” (urg‘uli - urg‘uli) bug‘inlar tartibi kiradi.

“Alpomish” dostonining she‘riy misralar soni 13,715 tani tashkil etishini hisobga olsak, tarjimon bu qadar yirik hajmli asarning qofiya va ohangini tarjima tilida qayta yaratish jarayonida, shubhasiz, juda ko‘p qiyinchiliklarga duch kelgan bo‘lishi kerak. Tarjimada qofiyalanish shaklini asliyatdagidek saqlab qolish umuman ilojsiz ish ekanligini ko‘plab tarjimashunoslar ta‘kidlab o‘tishgan. Jumladan, she‘riy tarjimashunos olimi M.Baqoyeva shunga o‘xshash holatni “qofiya zulmi” deb ataydi. Tarjima variantida bu qofiyalar qay usulda qayta yaratilganini misollar orqali qiyoslab o‘rganishga harakat qilamiz.

Asliyat:

*“Bosh bo‘lgan necha sipohi,
Buyurdi Qalmoqning shohi.”²¹⁴*

Tarjima:

*“Many governed as officials,
Kalmyk’s shah gave orders.”²¹⁵*

Asliyat:

*“Chilbir cho‘liga bormoqqa,
Javob berdi ko‘p qalmoqqa.”²¹⁶*

Tarjima:

*“To go to Chilbir steppe, he,
Allowed many Kalmyks, see.”²¹⁷*

She‘riy tarjimada mazmunni ham, shaklni ham birdek saqlab qolish mushkul vazifa hisoblansada, asliyatda muntazam qofiyalanish ikki misralik bo‘lganligi sababli yuqoridagi misolda tarjimon qofiya tizimini tarjimada ham aks ettira olganini ko‘rishimiz mumkin. Tarjima matnida misralar qofiyalanishi ham asliyat

²¹⁴ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 193.

²¹⁵ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 79.

²¹⁶ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 193.

²¹⁷ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 79.

bilan bir xil tarzda ifodalangan bo‘lsada, birinchi misra mazmuniga biroz putur yetgan.

Asliyat matnida kelgan *aaab* shaklida qofiyalangan parcha tarjimada qay yusinda qofiyalanganini qiyoslab ko‘ramiz.

Asliyat:

*“Quloq sop eshitgin aytgan nidoga,
O‘lim navbat yetar shohu gadoga,
Omonat topshirgin qodir xudoga,
Xafa bo‘lay, javob bergin bek ota.”*²¹⁸

Tarjima:

*“Listen and hear my words, wowing,
In turn, death takes a pauper and king.
Entrust me to Mighty God do rather,
Don’t be upset to let me, my bek father.”*²¹⁹

Keltirilgan misolda asliyat misralari *nidoga, gadoga, xudoga* so‘zlari bilan *aaab* shaklida qofiyalangan bo‘lsa, tarjimada *wowing-king, rather-father* so‘zlari bilan *aabb* shaklida qofiyalanganini ko‘rishimiz mumkin. Tahlillarimiz dostonida kelgan muntazam qofiyalarning diyarli barchasi tarjimada ham juft qofiya (*aabb* – couple rhymes) shaklida qayta yaratilganini ko‘rsatadi. Bu tarjimoning o‘z ishiga kreativ yondashganligini asoslaydi. Boz ustiga, dostoning inglizcha varianti geyoki ingliz tilida yaratilgandek tabiiy jarangalaydi. Chunki, unga asliyatning musiqiyliigi, ohangi va shiddati ham ko‘chganligi uni ifodali o‘qishda his qilish mumkin.

“Alpomish” dostonida to‘rt, besh, olti, yeti, hatto yigirma to‘qqiztagacha misralar o‘zaro qofiyalanib kelgan. Tarjimaga esa yigirma to‘qqiz misra muntazam qofiyasini to‘liq o‘tkazishning imkonsiz ekanligini anglagan tarjimon har ikki misrani juft qofiyalab (couple rhymes) tarjima qilish yo‘lini tutgan. Buni quyidagi misolda ham ko‘rishimiz mumkin.

²¹⁸ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 209.

²¹⁹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 88.

Asliyat:

*“Bek Alpomish tor zindonda qoladi,
Har zamon zindonchi xabar oladi,
Ishqilib qalmoqlar xursand bo‘ladi,
Bu Surxayil ishni o‘rin qiladi,
Endi qalmoq bari tinib qoladi,
O‘lganini hamma yellar biladi,
O‘ldi deydi, yurtga ovoza bo‘ladi.
Emish-emish Qo‘ng‘irot yelga boradi,
Har yerda odamlar gap qip yuradi.
Rosti-o‘tirigin hech kim bilmadi,
Ko‘rgan odam yuqdir, so‘rab bo‘lmadi.
Bir malomat ovozasi boradi,
Eshitganlar unda hayron qoladi,
Bilmaymiz bul ishlar qanday bo‘ladi.
Yuq bo‘lmay, ovoza bo‘lib yuradi,
Bir-biridan qarindoshlar so‘radi,
So‘raganman anig‘ini bilmadi.
Boybo‘rining qulog‘iga tegadi,
Har kimdan yugurib-yelib so‘radi,
Bilmaymiz deb elat javob beradi,
Darhayron bo‘p endi gangib qoladi,
Boybichaga sirin aytib ko‘radi.
Elu xalqqa shul ovoza bo‘ladi,
Uyqusi ochilib oqshom jiladi,
Barchinoyni bilmasin deb turadi,
Bilmayman, bul ishlar qanday bo‘ladi,
Har oqshom ikkovi o‘ylab ko‘radi,
Bularning o‘lganini kim biladi,
Hech kim bilmas, elga ovoza bo‘ladi.*

Shul gap elatning og 'zida yuribdi.'²²⁰

Tarjima:

*“Bek Alpomish remained in the narrow dungeon, dim,
From time to time the dungeon guard visited him.
In any case the Kalmyks would be happy,
This Surkhayil was a master of her job, pretty,
Now all Kalmyks'd become quieted,
With his death all folks got acquainted.
Among folks he was announced dead,
The gossip would reach Qunghirat land.
In each place people would talk anew,
Whether it is right or wrong no one knew.
There was nobody who might be asked,
The news of misfortune would be reached.
Those who heard would be in doubt,
We don't know what would turn out.
This gossip went around, disappeared not,
Each other the relatives were asking a lot.
Though asked they didn't know the truth,
This would reach to Boyburi's ears.
He would go, run asking on the spot,
The folks answered they knew not.
He got shocked and was at a loss,
He told the secret to Boybucha first.
It became known among the folks,
Boybucha woke up, wept from shocks.
He wanted Barchinoy not to know it,
I don't know what would become of it.*

²²⁰ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарк” нашриёти, 1998. – Б. 229-230.

*Each night both think of it tried,
Who knew they had died.
Nobody knew it had spread among folks,
This word would live on folks' lips.”²²¹*

Tarjimon bu muntazam qofiyalanishni tarjimada *aabb* shaklida tarjimada qayta yaratganini ko'rishimiz mumkin. Asliyatda esa fe'l zamonlarini yasalishida qo'llaniladigan “*di*” qo'shimchasi (morfemasi) orqali qofiyalangan. Bu bilan gap so'nggidagi barcha fe'l so'z turkumiga oid so'zlar qofiyalanishiga erishilgan. Ammo, tarjima tili grammatik qurilishi yigirma to'qqiz misrali muntazam qofiya yaratishga imkon bermaydi. Birinchidan, asliyat va tarjima tillari turli til sistemalariga mansubligi. Ikkinchidan, ularda so'z tartibining tuban farq qilishi. Uchinchidan, o'zbek tilida kesimni so'z oxirida kelishi norma ekanligi bo'lsa, ingliz tilida kesimni egadan keyingi ikkinchi o'rinda (pozitsiyada) kelishi norma hisoblanadi. Shuning uchun ularni bir xil joylashtirish mumkin emas, istisno tarzida, inversiyani barcha holatlarda qo'llash ingliz tilining so'z tartibi normasida g'alizlik keltirib chiqaradi. Buni oldini olish uchun ham tarjimon o'z ishiga ijodiy yondashib tarjimani *aabb* juft qofiya shaklida yaratishni afzal ko'rgan.

Ba'zi hollarda misralar so'ngida bir so'z takrori kuzatiladi. Bunda takror qo'llanilgan so'zdan oldingi so'z qofiyaning asosini tashkil yetadi, ya'ni mazkur parcha misralarida ichki qofiya “*-sam*” bo'g'ini bilan, tashqi qofiya esa “*deydi*” so'zini misralarda takrorlash bilan amalga oshirilgan. Masalan:

Asliyat:

*“Qalmoq yurtga yetsam, deydi,
Boysarini ko'rsam, deydi,
Hol-ahvolin bilsam, deydi,
Undan xabar olsam, deydi,
Qalmoq dodin bersam, deydi,
Bachchag'arni qirsam, deydi,*

²²¹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 94.

*Juda anday qilsam, deydi.”*²²²

Tarjima:

“To reach Kalmyk land, says,

To see Boysari around, says,

To know his state, says,

Ask his whereabouts, says.

To torture Kalmyks, says,

To slash the rascals, says,

*To them the dead end, says.”*²²³

Berilgan asliyat misolda “*deydi*” fe’li misralar so‘ngida takrorlanib tashqi qofiyani ifodalab kelganini, bu so‘zdan oldinda kelgan “*ko‘rsam*”, “*bilsam*”, “*olsam*”, “*bersam*”, “*qirsam*”, “*qilsam*” so‘zlari ichki qofiyalanishni ifodalab kelganini ko‘rishimiz mumkin. Doston tarjimoni ham asliyatdagi “*deydi*” fe’li bilan qofiyalangan misralarni tarjimaga o‘g‘irishda tarjima tilidagi “*to say*” fe’lining *says* hozirgi zamon, uchinchi shaxs birlik shaklidan foydalanib, uni asliyatdagidek, misra oxirida joylanishiga erishgan. Bu usul shakl va mazmunni birdek saqlashga olib kelgan. Hatto, undan oldinda kelgan ichki qofiyalanishni ham tarjimada berishga erishilgan, har ikki misra o‘zaro qofiyalanganini (*aa*, *bb*, *cc* ko‘rinishida) ko‘rishimiz mumkin.

Asliyat tilining sintaktik qurilishining o‘ziga xos jihatlari, betakror sintaktik takrorlardagi his-hayajon junbushi, sintaktik birliklar tuzilishidagi rang-baranglik, ohangdoshlik, musiqiylik doston tarjimasi matnida yanada yorqinroq aks ettirilgan. Boshqa bir holatda xuddi shu qofiyalanish usulini tarjimon takrorlanuvchi so‘zni misralar boshiga ko‘chirganligini kuzatamiz. Masalan:

Asliyat:

“Qultoy” bilan birga-birga borsak, deb,

Kattamiz, deb buni izzat qilsak, deb,

²²² Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 213.

²²³ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 92.

*Ko'na amaldorning dodin bersak, deb,
 Haydab borib parli yoyga solsak, deb,
 Keyin qaytganini boshin olsak, deb,
 Bir nechasi Arpa ko'lin ko'rsak, deb,
 Ultonbek davrida davron sursak, deb,
 Ultonbekni juda izzat qilsak, deb,
 Hamisha shunday bo'lib yelda yursak, deb,
 Barchinoyini xonga olib bersak, deb,
 Bekning to'yin juda qiziq qilsak, deb,
 Bir nechamiz to'ppi-ro'mol olsak, deb.
 Bu so'zdi aytib vaqtin xushlab boradi.”²²⁴*

Mazkur aslyatdan olingan parchada “*deb*” fe’li misralar so’ngida takrorlanib tashqi qofiyani ifodalab kelgan bo’lsa, undan oldingi so’z bo’g’i - *sak* - “*ko’rsam*”, “*bilsam*”, “*olsam*”, “*bersam*”, “*qirsam*”, “*qilsam*” so’zlari tarkibida ichki qofiyalanishni ta’minlab kelganini ko’rishimiz mumkin. Doston tarjimoni ham aslyatdagi “*deb*” fe’li bilan qofiyalangan misralarni tarjimaga o’girishda tarjima tilidagi “*to say*” fe’lining *saying* shaklini (Pariciple 1) aslyatdagidan farqli o’laroq, misra boshida qofiyalanib kelishiga erishilgan. Ayni paytda, misra oxiridagi bo’g’inlar va undagi fonemalarning qofiyalanib kelishi ham ta’minlangan. Bu usul nafaqat shakl va mazmunni, balki musiqiylik va ohangdoshlikni ham birdek saqlashga olib kelgan. Mazkur qofiyalanishni *aa bb cc dd ee ff* ko’rinishida ifodalangan. Qiyoslab o’qiymiz.

Tarjima:

*“Saying we want to go with “Qultoy”, no other.
 Saying we should respect him as our leader,
 Saying we should punish the official, ever.
 Saying we should drive them to pull the silk bow,
 Saying who refuses we should cut their heads, so.*

²²⁴ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 366.

*Saying some we should go and see Arpa lake,
Saying lets enjoy life for Ultontoy's sake.
Saying we should respect Ultonbek very much,
Saying lets lead life among folks as such.
Saying let's have Barchin and khan marry,
Saying let's make Beks party joyful, very.
Saying let's take duppi and belts, really,
Saying these words, they are going merrily.”²²⁵*

Misralardagi uzun va qisqa bo‘g‘inlar, qofiyadosh unli yoki undosh tovushlar (fonemalar) modeli, ohangdoshlik, emotsional mazmun, otlar a tuyalarining qadam tashlashi, yurishi, yugirishi, dupuri onomatopik so‘zlar, ayniqsa, jang maydonida, qilich tortish, qalqon va nayzalar, to‘qmoqlar jarangi, karvon yullaridagi va bozorlardagi hayqiriqlar, baqir-chaqirlarni ifodalovchi onomatopik tovushlar doston misralari o‘qilishini, baxshilar kuylashidagi ohangdoshlikni va musiqiylikning rang-barangligini ta‘minlash bilan birga dostonda tasvirlangan voqea va hodisalarning ishonchliligini jozibali ravishda orttirib rivojlantirib ifodalaydi-ki, go‘yo dostonda tasvirlangan voqealar kitobxon ko‘z oldida sodir bo‘layotgandek bo‘ladi.

Asliyat:

*“Xudoyim saqlagay bandani omon,
G‘arib qulga yegam bo‘lgay mehribon,
Bu yullarda qur-hayt tortgan yosh o‘g‘lon,
Ne sababdan bunday bo‘lding sargardon?”²²⁶*

Asliyatdan olingan mazkur to‘rtlikda aaaa shaklida qofiya ifodalangan.

Tarjima:

*“My dear god, in peace your people save,
My owner God, be merciful to a poor slave,*

²²⁵ Алпомиш: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 129-130.

²²⁶ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 317.

*On these road a lad who used to say qurr-hayt,
Why have you been wandering in such a sight.”²²⁷*

Bu misollarda chorvadorlar qo‘y yoki sigirlarni haydash uchun aytadigan “*qur-hayt*”, so‘zi qo‘llanilgan. Tarjimada bu so‘zlar translitiratsiya usulida aks ettirilgan. Mazkur to‘rlikning tarjimasida misra oxiridagi bo‘g‘inning qofiyalanishi *aa* (save – slave), *bb* (hayt – sight) shaklida berilgan. Bunda transliteratsiya bilan berilgan hayt [hait] onomatopiya so‘zi talaffuziga mos so‘z sight [sait] topib qo‘yilgan bo‘lsada, mazmuniga ta‘sir qilmagan. Bu tarjimonning jarayonga kerativ yondashuvidan dalolat beradi.

Yuzlab dostonchi baxshilar orqali avloddan avlodga o‘taverib sayqal topib kelgan “Alpomish” dostoni tinoglovchi va o‘quvchini o‘z sehrli olamiga olib kirib ketadi, o‘quvchida o‘chmas taasurot qoldiradi. Go‘yo uni tinglagan tinglovchi dostonda hikoya qilinayotgan voqealarning bevosita ishtirokchisiga aylanib ketayoganini ham his qilmay qoladi. “Asar musiqasini his qilish, uni tarjimada to‘g‘ri tarannum etish bu yerda tarjimon oldiga qo‘yilgan asosiy talab hisoblanadi. Musiqani his qilmagan tarjimon she‘rning ruhiga kirolmaydi. Asarning ma‘no-mag‘zini berish xuddi shu musiqaviy uyg‘unlikni aks ettirish orqali amalga oshadi”²²⁸, deb bekorga takidlamaydi tarjimaunos olim, professor G‘.Salomov.

Asliyat:	Qofiya shakli
<i>“Qalmoqlarda bordir nomdor,</i>	<i>a (-dor)</i>
<i>Alpomishga bo‘ldi duchor.</i>	<i>a (-chor)</i>
<i>Qorajonga so‘zlar aytgan,</i>	<i>b (-gan)</i>
<i>Qilichiga qonlar qotgan,</i>	<i>b (-gan)</i>
<i>Ko‘ring Oyoqashqa polvonni.</i>	<i>c (-ni)</i>
<i>Hakimbekman savash yetgan.</i>	<i>b (-gan)</i>
<i>Bir-birining aqlin olib,</i>	<i>d (-lib)</i>
<i>Nayza bilan qilich solib,</i>	<i>d (-lib)</i>

²²⁷ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 120.

²²⁸ Саломов Г., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 126.

<i>Unga Hakim g‘olib kelib,</i>	<i>d (-lib)</i>
<i>Sherday bo‘p ustiga bordi.</i>	<i>e (- di)</i>
<i>Siyosatman qilich soldi,</i>	<i>e (- di)</i>
<i>Oyqashqani ikki bo‘ldi,</i>	<i>e (- di)</i>
<i>Endi qolgan qalmoqlar.</i>	<i>f (-lar)</i>
<i>Qochmoqni ixtiyor qildi.</i>	<i>e (- di)</i>
<i>Qalmoqlarni to‘plab oldi,</i>	<i>e (- di)</i>
<i>Biror maydon urush bo‘ldi.</i>	<i>e (- di)</i>
<i>Oqadi ko‘zining yoshi,</i>	<i>g (-shi)</i>
<i>Ot ostida qoldi boshi,</i>	<i>g (-shi)</i>
<i>Shuldir Hakimbek savashi.</i> ²²⁹	<i>g (-shi)</i>

Tahlilga tortilgan asliyat parchasida qofiyalanish shakli *aa, bb, cb, ddd, eee, fe, ee, ggg* ko‘rinishda ifoalangan. Uning tarjimasida qofiyalanishi asosan juft qofiya shaklida berilgan. Ba‘zan esa yozilishi bir xil, talaffuzi har xil qofiyalanish ham kuzatiladi.

Tarjima:

Qofiyalanishi:

<i>“Famous braves Kalmyks have,</i>	<i>a</i>
<i>Encountered Alpomish, crave.</i>	<i>a</i>
<i>He who told Qorajon the word,</i>	<i>b</i>
<i>The blood stained was his sword,</i>	<i>b</i>
<i>See the brave Oyqashqa, who,</i>	<i>c</i>
<i>Battled with Hakimbek, fought.</i>	<i>c</i>
<i>Seizing minds of each other,</i>	<i>d</i>
<i>Hit spear and sword one another.</i>	<i>d</i>
<i>He was defeated by Hakim,</i>	<i>e</i>
<i>Like a lion treaded on him.</i>	<i>e</i>
<i>Hit sword with threats,</i>	<i>f</i>
<i>Cut Oyqashqa into two parts.</i>	<i>f</i>

²²⁹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарк” нашриёти, 1998. – Б. 182.

<i>Now the Kalmyks who remained,</i>	<i>g</i>
<i>To take flee they intended.</i>	<i>g</i>
<i>Had the Kalmyks gathered,</i>	<i>g</i>
<i>In this field they had battled.</i>	<i>g</i>
<i>From their eyes tears shed, sad</i>	<i>h</i>
<i>The head was left on the steed,</i>	<i>i</i>
<i>That was how Hakimbek did beat.</i> ²³⁰	<i>i</i>

Tarjima qofiyalanishidan ko‘rinib turibdiki, bu yerda asosan juft qofiya (*aa, bb, cc, dd, ee, ff, ii*), orada to‘rt misrada bir xil (*gggg*) qofiyasi qo‘llanilgan. Bu esa, mazmun birligi ham tarjimada e‘tiborga olinganligini ko‘rsatadi.

Doston kompozitsiyasi o‘ziga xos bir qator badiiy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular inglizxon kitobxonlar uchun g‘ayrioddiy tuyulishi mumkin, ammo ular dostoning tarkibiy badiiy qismini tashkil qiladiki, bu xususiyatlarni ham tarjimon tarjimada berishga va saqlashga harakat qilgan. Ma‘lum epizodlar takrorlanar ekan, ularni ifadalovchi nutqiy misralar va bir xil so‘zlar takrorlanaveradi. Ularning barchasi o‘ziga xos ma‘no va mazmunga urg‘u berish, muvozanat va uyg‘unlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Misralarni qayta va qayta takroran qo‘llashdan maqsad dostonda hikoya qilingan voqea va hodisalarni tinglovchi va kitobxon xotirasiga dostonning o‘ziga xos she‘riy shaklida muhrlab qo‘yishdir. Shuning uchun ham mazkur doston avlodlardan avlodlarga, asrlardan asrlarga o‘tib, sayqallanib o‘zbek xalqining birligi va vatanparvarligini saqlashga, mustahkamlashga, xizmat qilib kelmoqda.

Shu bilan birga, doston qahramonarini xarakterli xususyatlarini aniqlab kelgan ba‘zi sifatlar qo‘llanilganki, ular stilistik epitet funksiyasida ifodalanib, dostonda keng qo‘llanganligi bilan o‘zbek xalqining ichki emotsional tuyg‘ulari, hissiyotlari va tashqi olamining uyg‘unligidan darak beradi. Ayniqsa, xalq og‘zaki dostoni “Alpomish”da botirlik, jasurlik, shijoat, mag‘rurlik, g‘urur, jismonan baquvvatlilik bilan ilohiy qudrat mujassamligi yaqqol namayon bo‘ladiki, ba‘zan

²³⁰ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 69.

bunday tengsiz kuchlilik xususiyatlari o‘ta kuchli va o‘ta chaqqon sher, yulbars kabi yovvoyi hayvonlar obrazi, boyichbordek aqlli vafodor ot obrazi bilan ifodalanib, ular o‘xshatish va metafora kabi badiiy san’atlar bilan ifodalanganiki, bu bilan misralarda jonlantirish, obrazlarni kuchga va harakatga keltirish omillari kuzatiladi.

Asliyat:

*“Chavandozlar qo‘sh taqim bo‘p ushladi.
Har qaysi sherday bo‘p otni uradi,
Dushman bo‘lgan bari yozgan o‘ladi.
Shuytib eli-xalqqa hukmin bildirdi.”²³¹*

Tarjima:

*“With both hands her the riders seized,
Like a lion each hit his horse, dizzy.
Those who were foes all went dead,
Thus, his power known he made.”²³²*

Yuqorida tahlilga tortilgan to‘rtik qofiyasi asliyatda *aaaa* shaklida *-di* morfemasi bilan ifodalangan bo‘lsa, tarjimada bir xil fonema (tovush) ga ega bo‘lgan bo‘g‘inlar bilan ifodangan juft qofiya yordamida qofiyadoshlik (*aabb*) amalga oshirilgan.

Bundan tashqari, xalqning boshiga bir ish tushsa, muhim qarorlar qabul qilishda, katta tadbirlar o‘tkazishdan oldin yoshi kattalar, dono va hikmatga boy, so‘zga chechan oqsaqol nuroniylarning uzoqni ko‘ra bilishi kabi fazilatga ega bo‘lgan yoshi ulug‘larni yig‘ib maslahat olish o‘zbek xalqi va jamiyati tarixida ming yillar davomida amalda bo‘lib kelgan an’ana va urf-odatlar ham dostonida o‘z aksini topgan.

Asliyat:

*“Ko‘rar ko‘zim, quloq solgin tilima,
Davron surib yurgin Boysin elinga,*

Qofiyalanishi

*a
a*

²³¹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 389.

²³² Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 143.

<i>Borib kelding, bolam, qalmoq elina</i>	<i>a</i>
<i>Talab qilma dushmanlar mazgilina.</i>	<i>a</i>
<i>Men qartaydim, bolam, qayda borasan,</i>	<i>b</i>
<i>Yolg'izsan-da, borib nima qilasan.</i>	<i>b</i>
<i>U yurtlarda, bolam, qanday bo'lasan,</i>	<i>b</i>
<i>Kelib mendan javob so'rab turasan.</i> ²³³	<i>b</i>

Tahlilga tortilga mazkur parcha, ikkita to'rt misrali she'ran iborat bo'lib, birichi to'rtlik misralari *aaaa* shaklidagi qofiya shakli bilan ifodalangan bo'lsa, ikkinchi to'rtlik esa, *bbbb* shaklidagi qofiya bilan berilgan.

Tarjima:

*“Apple of my eye, listen to my word,
Enjoy your life in Boysun, it's my word.
You just came back from Kalmyk land,
Don't ask to go to the enemy's settlement,
I grew old, where you set off, my son,
You are lonely, why do you go alone.
In those lands what will you do?
Coming up you ask me to allow you.”*²³⁴

Bu misralarda Boybo'rining o'z o'g'li Hakimbekka ikkinchi marta Qalmoq eliga borishni niyat qilganida aytgan nasihatidan olingan. Hakimbekning ikkinchi marta Qalmoq eliga qilgan safarida boshiga qanday kulfatlar tushganini doston mazmunidan bilib olsa bo'ladi. Ota ham buni ko'ngli sezgandek o'g'lining Qalmoq eliga qayta borishiga qattiq qarshilik ko'rsatadi. Tarjimada esa, juft qofiya *aabbccdd* shaklidan foydalanilgan.

Yuqorida keltirilgan doston parchalarining asliyat tilidagi qofiyalanishni va uning tarjimada qayta yaratishi tahlili shuni korsatadiki, asliyatda qofiya xalq ogzaki ijodi tilida mukammal yaratilgan. Unda musiqiylik, ohangdoshlik, aks etib

²³³ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 208.

²³⁴ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 87.

turadi. Bu hisusiyat dostonning mazmunini va ta'sirchanligini bo'rttirib jozibali qilib ko'rsatadi. Asliyat tilida she'riy parchalar barmoq vaznida yaratilgan bo'lib, unda misralardagi qofiyadoshlik 2-3 tadan tortib 29-30 misragacha hajmdagi parchalarda bir xil qofiyalanish takrorlanishi mumkin. Mazkur parchalarning tarjimasidagi qofiyadoshlikni o'rganish shuni ko'rsatadiki, tarjimada ko'proq *aabb* shaklidagi juft qofiya ishlatilgan, Shu bilan birga ba'zan qofiyadoshlik 3 hatto 5 misragacha takrorlanishi tarjimada ham o'z aksini topgan bo'lib, bunday holatda tarjimon misralardagi ma'no va mazmun uyg'unligini dan kelib chiqqan. Bu esa tarjimaning nafaqat mazmun jihatdan mukammallidini yoki adekvatligini, shu bilan birga shaklan qofiyadoshlik va vazn talablarini ingliz tili dostonlariga xos bo'lgan yamb vazni va juft qofiya shaklidan tarjimada samarali foydalanilgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan ba'zi hollarda ma'noning o'zgarishi ma'noni torayishi hamda qofiya uchun qo'shilgan yangi so'z hisobidan mazmunning kengaygan holatlari uchrab turadi.

3.3. "Alpomish" dostoni tarjimasida tarjimonning ijodiy mahorati

Tarjima jarayonida tarjimon asar uslubiga mos bo'lgan uslub tanlab, o'sha uslubdan og'ishmay tarjimani amalga oshirish uning mahoratiga bog'liq ekanligi tarjimashunoslikda ko'p bora ta'kidlanadi. Namunaviy natijaga erishish uchun birinchi qadam sifatida tarjimon har ikki tildagi uslubni chuqur anglash, so'zlarning emotsional ta'sirini his qilish va uni kengaytirib tanqidiy o'rganish, so'z atrofidagi so'zning ijtimoiy aurasini hamda u uyg'otgan kayfiyat va yaratgan muhitni chuqur tushunib yetishi kerak. Muallif tomonidan qo'llangan lisoniy iboraning tanishligi va ta'sirchanligini kuchaytirishga bo'lgan sa'y harakatlar jarayonidagi asosiy denotativ ma'no orqasida yashiringan konnotativ va ko'chma ma'nolarni ilg'ash borasida tarjimon o'tkir nigoh va mashaqqatli mehnat qilish layoqatiga ega bo'lishi kerak.

Tarjimonning maqsadi begona bo'lgan tarjima tili sistemasida asliyat tilining barcha xususiyatlarini, baland-pastliklarini, rang-barangliklarini, stilistik o'ziga xosliklarni tarjimada qayta yaratishdan iboratdir. Uolter Benjamin o'zining "Tarjimonning vazifasi" nomli maqolasida shunday yozadi; "Hech qanday tarjima sodir bo'lmaydi, basharti u o'zining asosiy mohiyatida original asarga o'xshashlik

uchun intilmasa... Asrlar o'tishi bilan adabiyotdagi buyuk ishlarning aslligi va mohiyati to'liq transformatsiyani boshidan kechiradi. Bunda tarjimonning ona tili ham transformatsiyaga uchraydi. Muallifning o'z tilidagi poetik so'zlar hatto eng buyuk tarjimalarni boshidan kechirish jarayonida tarjima tilining bir qismiga aylanishga va oxir oqibat yangi varianti tarkibiga singib ketishga mahkumdur. Tarjima ikki o'lik tilning toza tengligidan shunday uzoqlashib ketadiki, bunda barcha badiiy shakllar asl tilning yetuklik jarayoni ustidan va uning to'lg'oq azobini kechirayotgani ustidan nazorat qilish bo'yicha maxsus vazifa bilan mas'uliyatlangan bo'ladi."²³⁵

Shunday qilib tarjima haqiqatdan ham qudratli yuqumli kuchki, u yozuvchining uslubi, texnikasi, til strukturasi kengaytiradi va chuqurlashtiradi hamda o'zining lingvistik an'anasida hali beri topilmagan badiiy dunyoga uni olib kiradi. Tarjima ko'p tilli adabiyot dunyosiga kirib kelish orqali uning badiiy ufqlarini kengaytirishda sarhad bilmas muhim rol o'ynaydi. Tarjimalarsiz yozuvchilarning umumbashariy jamiyati bundan bebahra qoladi. Boshqacha qilib aytganda, tarjima nafaqat ma'lum bir tildagi kitobxonlarga, balki shu tilda muloqot qiluvchilarga asliyat tilining tabiatini o'zgarishiga ham olib keladi.

Tarjimon Q.Mamurov "Alpomish" dostonini o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilgan hozircha yagona tarjimon hisoblanadi. Shuning uchun Q.Mamurovning ingliz tilidagi tarjimasini o'ziga xos folklor ruhini, uslubini, emotsiyasini hamda uning badiyatini mehr va hurmat bilan hamda ehtiyotkorona yondoshib tarjima qilganki, unda xalq qahramonlik dostonining go'zalligi, ruhi, ohangi, musiqiyligi, baxshiyona ovozi ham tarjimada o'z aksini topgan diya olamiz. "Asar tarjimasini o'qir ekansiz, unda asldagi singari musiqiylik, ohangdoshlik, tuyg'u va hissiyotlar junbushi, jangdagi qilichu nayzalarning jarangi, otlarning, tuyalarning dupurlashini, buyuk ipak yo'li bo'ylab borayotgan karvonlarning hayqirig'ini, sharq bozorlaridagi gavjumlik va savdo sadolarini eshitganday bo'lasiz."²³⁶

²³⁵ Grossman E. From Why Translation Matters. – USA: Yell University press, 2010. – P. 54.

²³⁶ Carrapov T.K. Dil va til birligi. – Toshkent, 2016. – B.17.

Tarjimon mahorati haqida soʻz borar ekan, tarjimonning “Alpomish” dostonidan tashqari boshqa tarjimalari haqida ham biroz toʻxtalib oʻtishni joiz deb topdik. Tarjimon Q.Mamurov badiiy tarjima sohasida amalga oshirgan tarjimalari ancha salmoqli. U oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining durdona asarini tarjima qilishdan oldin ham koʻplab sheʼriy tarjimalarni amalga oshirgan. Ulardan, Alisher Navoiy gʻazallari tarjimasiga bagʻishlangan “Ummondan durlar” (Pearl from the Ocean) kitobiga kiritilgan tarjimalari,²³⁷ shoira Oʻktamoy qalamiga mansub “Mayus tong” (A Sad Dawn),²³⁸ “My heart is weeping”,²³⁹ sheʼrlar toʻplamining tarjimasini, “Landscape”, “My Pillow”,²⁴⁰ “Life”, “Missing Rain”,²⁴¹ sheʼrlari tarjimasini bunga yaqqol misol boʻla oladi. Qolaversa, A.Sulaymonovning “Muallim oʻgitlar” (Teacher’s advice),²⁴² Halima Avazmuhammad-Jumaniyozovaning “Sogʻinch daraxti” (A Tree of Missing), “Vatan ifori” (Flavour of Motherland)²⁴³ sheʼrlar toʻplami, Yormuhammad qalamiga mansub “Gova Afsonasi” (Gowa Legend)²⁴⁴ sheʼriy dostoni tarjimalari ham shular jumlasidandir.

Tarjimon nasr tarjimasida ham sermahsul ijod qilmoqda desak mubolagʻa boʻlmaydi. Ulardan, Salomat Vafoning “Nomsiz kema” (A Nameless Ship) hikoyalar toʻplami,²⁴⁵ Barno Rustamovaning “Odam bolalari” (Children of Adam) badiiy nasriy kitobi²⁴⁶ va yana bir qancha asarlarni sanab oʻtishimiz mumkin. Shu bilan birga u koʻplab publististik kitoblar, albom kitoblar, monografiyalar, lugʻatlar tarjimalarini ham amalga oshirgan. Ham nasr, ham nazmda amalga oshirilgan

²³⁷ Уммондан Дурлар. Die perlen aus dem ozen. Pearls from the ocean. (Бадий таржима). – Тошкент: “Шарк” нашриёти, 2000. – 142 б.

²³⁸ A Sad Dawn (Mayus Tong). Collection of Poems by poetess Uktamoy. – Tashkent: “Meryus”, 2008. 63 p.

²³⁹ Uktamoy. My heart is weeping. Collection of poems. Translated by K.Mamurov. – India, 2009. 58 p.

²⁴⁰ Uktamoy. Landscape, My Pillow. In “Poets paradise”. Collection of poems. Editors: Gupe Chand and Naga Sesarla. Translated by K.Mamurov. – India, 2010. pp.12-13.

²⁴¹ Uktamoy. Life, My Missing, Rain. In “The Fancy Realm”. Collection of poems. Translated by K.Mamurov. Editors: Gupe Chand and Naga Sesarla. – India, 2010. pp.42-43.

²⁴² Sulaymonov A. Muallim oʻgitlari. Teacher’s advice. Sheʼriy tarjima. – Toshkent. “Oʻqituvchi” nashriyoti, 1998. – 38 b.

²⁴³ Jumaniyozova H.A. “Sogʻinch daraxti” (A Tree of Missing). Sheʼrlar. Tarjimon Qosimboy Maʼmurov. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2020. – 94 b; “Vatan ifori” (Flavour of Motherland). Sheʼrlar. Tarjimon Qosimboy Maʼmurov. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2022. – 144 b.

²⁴⁴ Yormuhammad. Gowa Legend. Epic poem. In English and Uzbek languages. Translated by Qosimboy Maʼmurov. – Tashkent: “Fan”, 2009. – 32 p.

²⁴⁵ Salomat Vaf. Nomsiz kema. (A nameless ship). Stories. Translated by Kosim Mamurov. – Tashkent: “Muzika”, 2009. – 91 p.

²⁴⁶ Rustamova B. Children of Adam. Translated by K. Mamurov. – Tashkent: “Tafakkur qanoti”, 2013. – 119 p.

tarjimalardan to‘plangan yuksak tajriba tarjimon uchun yirik hajmli “Alpomish” dostoni tarjimasida qo‘l kelgani shubhasiz.

Bevosita doston tarjimasida tarjimon mahoratiga to‘xtaladigan bo‘lsak, tarjima jarayonida shunday holatlar uchraydiki, unda tarjimon dostonning o‘ziga xos uslubini, so‘zini tarjimada ifodalashga harakat qilgan. Haqiqatan ham turli til vositalari va transformatsiyalari yordamida asliyat ma’nosini tarjimada berishni uddalagan. Bunda tarjimon so‘z ma’nosini talqin bilan ochib berib, asliyatdagi ma’noni to‘liq ifodalash bilan birga uning stilistik uslubini va badiyatini ham bera olgan.

Asliyat:

*“Tog‘u toshning boshin chalgan tuman-a,
Menday sag‘ir - sho‘rga oxir zamon-a,
Bek otam Kashalga ketgan vaqtinda,
Enamning bo‘yida qopman gumona,
Sen ham meni unutdingmi, bobojon?”²⁴⁷*

Tarjima:

*“It is the cloud that covers the rocks, mounts, sure.
Isn’t it a doomsday for the orphan like me, poor?
When my bek father had gone to Kashal,
I was a suspected baby in my mother’s womb here,
My dear grandpa, have you forgotten me too, dear?”²⁴⁸*

Keltirilgan misolda tarjimon asliyat mazmun-mohiyatini ham, qofiya va ohangini ham birdek tarjimaga o‘tkaza olgan. “*It is the cloud that covers the rocks, mounts, sure*” misrasini hijjalab tarjima qilsak “*Bu tog‘lar-u, qoyalarni qoplab olgan bulut, albatta*” deb tarjima qilinganini ko‘rishimiz mumkin va bu bilan asliyat ma’nosi to‘liq ochilgan. Vaholangki, “she’rni bir tildan ikkinchi tilga o‘zgarishlarsiz tarjima qilish mumkin emas. Chunki har bir xalqning o‘z she’riy sistemasi, tarixan

²⁴⁷ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик дostonи // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 340.

²⁴⁸ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 123.

shakllangan nazm an'analari, she'riyatining o'ziga xos muayyan berlgilari mavjud. Tarjimada bu hususiyatlarning hammasini aks ettirish imkoniyati yo'q. Ammo bu she'rni bir tildan boshqa tillarga tarjima qilishning iloji yo'q, she'riy tarjima g'ayru imkoniy, degan gap emas, albatta."²⁴⁹ Fikrimizcha, bu parcha tarjimasida tarjimon leksik birliklarni tanlay olish mahoratini ham namoyish etgan.

“Alpomish” dostonining yana bir o'ziga xos matniy xususiyati shundan iboratki undagi har bir misra monopredikativli sodda yoyiq gaplardan tashkil topgan. Folklor janri leksikasining yadrosini xalq nutqidagi so'zlar tashkil qiladi. Leksika yadrosi deganda biz dostonida eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni nazarda tutamiz. Bu atama rus folklorshunos olimi O.N.Zimneva tomonidan dostonshunoslik faniga kiritilgan atama hisoblanadi.²⁵⁰ Zimnevaning fikriga ko'ra leksik birliklarning ko'p qo'llanilishini aniqlash uchun butun bir dostonida ishlatilgan so'zlarning umumiy sonini aniqlash zarur. Tadqiqot ishimizda “leksema” atamasi qo'llaniladi. Leksema deganda tilning lug'at tarkibidagi tadqiqot qilinadigan so'zlarning aniq grammatik shakllari va ularni ifoda etuvchi fleksiyalar hamda ularning barcha imkoniy ma'nolari (ma'no variantlarining) barchasi nazarda tutiladi.²⁵¹ Bu yerda shuni qayd etish o'rinliki, “Alpomish” dostonida ba'zi so'zlar bir nechta shaklda berilgan. Quyida doston matnining aksariyat o'rinlarida qo'llanilgan “to'ra” va “mahram” so'zlarini asliyatdan tarjima tiliga o'girish jarayonida mutarjim mahoratini misollar yordamida tahlil qilishga harakat qilamiz.

O'zbek tilining besh tomli izohli lug'atida “to'ra” so'ziga 5 xil izoh berilgan: 1. Yuqori tabaqaga mansub kishi; zodagon, oqsuyak, aristokrat. 2. Xonlar davrida va Chor Rossiyasi davrida Turkistonda katta amaldor, hokim. 3. Hurmat yuzasidan yoki ulug'lab kishilarning nomiga, unvoniga, mansabiga, shuningdek, ko'chma ma'noda ba'zi narsalarni bildiruvchi so'zlarga qo'shib ishlatiladigan so'z. 4. *ko'chma* Rasmiyatchi, rasmiyatparast, byurokrat. 5. To'ra (erkaklar ismi).²⁵²

²⁴⁹ Саломов Ф., Комилов Н., Салимова З., Жўраев К., Отажонов Н. Таржимон маҳорати. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1979. – Б. 31.

²⁵⁰ Зимнева О.Н. Лексика русских народных баллад: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Курск, 2005. – 18с.

²⁵¹ Прохоров А. Большой энциклопедический словарь. 2-е изд. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2000. – С. 257.

²⁵² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2020. – Б. 244.

Lug‘atda keltirilgan ma’nolardan tashqari “to‘ra” so‘zining xalqimiz orasida yana bir qancha ma’nolari borki, tarjimon ushbu so‘zning nafaqat denotativ balki konnotativ ma’nolarini ham ilg‘ay olgan va retseptor uchun tushunarli tarzda tarjima qila olgan. Quyida biz izohli lug‘atlarda uchraydigan ma’nolari tarjimasini tahlil qilib ko‘ramiz.

Asliyat:

*“Men ham muna elda turgan to‘raman,
Bu ishlarni Boysaridan ko‘raman,
Boysarini men ham nima qilaman?
Maslahat ber, katta-kichik qarindosh,”²⁵³*

Tarjima:

*“I am a ruler of this land and folks,
Boysari is to blame for this.
What shall I do with Boysari’s sin?
Give advice, old and young kin,”²⁵⁴*

“To‘ra” leksemasining denotativ ma’nosi “yuqori tabaqaga mansub kishi; zodagon, amaldor, hokim, oqsuyak, aristokrat” bo‘lib, keltirilgan misolda tarjimon generalizatsiya metodini qo‘llagan va so‘zning mazmun-mohiyatini to‘laqonli saqlab qola olgan. Sh.Butayevning “English-Uzbek, Uzbek-English Dictionary” lug‘atida “ruler” so‘zi “hokim, hukmdor, idora qiluvchi, boshqaruvchi” deya tarjima qilingan.²⁵⁵ Bu bilan to‘ra so‘zining zodagon, hokim ma’nolari tarjimaga ko‘chgan deya olamiz. Keyingi misolda esa tarjimon ushbu so‘z tarjimasida “leader” so‘zini qo‘llashni afzal ko‘rgan.

Asliyat:

*“O‘z yurtima men ham bekman, to‘raman,
Ota-enam men esima olaman,
Yetti yil bandilik zahmin ko‘raman.*

²⁵³ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 192.

²⁵⁴ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 78.

²⁵⁵ Butaev Sh. English-Uzbek, Uzbek-English Dictionary. – Tashkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2016. – B. 556.

Kim bor, kim yo‘g‘ini borsam bilaman,”²⁵⁶

Tarjima:

*“In my land I’m both bek and leader,
I remember my father and mother.
For seven years captivity I’d suffered,
When I arrive, I’ll know who is alive or not.”*²⁵⁷

“Leader” so‘zining ikki tilli tarjima lug‘atlarda “yetakchi, rahbar, boshqaruvchi” ma’nolari berilgan.²⁵⁸ Bu bilan asliyat kontekstida anglashilgan ma’no tarjima matniga olib o‘tilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Navbatdagi misolimizda esa bu leksema anglatib kelgan ma’no voha xududlariga xos o‘zbek shevalaridagina qo‘llaniladi. Ya’ni, aksariyat o‘zbek ayollari orasida o‘z turmush o‘rtoqlariga murojaat qilish uchun “begim” so‘zi qo‘llanilsa, ba’zi voha shevalarida esa ayollar tumush o‘rtoqlariga nisbatan “to‘ram” so‘zini ishlatishadi. Quyidagi dostonidan keltirilgan parchalar fikrimizni asoslashga xizmat qiladi.

Asliyat:

*“To‘ram deydi, quloch yoyib keladi
Bunda qolgan bekning Barchinday yori.
Oh tortsa, to‘kilar ko‘zidan yoshi,
G‘am bilan chiqadi bekning dovushi,”*²⁵⁹

Tarjima:

*“Saying my beloved there comes stretching her hands,
Bek’s Barchinoy, beloved one who was left on the land.
When she sighed her tears ran from her eyes,
There came out with grief the bek’s voice.”*²⁶⁰

²⁵⁶ Алпомиш: Ўзбек халқ қахрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 305.

²⁵⁷ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 119.

²⁵⁸ Shu manba. – B. 410.

²⁵⁹ Алпомиш: Ўзбек халқ қахрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 383.

²⁶⁰ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 137.

Shuningdek, yuqoridagi parchada qofiyani *aabb* shaklida ifodalash bilan asliyat ohangini, musiqiylikini ham tarjimada berilishiga erishilgan.

Asliyat:

*“Borolmasa hech kim bekni axtarib,
To‘ram o‘lib unda qolgandir g‘arib,
Kimga aytib yig‘lay dardimni yorib,
Bek Alpomish o‘ldi, hammasi g‘arib.”*²⁶¹

Tarjima:

*“Nobody could go seeking the bek, so.
My knight might have died there, poor,
Who should I cry revealing my grieves, more.
Bek Alpomish died, all became unfortunate,”*²⁶²

Yuqoridagi parchalarda “to‘ram” so‘zi asliyatda bir ma‘noni anglatgan ham tarjimatiliga ikki xil variantda, ya‘ni “*my beloved*” va “*my knight*” shaklida berilganini ko‘ramiz. Bu bilan tarjimon o‘zining tarjima tili so‘zlaridan erkin foydalana olish qobiliyatini namoyish eta olgan. Asliyat matnidagi “to‘ram” so‘zining tarjima matniga “*my beloved*” va “*my knight*” so‘zlari orqali o‘girilishi tarjimaga rang baranglik bera olgan. Dostonda “to‘ra” leksemasi 94 marta qo‘llanilgan bo‘lsa, tarjimon ushbu leksema tarjimasida 6 xil leksemani (ruler, leader, my knight, my beloved, brave, shah) tarjima variantlari sifatida mohirona qo‘llagan.

E‘tiborimizni tortgan yana bir jihat asliyat matnidagi “mahram” so‘zi hamda uning tarjimasida bo‘ldi. Chunki ushbu leksema ham dostonda ko‘p bora takrorlanadi. “Mahram” so‘ziga o‘zbek tilining besh tomli izohli lug‘atida quyidagi izohlar keltiriladi: 1. Saroy amaldorlarining yozishma ishlarini boshqargan lavozimli kishi va uning mansabi; 2. Ishonchli xizmatkor, cho‘ri; 3. Sirdosh do‘st, hamdam; 4. Man qilingan, taqiqlangan; boshqalardan sir tutiladigan, maxfiy; nojoiz; 5. Shariatga

²⁶¹ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 231.

²⁶² Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 95.

ko‘ra, ayol kishi yuzi ochiq holda ko‘rishishi mumkin bo‘lgan, ammo nikoh noravo bo‘lgan yaqin erkak qarindosh.²⁶³ Doston kontekstiga ko‘proq ushbu so‘zning ikkinchi ma‘nosi to‘g‘ri kelsa ham tarjimon tarjima jarayonida ushbu shaxslar bajarishi lozim bo‘lgan vazifalardan kelib chiqib, asar kontekstida anglashilgan ma‘no mazmunini xorijiy kitobxonga aniq yetkazishga harakat qilgan.

Asliyat:

*“Akam izza qildi Boysin elida,
Turolmadim Ko‘kqamish ning ko‘lida.
Zakot dedi, o‘n to‘rt mahram buyurdi,
Mahram kelib menga berdi xabardi.”²⁶⁴*

Tarjima:

*“In Boysun land my brother ashamed me, snake
I could no longer stay on the Kukqamich lake.
He urges me pay tax, duties of fourteen types,
Of these his messenger informed, gave notice.”²⁶⁵*

Asliyat:

*“O‘n to‘rt mahramini ushlab o‘ldirdim,
Kashalga ko‘chmoqni ixtiyor qildim,
Sizlar hamroh bo‘lib unday kunlarda,
Necha kunlar Kashal qarab yo‘l yurdim,”²⁶⁶*

Tarjima:

*“Fourteen of his servicemen I seized to kill,
I expressed my wish to move to Kashal hill.
You were with me those days as my companions,
For several days to Kashal we made our journeys.”²⁶⁷*

²⁶³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2020. – Б. 575.

²⁶⁴ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 169.

²⁶⁵ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 62.

²⁶⁶ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 169.

²⁶⁷ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 62.

Keltirilgan misollarda “mahram” so‘zi “type”, “messenger” va “serviceman” shaklida tarjima qilinganini ko‘ramiz. Birinchi parchada ushbu so‘z zakot xabarini Boysariga yetkazgan shaxslar (mahramlar) bo‘lgani tufayli “messenger” leksemasi tarjimada o‘rinli qo‘llangan. Mazkur tarjimaga, har doimgidek, tarjimon juda ehtiyotkorona yondoshgan. Mazkur misra matni mazmunidan va unda ishlatilgan so‘zlar va misradagi leksik birikish (kelib, berdi xabardi) va leksik qurshov (kelib, berdi xabardi) kabi formal-distributiv xususiyalarni e‘tiborga olib tarjimon asliyatdagi “mahram” so‘zini tarjimada “messenger” (xabarchi) leksemasi bilan berishga qaror qilgan. (qarang: Mahram kelib menga berdi xabardi - - - *Mahram ... berdi xabardi*) - predikativ birikmasidan anglashilgan ma‘noni substantivizatsiya (otlashtirish) transformatsiyasi-eksperimenti asosida *xabarchi* “messenger” bilan ifodalashi juda o‘rinli ijodiy, kreativ topilma desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Dostonning nasriy parchalarida ham “mahram” so‘zi bir qancha o‘rinlarda kelib, tarjimon ushbu so‘z tarjimasini o‘zgacha yondashuv bilan o‘g‘irganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan:

Asliyat:

“Bu so‘zni mahramlardan Boysari eshitib, ko‘ngliga og‘ir olib aytdi: — Ey, bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bolmagan, endi akamiz o‘g‘illi kishi bo‘lib, Darrov bizning molimizni zakot qiladigan bo‘libdi-da!”²⁶⁸

Tarjima:

“Hearing these words from the tax-inspectors he was deeply offended. “Hey, our wealth has not been taxed yet. Now having a son my brother wants to tax me. Doesn’t he?”²⁶⁹

Asliyat:

²⁶⁸ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 19.

²⁶⁹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 16.

*“Boysariga boringlar, Boysari o‘zi rozichiligi bilan bir chichqoq uloqni zakot deb menga bersin, zakot o‘rniga o‘tar-da, Boysari baxil bo‘lib, baxillikka chiqib ketmasin, — deb o‘n to‘rt mahramni buyurdi.”*²⁷⁰

Tarjima:

*“He called his officials and ordered them to go to Boysari and ask him to give him a goat as tax. It would be considered taxing too. So, he ordered fourteen of his tax collectors.”*²⁷¹

Tarjima matnlaridan ko‘rinib turibdiki, kontekstga asosan *“mahramlarni o‘z huzuriga chaqirdi”* gapida mahramlar so‘zi *“officials”*, ya‘ni mansabdorlar deb tarjima qilgan, va ularga zakot yig‘ish vazifasi yuklatilgandan keyin parcha oxirida *“o‘n to‘rt mahramni”* birikmasidagi *mahram* so‘ziga funksional aniqlik kiritilib, endi tarjimada *“tax collectors”*, ya‘ni *“solliqchilar”* deb beriladi va bu bilan asliyat dan anglashilgan ma‘no tarjimada juda to‘g‘ri ifoda etiladi.

Asliyat:

*“Mahramlar kelib javob savol qilib o‘tirdi. Boysaribiy bulardan yo‘l bo‘lsin qilib, savol so‘radi.”*²⁷²

Tarjima:

*“The officials came in and inquired him. What is your business here? Boysari asked them.”*²⁷³

Keltirilga misollarda *“mahram”* so‘zi bir necha variantlarda tarjima qilinganligini ko‘ramiz. Maskur misradagi *mahramlar* so‘zi ham xuddi yuqoridani keltirilgan parchadagi singari tarjimada hokimiyat mulozimlari ma‘nosidagi leksema *officials* so‘zi bilan berilganligini ko‘ramiz. *Qanday ish bilan keldilaring bu yerga (What is your business here?)* degandan keyingina ularning vazifasiga aniqlik kiritiladi va keyingi gaplar tarjimasida albatta *“tax collectors”* yoki *“tax inspector”* deb tarjima qilish o‘rinli bo‘ladi.

²⁷⁰ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 18.

²⁷¹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 15.

²⁷² Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 18.

²⁷³ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 16.

Dostonda “mahram” so‘zi 39 marta qo‘llanilgan bo‘lsa, tarjimon ushbu so‘z tarjimasida 6 xil (messenger, type, serviceman, official, tax collector, tax inspector) tarjima tili leksemalarini qo‘llagan.

Badiiy tarjima jarayonida tarjimondan o‘ta ehtiyotkorlik talab etiladi. Har bir fikrni ma’noviy jihatdan bus butun holda xorijiy kitobxonga yetkazish tarjimonlarga qo‘yilgan asosiy vazifa sifatida qarab kelinadi. Aks holda asliyatdagi ma’no umuman boshqa tomonga o‘zgarib ketib, asar mazmunini to‘la anglash jarayoni biroz qiyin kechishi mumkin. Tadqiqotimiz ob’ekti sifatida olingan “Alpomish” dostonining tarjimasida ham ba’zi kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Masalan, dostondan olingan bu parchaga e’tiboringizni qaratmoqchimiz.

“Boybo‘ri turib aytdi: - Boysari uka, qariganda bizning molimiz besohibga chiqdi, endi bizlar bir farzand taraddi qilmaymizmi?”²⁷⁴

Asliyatda berilgan bu gapning tarjima varianti quyidagicha:

“Boyburi rose and said: - Brother Boysari, when we are aged our wealth has become unaccountably large, now we should have to think of how to have our own children.”²⁷⁵

Qiyoslash uchun berilgan gaplardan ko‘rinib turibdiki, “besohib” so‘zi tarjimada “unaccountably large” tarzida berilgan. Vaholanki, “unaccountably large” birikmasi o‘zbek tiliga “behisob”, “sanab bo‘lmas darajada ko‘p” deb tarjima qilinadi. Tarjima jarayonida “besohib” va “behisob” so‘zlari chalkashtirib yuborilgan. “Besohib” so‘zining esa ingliz tilida bir qancha (ownerless, unowned) muqobillari bor. Gap bu yerda Boybo‘ri va Boysarining molu-mulki qanchalar oshib toshib ketganida emas, o‘sha molu-mulkka egalik qiladigan vorislari yo‘qligida edi. “Behisob” va “besohib” so‘zlari ma’no jihatidan bir-biriga tamomila ziddir. Mutarjim so‘zlarning shakli bir-biriga yaqin ekanligi, ammo ma’nosi bir-biriga yaqin emasligini e’tibordan chetda qoldirgan bo‘lishi mumkin. Bu orqali asliyat mazmuniga biroz putur yetgan.

²⁷⁴ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 15.

²⁷⁵ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 13.

Keyingi misolga e'tibor qaratamiz.

Asliyat:

*“Shomurti shoxalab har yoqqa ketgan,
Uchida chichqonlar bolalab yotgan,
Izdan tushgan pishak oltoyda yetgan,
Munday qalmoq qo‘lin bulg‘ab keladi.”²⁷⁶*

Tarjima:

*“Their mustaches grew bushy in all side,
In it the mice gave birth and multiplied,
To hunt them a cat reached the Oltoy mount,
Such a Kalmyk is coming staining his hand.”²⁷⁷*

Mubolag‘aga boy ushbu parchaning *“izdan tushgan pishak oltoyda yetgan”* misrasidan *“izidan tushgan mushuk olti oyda quvlab yetadi”* degan ma’no anglashiladi. Tarjimon esa ushbu misradagi *“olti oy”* birikmasining fonetik o‘zgarishga uchragan *“oltoy”* shaklini Oltoy tog‘i deb hisoblab, *“to hunt them a cat reached the Oltoy mount”* shaklida tarjima qilgan. Bu yerda tarjimon yozma matnga qaramasdan unga o‘qib berib turgan shaxsning ovozidagi talaffuz shaklini e’tiborga olgan bo‘lishi ham mumkin. Fikrimizcha, tarjimon ushbu misra tarjimasida jiddiy xatolikka yo‘l qo‘ygan. Bu misra tarjimasida *“It took six months to catch them in the end”* (tarjima o‘zimizniki) shaklida berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shunga o‘xshash leksik xatoni yana bir misrada uchratish mumkin.

Asliyat:

*“Zahmat o‘tib jondan kechgan,
Qilichidan qonni sochgan,
Ko‘p qalmoq bilan sanchishgan,
O‘liklarga g‘ajir tushgan,”²⁷⁸*

²⁷⁶ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 159.

²⁷⁷ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 10.

²⁷⁸ Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – Б. 290.

Tarjima:

*“He who preferred death to torture,
From sword he sprayed blood to nature.
Thrust spears with many Kalmyks,
The dead were eaten by wolves,”²⁷⁹*

Bu misolimizda aslyiat matnidagi “g‘ajir” zoonimi tarjima matnida “wolf” zoonimi bilan almashtirilgan. Qiyoslab ko‘rganda bu ikki zoonim turli sinflarga mansub jonzotlar. Ularning farqli xususiyatlaridan yana biri, bo‘ri g‘ajir singari o‘laksaxo‘r jonzot emas. Ularni birlashtirib turuvchi yagona jihat ularning yovvoyi tabiatda yashashi, xolos. Ammo bu misolda mubolag‘a badiiy tasvir vositasi bilan birgalikda sinekdoxa ham qo‘llanilganligini e‘tiborga olishimiz kerak. Albatta, o‘liklarga g‘ajir tushsa, bir emas bir nechtasi birga uchib keladi. Bu esa noto‘g‘ri tarjima variantida bo‘lsa ham leksemaning ko‘plik shakli bilan berilishi kerkligini anglatadi. O‘ylaymizki, dostonning to‘liq tarjimasi nashriga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida ushbu kam sonli xatolar tuzatiladi.

3-bob bo‘yicha xulosa

1. Frazеologik birliklar doston qahramonlarining nutqini oddiy ifodasidan ko‘ra ko‘proq uning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilishi tufayli ham tarjimada ularning aks etishi muhim hisoblanadi. Frazеologik birliklarni tarjima qilish tarjima jarayonida eng muammoli vaziyatlarni keltirib chiqadi. Ularni tarjima qilishni, asosan to‘rt usulda amalga oshirish maqsadga muvofiq ko‘riladi. Bular *ekivalent, muqobil, kalka va tasviriy (sharhlash)* tarjima usullaridir.

2. “Alpomish” dostoni tarjimasidagi sintaktik-semantik tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, frazeologik birliklar gapda qo‘llanganda, gapning qonun-qoidalariga amal qilsa-da, shuningdek, o‘z elementlarinig sitaktik-semantik va formal-distributiv xususiyatlarini saqlab qolsa-da, uning ko‘chma konnotativ ma’nosi yo‘qolmaydi, aksincha, bir butun frazema sifatida o‘zining funksional vazifa va maqsadini saqlab qoladi.

²⁷⁹ Alpomish: Uzbek heroic epos // Translator: Kosimboy Mamurov/. – Tashkent: “ART FLEX”, 2019. – P. 113.

3. Asliyadagi sintaktik-semantikalar tarkibi (*SbCs.SbAg.PrAc*) tarjimada ham o'z aksini topganani (*SbCs.SbAg.PrAc*) ko'rinib turibdi. Lingvistik modellashtirish eksperimenti asliyat va tarjima tillarida qiyoslanayotgan misralarning ham sintaktik-semantik unsurlar tarkibi, ham ularning formal-distributiv xususiyatlari bir xil ekanligidan dalolat beradi. Bunday moslashuv tarjimini to'liq adekvat ekanligini tasdiqdaydi.

4. She'riy tarjimada mazmuni ham, shaklni ham birdek saqlab qolish mushkul vazifa hisoblanada. "Alpomish" dostoni asliyat matnida muntazam qofiyalanish ikki misralik bo'lganligi sababli tahlilga tortilgan misollarda tarjimon qofiya tizimini tarjima matnida ham aks ettira olgani ko'rinadi. Ba'zi o'rinlarda tarjima matnida misralar qofiyalanishi asliyat bilan bir xil tarzda ifodalangan bo'lsa-da, ayrim misra mazmuniga biroz putur yetgan holatlari ko'zga tashlandi.

5. Asliyat tilida she'riy parchalar barmoq vaznida yaratilgan bo'lib, unda misralardagi qofiyadoshlik 2-3 tadan tortib 29-30 misragacha hajmdagi parchalarda bir xil qofiyalanish takrorlanishi mumkin. Mazkur parchalarning tarjimasidagi qofiyadoshlikni o'rganish shuni ko'rsatadiki, tarjimada ko'proq *aabb* shaklidagi juft qofiya ishlatilgan. Shu bilan birga, ba'zan qofiyadoshlik 3 hatto 5 misragacha takrorlanishi tarjimada ham o'z aksini topgan bo'lib, bunday holatda tarjimon misralardagi ma'no va mazmun uyg'unligidan kelib chiqqan. Bu esa tarjimaning nafaqat mazmun jihatdan mukammalligidini yoki adekvatligini, shu bilan birga shaklan qofiyadoshlik va vazn talablarini ingliz tili dostonlariga xos bo'lgan yamb vazni va juft qofiya shaklidan tarjimada samarali foydalanilgan.

6. "Alpomish" dostoni tarjimasi jarayonida shunday murakkab holatlar uchraydiki, unda tarjimon bor mahorati bilan dostonning o'ziga xos uslubini, so'zini tarjimada ifodalashga harakat qilgan. Haqiqatan ham turli til vositalari va transformatsiyalari yordamida asliyat ma'nosini tarjimada bera olgan. Bunda tarjimon so'z ma'nosini talqin qilish orqali ochib berib, asliyatdagi ma'noni to'liq ifodalash bilan birga uning stilistik uslubini va badiiyatini ham qayta yarata olgan. Ba'zi o'rinlarda tarjimon talqini o'zini oqlamaslik holatlari ham kuzatiladi. Asliyat

matn mohiyatini to'g'ri anglay olmaslik, tamomila noto'g'ri tarjimaga olib keladi (*“besohib”* so'zi tarjimada *“unaccountably large”* tarzida berilishi).

UMUMIY XULOSA

1. Insoniyat yaralib, muloqotga kirishgan dastlabki davrdan buyon folklor xalq va millat bilan birga yashab, birgalikda rivojlanib kelmoqda. Yozma adabiyot paydo bo'lishidan avval xalq orasida folklor shakllangan. U har bir xalqning og'zaki ijodini rivojlanishiga xizmat qilib, o'zining, hayotiy, turmushbop, xalqchil, g'oyaviy va tarbiyaviy ahamiyati bilan boshqa janrlardan ajratilib turadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari ijro xususiyatlari, tuzilishi, musiqiyigi, vazifasi va ko'lamiga ko'ra *doston, ertak, naql, rivoyat, afsona, o'lan, lapar, alla, lof, askiya, topishmoq, maqol, matal, masal, latifa, bolalar qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, qo'g'irchoq o'yini* kabi janrlardan tarkib topgan u *“etnofolkloristika”, “arxeofolkloristika”, “etnolingvistika”* hamda *“lingvofolkloristika”* kabi bir nechta fan tarmoqlari tarkibida o'rganib kelingan.

2. O'zbek xalq dostonlari besh turga ajratilib tasniflanadi: 1) *qahramonlik*, 2) *jangnoma*, 3) *tarixiy*, 4) *romantik* 5) *kitobiy* dostonlar. “Alpomish” dostoni esa qahramonlik dostonlari sikliga mansubdir. Ularning o'rganilish darajasi ham ayniqsa istiqloq davriga kelib, tilshunoslik nuqtayi nazaridan keng tadqiq qilindi. Jumladan, dostonda qo'llanilgan antroponimlarning semantik-uslubiy xususiyatlari, ularning lug'at tizimdagi o'rni (I.Xudoynazarov), stilistik formulalarning fonetik-stilistik, leksik-semantik, morfologik-stilistik, sintaktik-stilistik xususiyatlari (SH.Mahmadiyev), xalq dostonlari leksikasini umumlisoniy sistemada o'rganish, dostonlarning an'anaviy lingvofolkloristik qonuniyatlari (A.Rahimov), stilistik vositalar, dostonlarning badiiy-estetik va lisoniy-poetik xususiyatlari (G.Jumaniyozova), dostonlarning tarixiy-genetik omillari, ijtimoiy-siyosiy

leksemalarining uslubiy, funksional, kommunikativ va konnotativ xususiyatlari, shuningdek, zoonimik va ornitonimik leksik birliklarning funksional-semantik xususiyatlari (I.Umarov), soʻzlarning semantik qurilishidagi oʻzgarishlar, individual neologizmlarning oʻziga xos xususiyatlari (M.Qurbonova) doirasi alohida taqdqiqotlar olib borildi.

3. XX asrning qator tarjimashunos olimlari tarjima qonuniyatlari, tarjima turlari, adekvatlik va ekvivalentlik nazariyalarini ishlab chiqdilar. Shuningdek, tarjima sohasida leksik, frazeologik, grammatik muammolar, tarjima birliklari, stilistik vositalarni tarjima qilishga oid bir qancha muammolarning yechimi borasida keng ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarini tarjima qilishda tarjimonlarga marakkablik tugʻdiradigan asosan uch omilni aytish mumkin:

- a) *asliyat va tarjima tili oʻrtasidagi farqli jihatlar muammosi;*
- b) *xalq ogʻzaki ijodi namunalarida stilistik vositalarning oʻziga xos xususiyatlari bilan bogʻliq muammolar;*
- d) *sheʼriy matnni tarjima tilida qayta yaratish muammolari.*

Sheʼriy matnlarni asliyatdan tarjimaga oʻgirishda uchta metod taklif qilinadi: 1) epik formula; 2) variatsiya; 3) satrlar parallelligi. Folklor poetikasida dostonning tipik joylari, variatsiyalar, satrlar parallelligi kabi xususiyatlarini har qanday tilga tarjima qilish uchun tadbiq etiladigan umumiy metodlar mavjud.

4. Ekvivalentlikning tafrijiy tamoyili ikki bosqichda amalga oshishi kuzatildi: *Birinchisi, formal ekvivalentlik* tamoyili asosan ilmiy matnlarda qoʻllanilishi bilan xarakterlanadi. Tarjima jarayonida formal ekvivalentlik matn grammatikasi, aniq va doimiy leksik muvofiqlik, kontekst mazmuni doirasidagi maʼnolarning barqarorligini talab etadi. *Ikkinchisi, dinamik ekvivalentlik* esa asliyat matnining tarjima tilidagi eng yaqin ekvivalentini topishdir. Dinamik ekvivalentlik asliyat va tarjima tilida soʻzlashuvchi xalqlar madaniyatiga, tarjima qilinayotgan asar kontekstiga, shuningdek, tarjima tili kitobxoniga mos kelishi talab etiladi. Ekvivalentlik tarjima matnini nainki stilistik tavsifi, balki semantik darajasi bilan ham baholash mumkin, degan ilmiy yondashuvga muvofiq, ekvivalentlik turlarining

quyidagi tasnifini keltirish maqsadga muvofiq: a) *aktual-signifikativ ekvivalentlik*; b) *aktual bo‘linmaning ekvivalentligi*; d) *pragmatik ekvivalentlik*.

5. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini tarjima qilishda tarjimonlarga qo‘yiladigan eng muhim talablar shuki, asliyat matnining shaklini o‘zgartirmasdan mazmunini tarjima tiliga to‘liq olib o‘tishdan iborat. Bunda tarjimonlar to‘rt asosiy jihatlarni hisobga olishlari talab etiladi: **birinchidan**, folklor asarlarning qadimiyligini hisobga olib, ba’zi arxaik so‘zlar ma’nosini va asliyat tilning o‘sha davrga xos milliy xususiyatlarini tarjimada aks ettira olish; **ikkinchidan**, xalq og‘zaki ijodi namunalarining barcha semantik xususiyatlarini, uning badiiyligi va shaklini buzmasdan tarjima tiliga o‘tkazishi; **uchinchidan**, tarjima jarayonida asliyat tilning stilistik xususiyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima tiliga o‘tkazishdan tiyilish, ya’ni o‘zga madaniyat vakili bo‘lgan xorijiy o‘quvchida doston qahramonlari, vaziyatlar haqida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otish ehtimolini nazardan qochirmaslik; **to‘rtinchidan**, asliyat matnining hissiy ranglarini, dostonning ulug‘vorligi va tantanali ruhini tarjima tiliga o‘tkaza olish.

6. Stilistik birliklarning tarjimalari adekvatlik va ekvivalentlik mezonlari asosida tekshirilganda shu narsa tarjimon har bir mubolag‘aning tarjimasida adekvat tarjimaga erisha olganligi aniqlandi. Badiiy tasvir vositalarining mazmun mohiyati to‘liq holatda tarjima tiliga o‘tkazilgan.

7. “Alpomish” dostonida qo‘llanilgan o‘xshatish badiiy tasvir vositasi tarkibida qator sintaktik-semantik unsurlar uchradi. Bular *agentivlik*, *obyektlik*, *identifikatsiya*, *negativlik*, *kvalitativlik* kabi unsurlar bo‘lib, ularning jamlanmasi dostonda qo‘llanilgan o‘xshatish sintaksemasining mazmun mundarijasini tashkil etadi. Asliyatdagi sintaktik-semantik unsurlar ingliz tilidagi tarjimasida ham to‘liq o‘z aksini topgani, tarjima matni asliyat matnida to‘liq adekvat holatni ta’minlaganligi kuzatildi.

8. O‘xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalab kelgan identifikatsiyalovchi sintaksemlar o‘zining formal-distribyutiv xususiyatiga ega. Eng asosiysi, agentiv va obyekt sintaksemlardan farqli ravishda o‘xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalab kelgan identifikatsiyalovchi sintaksemaning asosiy pozitsiyasi kesim

hisoblanadi. Identifikatsiyalovchi sintaksema kesim o‘rnida ikki xil (to‘liq va to‘liqsiz) variantlarda kelishi mumkin. Shu bilan birga o‘xshatish badiiy tasvir vositasini ifodalovchi identifikatsiya sintaksemasi “*look*” va “*seem*” fe’llari bilan ifodalangan variantlarga ham ega. Tarjima variantlarining lingvistik modellari esa quyidagilar: “*be + like + N*”, “*like + N*”, “*look + like + N*”, “*seem + like + N*”.

9. Tadqiqot ishimizda funksional sintaktik-semantik elementlar, sintaktik-semantik tarjima birliklari tarjima variantlari sifatida o‘zini realizatsiya qila olishi o‘z isbotini topdi. Tarjima birliklari ham sintaksemalar singari tashqi olam bilan bog‘liq mazmun ifodalovchi sintaktik-semantik unsurlar majmuasidan iborat bo‘lib, ular formal-distributiv xususiyatlarga, jumladan, pozitsion imkoniyatlar; postpozitsiya, prepositsiya, interpozitsiya hamda leksik qurshov va leksik bazalari bilan bir biridan farq qiladi. Ularning lingvistik xususiyatlari til birliklarining asliyat va tarjima tilidagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlarida namayon bo‘ladi.

10. Asliyat tilidagi qofiyalanishni va uning tarjimada qayta yaratishi tahlili shuni korsatadiki, asliyatda qofiya xalq ogzaki ijodi tilida mukammal yaratilgan. Unda musiqiylik, ohangdoshlik, aks etib turadi. Bu xususiyat dostonning mazmunini va ta’sirchanligini bo‘rttirib jozibali qilib ko‘rsatadi. Asliyat tilida she’riy parchalar barmoq vaznida yaratilgan bo‘lib, unda misralardagi qofiyadoshlik 2-3 tadan tortib 29-30 misragacha hajmdagi parchalarda bir xil qofiyalanish takrorlanishi mumkin. Mazkur parchalarning tarjimasidagi qofiyadoshlikni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, tarjimada ko‘proq *aabb* shaklidagi juft qofiya ishlatilgan. Shu bilan birga, ba’zan qofiyadoshlik 3 hatto 5 misragacha takrorlanishi tarjimada ham o‘z aksini topgan bo‘lib, bunday holatda tarjimon misralardagi ma’no va mazmun uyg‘unligidan kelib chiqqan. Bu esa tarjimaning nafaqat mazmun jihatdan mukammalligidini yoki adekvatligini, shu bilan birga shaklan qofiyadoshlik va vazn talablarini ingliz tili dostonlariga xos bo‘lgan yamb vazni va juft qofiya shaklidan tarjimada samarali foydalanilgan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan ba’zi hollarda ma’noning o‘zgarishi ma’noni torayishi hamda qofiya uchun qo‘shilgan yangi so‘z hisobidan mazmunning kengaygan holatlari uchrab turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar, siyosiy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi gazetasi. 2019-yil, 7-aprel. – №68 (72-98) son. – B. 1.
2. Каримов И. “Алпомиш” достонининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзлаган нутқи. “Халқ сўзи” газетаси, 1999 йил. 9 ноябрь.
3. Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017 йил 4 август. № 68 (7298).

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar:

4. Bassinet S. Translation studies. 3rd edition. – London and New York: Taylor & Francis e-Library, 2005. 176 p;
5. Вархударов Л. С. Язык и перевод. – ИМО, 1975. – 339 с;
6. Catford J.C. A Linguistic theory of translation. – London: Oxford University Press, 1978. 103 p.
7. Chodzko A., trans. Specimens of the Popular Poetry of Persia, as Found in the Adventures and Improvisations of Kurroglou, The Bandit-Minstrel of Northern Persia. – London: Oriental Translation Fund, 2001. 616 p.
8. Dollerup S. Tales and Translation: The Grimm Tales from Pan-Germanic Narratives to Shared International Fairytales. – Amsterdam: John Benjamins, 1999. 384 p.
9. Grossman E. From Why Translation Matters. Yell University press, USA, 2010. 137 p.
10. Faget M.I. Similes in the works of Chaucer: Their origins and stylistic functions. – Ottawa, 1964. – 286 p;
11. Galperin I.R. Stylistics. – M., 1981. – 336 p.

12. Gambell T.J. Simile and Metaphor Production in Children's Oral language. – Alberta. 1976. – 153 p;
13. Graham I. Difference in Translation. – Carnell University Press, 1985. 256 p;
14. Jo'rayev M. Va boshqalar "O'zbek folklorshunosligi" Antologiya. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 601 b.
15. Kevin Windle and Malmkjer Kristen. The Oxford Handbook of Translation Studies. – Oxford: Oxford University Press, 2011. 256 p.
16. Larson M. Meaning-Based Translation. A Guide to Cross-Language Equivalence. University press of America. – 586 p.
17. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O'zbek folklori. Darslik. – Toshkent: 2020. – 237 b.
18. Mona Baker M., Saldanha G. Routledge Encyclopedia of Translation studies. 2nd edition. – London: Taylor & Francis e-Library, 2009. 674 p;
19. Muminov O, Kuldoshev A, Khoshimov U. English for Translators. – T.: Шарқ 2005. – 384 б;
20. Muminov O, Xodjayeva M, Mirzamuhammedova R, Alimova Z ... Practical Course in Translation. – T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2011. – 192 б.
21. Munday J. Introducing Translation studies – Routledge, 2001. 376 p;
22. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: "Aloqachi", 2008. – 100 b.
23. Мирбадалева А.С, Кидайш-Покровская Н.В. О принципах перевода и комментирования текста Манас. Киргизский героический эпос. Книга 1. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1984. – 544 с.
24. Newark P.A. Textbook of Translation. – London, 2002. 292 p;
25. Nida E. Taber.Ch.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden, 1969. 220 p.
26. Nida E. Towards a Science of Translating. – Leiden, 1964. 331 p;

27. Roger. N. Bell. Translation and Translating, (Theory and Practice). – London, New York, 2001. 80 p;
28. Remy Dor. Nourali le Preux et Marghoumon-Paris. – Coisie: Langues mondes, IFEAC, 2005. – 302 p.
29. Smaranda T. Generating Similes Effortlessly like a Pro: A Style Transfer Approach for Simile Generation. – Berlin, 2020. – 185 p.
30. Stefanowitsch A. Corpus-Based Approaches to Metaphor and Metonymy. – Berlin, 2006. – 325 p.
31. Stephens M. Living Folklore. – Utah: Utah State University Press, 2005. – 311 p.
32. Swan M. Practical English Usage. – Oxford, England: Oxford University Press, 1980. – . 674 p.
33. Алиев С. Мумтоз адабиётда бадий санъатлар. Тарихий поэтика. – Бухоро: 1994. – 141 б;
34. Буслаев Ф.И. Русские пословицы и поговорки, собранные и объясненные. Москва, 1954. 176 с..
35. В.Н.Телия. Образы средства русского языка. М., 1995. 132 с.
36. Виноградов В. С. Лексические вопросы перевода художественной прозы: – М, Изд-во МГУ, 1978. – 174 с;
37. Влахов С, Флорин С. Непереводимое в переводе. Изд. 5-е. – Москва: Р. Валент, 2012. – 406 с;
38. Габровский Н. Теория перевода. – М.: 2004. – 554 с;
39. Гафуров И, Мўминов О, Қамбаров Н. Таржима назарияси. – Т.: Тафаккур – Бўстон, 2012. – 216 б;
40. Гафуров И. Таржимон мутахассислигига кириш. – Т.: Меҳридарё, 2008. – 118 б;
41. Дотмурзиева З.С. Прагматика англоязычного художественного текста и проблемы прагматики его перевода. – Пятигорск, 2006. 152 с.

42. Егер Г. Коммуникативная и функциональная эквивалентность, Вопросы теории перевода в современной лингвистике. – Москва: Международные отношения, 1978. – 156 с.
43. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 2003. – 162 б.
44. Жирмунский В.М. Народный героический эпос. – Л.: ГИХЛ, 1962. – 437 с.
45. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский героический эпос. – Москва: Государственное издательство художественной литературы, 1947. – 562с.
46. Жўраев К., Жўраев Э., ва бошқалар. Таржима назарияси ва амалиёти. – Андижон: 2008. – 116 б;
47. Илюшкина М.Ю. Теория перевода: основные понятия и проблемы – Екатеринбург: 2015. – 84 с;
48. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1990. – 304 б.
49. Йўлдошев У. Таржима назарияси. – Самарқанд: Самарқанд давлат чет тиллари институти нашриёти, 2021. 125 с.
50. Казагачева З.С. Алтайские героические сказания “Очи-Бала”, “Кан-Алтын” (Аспекты текстологии и перевода). – Горно-Алтайск, 2002. 352 с.
51. Кидайш-Покровская Н.В. Перевод тюркоязычных памятников в Академической серии, Фольклор. Издание эпоса. – Москва: Наука, 1977. 332 с.
52. Комиссаров В. Н. Слово о переводе. – ИМО, 1973. – 215 с;
53. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Учебное пособие – М.: ЭТС, 2001. – 424 с.
54. Копанев П. И. Вопросы истории и теории художественного перевода. – Минск: Изд-во Велорус, ун-та, 1972. – 295 с;

55. Латышев, Л. К. Технология перевода : учебник и практикум для вузов / Л. К. Латышев, Н. Ю. Северова. — 4-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 263 с.
56. Лебедева Ж.К. Архаический эпос эвенов. – Новосибирск: Наука, Сиб. отд-ние, 1981. – 160 с.
57. Левик В. О точности и верности. Мастерство перевода, сб. ст. – М.: Советский писатель, 1959. – 300 С.
58. Майногашева В.Е. Хакасский героический эпос. “Алтын-Арыг”. Хакасский героический эпос. – Москва: Наука, 1988. – С. 533.
59. Махмудов Н. Тил. – Тошкент, Ёзувчи, 1998. 40 б.
60. Мирзаева Н. XX аср шеърятда метафорик образ муаммоси: (Гарсиа Лорка ва Шавкат Раҳмон шеърят мисолида). – Тошкент, 2006. – 124 б;
61. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатишлар. – Тошкент: Фан, 1976. – 185 б.
62. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005. – 352 б;
63. Мухин А.М. Синтаксический анализ и проблема уровней языка. – Л.: 1980. – С. 303.
64. Мухин А.М. Системные отношения переходных глагольных лексем. – Л.: “Наука”, 1987. – С. 291.
65. Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент, 2012. – 200 б;
66. Писарева Л.А. Поэтика фольклора и перевод. Латышские дайны в русских переводах. – М.: ЭКОН, 2002. 101 с.
67. Пулатов Ю. Бадий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967. – 68 б;
68. Раҳимов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2016. – 176 б;
69. Рецкер Я. И. Задачи сопоставительного анализа переводов: Теория и критика перевода. – Л.: 1962. 168 с.

70. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Москва: 1974;
Станевич В. Некоторые вопросы перевода прозы. Мастерство перевода,
сб. ст. – Москва: Советский писатель, 1959. 241 с.
71. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадий таржима. – Тошкент: Фан, 1980. –
160 б.
72. Саломов Ғ., Комилов Н., Салимова З., Жўраев К., Отажонов Н.
Таржимон маҳорати. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1979. – 194 б.
73. Саломов Ғ. Мен сув ичган дарёлар. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги
Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 280 б.
74. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 236 б;
75. Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги
адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 192 б.
76. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 384 б.
77. Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Т.: Ғафур Ғулом
номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 222 б.
78. Саттаров Т.К. “Дил ва тил бирлиги”. Тошкент, 2016. – 67 б.
79. Сиддиқ С. Адабий таржима санъати. – Тошкент: Уздавнашр, 1936. – 72
б;
80. Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадий таржима асослари. – Тошкент:
Мумтоз сўз, 2011. – 164 б.
81. Соколовский Я.В. Соотношение оригинала и перевода
художественного текста: изоморфно-когнитивный подход. – И., 2009.
154 с.
82. Суяргулов Н.А. Особенности языка и стиля башкирского перевода
Корана. – Уфа, 2004. 243 с.
83. Ахпашева Н.М. Переводческая традиция хакасских сказаний о
богатырях: опыт прескриптивного анализа художественного перевода, –
М.: 2009. 197 с.
84. Терещенко Н.М. Ненецкий эпос: Материалы и исследования по са-
модийским языкам. – Ленинград: Наука, 1990. – 335 с.

85. Федоров А. В. Основы общей теории перевода. – М.: Высшая школа, 1968. – 400 с;
86. Хайруллин В.И. Перевод и фреймы: учебное пособие. – М.: Книжный дом “Либриком”, 2010. 189 с.
87. Хожимухаммедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ нашриёти, 1998. – 160 б;
88. Черкасский А.Е. Русская литература на Востоке (теория и практика перевода). – М., 1987. 182 с.
89. Швейцар А. Д. Перевод и лингвистика. – М.: Воениздат, 1973. - 280 с;
90. Швейцар А.Д. Теория перевода. Статус, проблемы, аспекты. – М., 1988. 215 с.
91. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1983. – Б. 236.

92. III. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

93. Abduvahobova M.A. Ingliz, itayan va o‘zbek folklor matnlarida genderning til vositalarida ifodalanishi. Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2019. – 164 b;
94. Fayzulloyev O.M. O‘zbek folklorida lingvokuluramalarning ingliz tilida berilishi (Bolalar folklori va ertaklar misolida). Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2019. – 160 b;
95. Gargani A. Poetic comparisons how similes are understood. Diss...PhD. Schools of Arts and media University of Salford. – UK, 2014. – 82 p.
96. Kasimova R.R. O‘zbek to‘y va motam marosim folklori matnlarining inglizcha tarjimasida etnografizmlarning berilishi. Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2018. – 170 b;
97. Nasriddinova Y.A. O‘zbek folklori va mumtoz adabiyoti fransuz tilida (Remi Dor tarjimalari asosida). Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2019. – 162 b;
98. Saparov A.J. O‘zbek folklori asarlarini rus tiliga tarjima qilishda milliy koloritni tiklash tamoyillari. Filol.fan.dok...diss. – Toshkent, 2020. – 269 b;

99. Алекперова Ш.А. Проблема передачи национального своеобразия азербайджанского эпоса “Кёроглу” на русском языке /Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд. филол. наук. – Баку, 1982. 165 с.
100. Алламберганаева Н.Г. “Алпомиш” достонининг Ўзбек ва қорақалпоқ версиялари қиёсий типологияси. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 155 б.
101. Бақоева М. Инглиз ва Америка адабиётидан ўзбек тилига шеъррий таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари. – Т.: Фан, 2015. – 288 б;
102. Бозоров М. Проблемы перевода лексических параллелизмов и ложных эквивалентов. Дисс. в форме научного доклада на соиск. уч. степ, д-ра филол. наук. – Т.: 1985. – С. 242;
103. Боймухаммедова К.А. “Кунтуғмиш” достонининг вариантлари ва бадиияти. Филол. фан. номзод...дисс. – Тошкент, 2007. – 137 б;
104. Буматова А. Шарқ лирик жанрларининг инглизча таржималарида шаклий-семантик ва поэтик уйғунлик (ғазал ва рубоий мисолида). Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 156 б;
105. Дильманов И.О. Қардош тиллардан эпос таржимаси миллий ўзига хосликни қайта талқини. Филол.фан.номзод...дисс. – Тошкент, 2005. – 151 б;
106. Долгова А.Н. Грамматическая и лексико-семантическая структура устойчивых сравнений как класса фразеологических оборотов: (на материале русского, английского и немецкого языков). Автореф. дисс. канд. филол. Наук. – Минск, 2007. – 22 с;
107. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг линвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2017. – 280 б.
108. Жуманиёзов З. “Равшан” достони немисча таржимасида миллийликни қайта яратиш. Филол. фан. номзод. ... дисс. – Урганч, 2008. – 156 б;

109. Зимнева О.Н. Лексика русских народных баллад: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Курск, 2005. – 18 с.
110. Исамухамедова Н. Стилистическая адекватность художественного текста: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 146 с;
111. Қобилжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Дисс,...канд филол. наук. – Тошкент, 2000. – 132 б;
112. Курбонова М.О. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2019. – 153 б;
113. Маҳмадиев Ш.С. Ўзбек халқ достонлари тилида стилистик формулалар. Филол. фан. номзод...дисс. – Тошкент, 2007. – 181 б;
114. Маҳмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс,... док-ра филол. наук. – Тошкент, 1984. –259 б.
115. Мирбадалева А.С. Текстология тюркоязычного эпоса: теоретические и методические аспекты двуязычного научного издания “Манаса” и других эпических памятников. Автореф. дисс. в форме научного доклада на соиск. уч. степ, д-ра филол. наук. – М., 1995. 236 с.
116. Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари. Автореф. дисс. уч. степ. канд. филол. наук. – Тошкент. 1965. 56 с.
117. Одилова Г. Инглиз ва ўзбек мумтоз шеърини таржималарида адекватлик муаммолари. Филол. фан. номзод...дисс. – Тошкент, 2011. – 153 б;
118. Раимова Н.А. Хоразм достонларининг поэтик тизими (банд, вазн ва қофия мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 151 б;
119. Раҳимов А.С. Ўзбек халқ достонлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида); Филол. фан. номзод...дисс. – Самарқанд, 2002. – 140 б.
120. Саидов М. Ўзбек халқ достонларида бадиий маҳорат масалалари. Автореф. Дисс.... уч. степ, д-ра филол. наук. – Тошкент. 1969. 56с.

121. Тухтасинов И. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш. Педагогика. фан. док...дисс. – Тошкент, 2018. – 242 б;
122. Умаров И.А. Фозил Йўлдош ўғлининг “Малика айёр” достони лексикаси (тарихий-этимологик, функционал-семантик ва стилистик таҳлил): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... автореф. – Фарғона, 2019. – 51 б;
123. Фенин Ю. Устойчивые сравнения характеризующие лицо человека в русской картина мира. Дисс ...канд. филол. наук – Санкт-Петербург, 2016. – 255 с;
124. Ходжиев Ю.Н. “Алпомиш” достонидаги шахс маънавий сифатларини ифода этувчи атов бирликларнинг семантик-структур, концептуал ва лексикографик хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 121 б;
125. Худойназаров И. Антропонимларнинг тил-луғат тизимидаги ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: (Эргаш Жуманбулбул достонлари асосида). Филол. фан. ном...дисс. – Бухоро, 1998. – 134 б;

IV. Ilmiy maqolalar:

126. Fishelov D. Simile understanding and semantic categories. // Journal of Literary Semantics. Vol 36. 2007. – P. 70-87.
127. Hussein, F. R., & Sawalha. M . (2016). A Corpus-based Study of Similes in British and American English. Arab World English Journal, 7(2). P. 49-60
128. Heilbron J. Translation as a Cultural World System // European journal of social theory 2 (4), 1999. – P. 429-444.
129. Staminovic D. cognitive semantic aspects of animal Similes in English. https://papers.ssrn.com/sol3_id=1785661
130. Ахманова О.С, Задориова В.Я. Теория и практика перевода в свете учения о функциональных стилях речи // Лингвистические проблемы перевода. – М.: Изд-во Московского университета, 1981. – С. 3–12.

131. Toury G. The Translation of literary Text vs Literary Translation from the Point of View of the Target Literary System. // Литература и перевод проблемы теории – М.: 1993. – С. 164.
132. Эткинд Е. Перевод и сопоставительная стилистика. Мастерство перевода, сб. ст. – М.: Советский писатель, 1959. – С. 86.
133. Гацак В. М. Проблема фольклорического перевода эпоса. // Петросян, А. А., ответственный редактор. Фольклор. Издание эпоса. – Москва : Изд. “Наука”, 1977. – 192 с.
134. Қўшмоқов М. “Чечанликда сўзга сувдайин оқиб... .” – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 43.
135. Коршунова Е.С. Способы художественного перевода сравнений (на примере Э.Хемануэя “Старик и море”) Филологические науки. // Вопросы и практики. – 2018. - № 5(83). – С. 124-127;
136. Олимов С. Илмий таржима мураккабликлари. // Таржима санъати. Мақолалар тўплами. 6-китоб. – Тошкент: Ғафур ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 110.
137. Саломов Ғ. Қутлуғ мақсадга камарбаста. // Таржима санъати 5-китоб. – Тошкент, 1980. – Б. 5.
138. Саломов Ғ., Жўраев К., Олимов С. Таржима санъати. 4-к. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б.128.

V. Badiiy adabiyotlar:

139. “ALPOMISH” Uzbek heroic epos. (translator) K.Mamurov. – Tashkent, 2019. –. 152 p.
140. Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998. – 400 б.
141. A Sad Dawn (Mayus Tong). Collection of Poems by poetess Uktamoy. “Meryus”. Tashkent, 2008. 63 p.
142. Alisher Navoiy. Ummondan Durlar. Die perlen aus dem ozen. Pearls from the ocean. (Badiiy tarjima). Toshkent. “Sharq” nashriyoti, 2000. – 142 b.

143. Halima Avazmuhammad-Jumaniyozova. “Sog‘inch daraxti” (A Tree of Missing). She’rlar. Tarjimon Qosimboy Ma’murov. –Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2020. –94 b;
144. Halima Avazmuhammad-Jumaniyozova. “Vatan ifori” (Flavour of Motherland). She’rlar. Tarjimon Qosimboy Ma’murov. –Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2022. –144 b.
145. Rustamova Barno. Children of Adam. Translated by K. Mamurov. – Tashkent: “Tafakkur qanoti”, 2013. –119 p.
146. Salomat Vafo. Nomsiz kema. (A nameless ship). Stories. Translated by Kosim Mamurov. –Tashkent: “Muzika”, 2009. - 91 p.
147. Sulaymonov A. Muallim o‘gitalari. Teacher’s advice. She’riy tarjima. Toshkent. “O‘qituvchi” nas’hriyoti, 1998. 38 b.
148. Uktamoy. My heart is weeping. Collection of poems. Translated by K.Mamurov. India, 2009. 58 p.
149. Waley A. One Hundred & Seventy Chinese Poems. – London: Constable and Co., 1918. – 168 p.
150. Yormuhammad. Gowa Legend. Epic poem. In English and Uzbek languages. Translated by Qosimboy Ma’murov. – Tashkent: “Fan”, 2009. - 32 p.

VI. Lug‘atlar:

151. Butaev Sh. English-Uzbek, Uzbek-English Dictionary. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2016. – 1040 bet.
152. Merriam Webster. Dictionary of English Usage. Merriam-Webster, Inc.; Reprint edition. November 1, 1994. 992 p.
153. Маҳмудов Н, Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 318 б.
154. Мирзаев Т., Ешонкулов Ж., Селами Ф. “Алпомиш” достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Елмус-Пресс-Медиа” нашриёти, 2007. 162 б.

155. Прохоров А. Большой энциклопедический словарь/ Гл. ред. А.М.Прохоров - 2-е изд. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2000. – 1434с.
156. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. Қомуслар бош таҳририяти, Тошкент,1992. 379 б.
157. Салаев Ф., Курбонниёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – 332б.
158. Словарь иностранных слов. – Москва, 1979. – С. 17; 584 с.
159. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. 1.А -Д/ Таҳрир хайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎЗР ФА Тил ва адабиёт институти. - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. - 670 б.; Ж.2. Е -М /- 672 б.; Ж.3. Н -Тартибли /- 688 б.; Ж.4. Тартибот - Шукр /- 608 б.; Ж.5. Шукрона -Ҳ / -592 б.
160. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002. – 164 б.
161. Главный редактор В. Н. Ярцева. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: 1990. – 683с.
162. Macmillan. English dictionary for advanced learners. – London, 2006. – 657 p.
163. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary. – Oxford University Press. – 1516 p.
164. Sommer E. Similes dictionary. – Detroit: Visible Ink Press, 2013. – 625 p.